Tadqiqotda quyidagi diagnostik vositalardan kompleks foydalanish taklif etiladi: o‘quvchining o‘zini baholash anketasi; pedagogik kuzatuv kartasi; vaziyatli va axloqiy topshiriqlar; guruhli faoliyatni baholash rubrikasi; jamoaviy loyiha natijalari; refleksiv kundalik; elektron yoki bosma portfolio; tengdoshlarning qayta aloqasi; pedagog va mentorning ekspert bahosi; ota-ona va maktab maslahatchisining fikri.

Mazkur vositalar turli tomonlarni ochib beradi. Masalan, anketa o‘quvchining o‘zi haqidagi tasavvurini, kuzatuv real xulqini, vaziyatli topshiriq qaror qabul qilish strategiyasini, loyiha rubrikasi hamkorlik va mas’uliyatni, portfolio esa rivojlanish dalillarini ko‘rsatadi.

Diagnostik ma’lumotlarni pedagogik jihatdan talqin qilish uchun to‘rtta rivojlanganlik darajasi taklif etiladi.

Boshlang‘ich daraja. Mazkur darajadagi o‘quvchi:

- hissiyotlarni aniqlash va farqlashda qiynaladi;
- xulqi ko‘proq vaziyat va tashqi nazoratga bog‘liq bo‘ladi;
- impulsiv reaksiyalarni boshqarishda qiyinchilik sezadi;
- guruhdagi ishtiroki passiv yoki ziddiyatli bo‘lishi mumkin;
- boshqa insonlarning nuqtayi nazarini yetarli hisobga olmaydi;
- qarorlarining axloqiy va ijtimoiy oqibatlarini to‘liq anglamaydi.

Moslashuvchan daraja. Mazkur darajadagi o‘quvchi:

- asosiy hissiyotlarni taniydi va nomlaydi;
- pedagog yordami bilan o‘zini boshqaradi;
- tanish vaziyatlarda hamkorlik qiladi;
- faol tinglash va hurmatli muloqot elementlarini namoyon etadi;
- vazifa va mas’uliyatni tashqi yo‘naltirish asosida bajaradi;
- konflikt vaziyatida pedagog yoki kattalar yordamiga ehtiyoj sezadi.

Faol-produktiv daraja. Mazkur darajadagi o‘quvchi:

- hissiyotlarini anglaydi va ularning sabablarini tushuntiradi;
- vaziyatga mos o‘zini boshqarish strategiyasini tanlaydi;
- empatik va hurmatli muloqot qiladi;
- jamoaviy faoliyatda faol rol bajaradi;
- tashabbus ko‘rsatadi va mas’uliyatni bo‘lishadi;

- nizolarni konstruktiv hal qilishga harakat qiladi;
- qarorlarining ijtimoiy va axloqiy oqibatlarini hisobga oladi.

Tashabbuskor-refleksiv daraja. Mazkur darajadagi o‘quvchi:

- murakkab vaziyatlarda ham emotsional barqarorligini saqlaydi;
- o‘z xulq-atvorini mustaqil boshqaradi;
- boshqa insonlarga emotsional va ijtimoiy yordam ko‘rsatadi;
- guruhni konstruktiv hamkorlikka yo‘naltiradi;
- ijtimoiy tashabbus va loyihalarni ilgari suradi;
- konfliktlarni muzokara va mediatsiya orqali hal qilishga yordam beradi;
- o‘z faoliyati va rivojlanishini mustaqil refleksiya qiladi;
- yangi rivojlanish maqsadlarini belgilaydi.

Mazkur darajalar o‘quvchiga o‘zgarmas yorliq sifatida berilmasligi kerak. Bir o‘quvchining emotsional-kognitiv komponenti yuqori, regulyativ-xulqiy komponenti esa nisbatan past darajada bo‘lishi mumkin. Shu sababli yakuniy baholashda umumiy ko‘rsatkich bilan bir qatorda har bir komponent bo‘yicha *individual diagnostik profil* tuzish maqsadga muvofiq.

Diagnostik-korreksion sikl. Taklif etilayotgan mexanizmning asosiy xususiyati diagnostika natijalarining pedagogik faoliyatni bevosita o‘zgartirishga xizmat qilishidir. Mazkur sikl quyidagi ketma-ketlik asosida ishlaydi:

diagnostika → ehtiyojni aniqlash → faoliyatni moslashtirish → formativ kuzatuv → rivojlantiruvchi qayta aloqa → pedagogik korreksiya → qayta diagnostika.

Dastlabki diagnostika o‘quvchining kuchli jihatlari va rivojlanish ehtiyojlarini aniqlaydi. Ushbu ma’lumotlar asosida metod, topshiriq, guruhdagi rol va pedagogik yordam shakllari moslashtiriladi. Faoliyat davomida formativ kuzatuv olib borilib, o‘quvchiga muntazam qayta aloqa beriladi.

Masalan, diagnostika o‘quvchilarning hissiyotlarni yaxshi anglashini, biroq konfliktli vaziyatlarda konstruktiv strategiyalarni qo‘llay olmasligini ko‘rsatsa, keyingi mashg‘ulotlarda muzokara, rolli o‘yin, mediatsiya va kommunikativ keyslarga ko‘proq e’tibor qaratiladi.

Ayrim o‘quvchilar jamoaviy faoliyatda passiv bo‘lib qolsa, guruhdagi rollar qayta taqsimlanadi va ularga kichik, ammo mas’uliyatli vazifalar beriladi. Loyiha faolligi yuqori, biroq refleksiya yuzaki bo‘lsa, portfolio, refleksiv kundalik va pedagogik suhbat metodlari kuchaytiriladi.

Rivojlantiruvchi qayta aloqa hukm yoki yorliq shaklida emas, balki o‘quvchining keyingi rivojlanish yo‘lini ko‘rsatuvchi tavsiya shaklida berilishi lozim.

Masalan, “Sen jamoada ishlay olmaysan” degan baho o‘rniga “Vazifani bajarishda faollik ko‘rsatding, keyingi safar guruhdoshlaring taklifini umumlashtirishga e’tibor qaratamiz” kabi konstruktiv qayta aloqa beriladi.

Diagnostik-korreksion mexanizm natijalari uch darajada qo‘llanilishi mumkin. Individual darajada o‘quvchining rivojlanish xaritasi, shaxsiy maqsadlari, topshiriqlari va pedagogik yordam shakllari yangilanadi.Guruhiy-pedagogik darajada mashg‘ulot metodlari, guruhdagi rollar, kommunikativ faoliyat va refleksiya shakllari korreksiya qilinadi. Institutsional darajada pedagog va mentorlar tayyorgarligi, markazning metodik ta’minoti, oila va maktab bilan hamkorlik mexanizmlari hamda monitoring tizimi takomillashtiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. OECD. Social and Emotional Skills for Better Lives: Findings from the OECD Survey on Social and Emotional Skills 2023. – Paris: OECD Publishing, 2024.
2. Collaborative for Academic, Social, and Emotional Learning. CASEL Framework for Systemic Social and Emotional Learning. – Chicago: CASEL.
3. UNESCO. Mainstreaming Social and Emotional Learning in Education Systems: Policy Guide. – Paris: UNESCO, 2024.
4. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1979.
5. Kolb D.A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1984.
6. Schön D.A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. – New York: Basic Books, 1983.
7. Deci E.L., Ryan R.M. The “What” and “Why” of Goal Pursuits: Human Needs and the Self-Determination of Behavior // Psychological Inquiry. – 2000. – Vol. 11, No. 4. – P. 227–268.
8. Vygotsky L.S. Pedagogicheskaya psikhologiya. – Moskva: Pedagogika-Press, 1996.

O‘QUVCHILARNING IJTIMOIY-EMOTSIONAL KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA KO‘P SUBYEKTLI IJTIMOIY-PEDAGOGIK SHERIKLIK

M.M. Nosirova
Shahrisabz davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada maktabdan tashqari ta’lim sharoitida o‘quvchilarning ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi ko‘p subyektli ijtimoiy-pedagogik sheriklikning mazmuni va funksional mexanizmi yoritilgan. O‘quvchining ijtimoiy-emotsional rivojlanishi alohida pedagog yoki ta’lim muassasasining ta’siri bilan cheklanmasligi, balki “Kelajak” markazi, maktab, oila, mahalla, maktab maslahatchisi va jamoat tashkilotlarining muvofiqlashtirilgan hamkorligi asosida ta’minlanishi asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy-emotsional kompetensiya, ijtimoiy-pedagogik sheriklik, “Kelajak” markazi, maktab, oila, mahalla, hamjamiyat, individual rivojlanish trayektoriyasi, ijtimoiy transfer, pedagogik hamkorlik.*

Аннотация. *В статье раскрываются содержание и функциональный механизм многосубъектного социально-педагогического партнёрства, направленного на развитие социально-эмоциональных компетенций учащихся во внешкольном образовании. Обосновывается необходимость согласованного взаимодействия центра «Келажак», школы, семьи, махалли, школьного консультанта и общественных организаций, поскольку развитие учащегося не ограничивается влиянием одного педагога или учреждения.*

Ключевые слова: *социально-эмоциональная компетенция, социально-педагогическое партнёрство, центр «Келажак», школа, семья, махалля, сообщество, индивидуальная траектория развития, социальный перенос, педагогическое сотрудничество.*

Abstract. *The article examines the content and functional mechanism of multi-stakeholder social and educational partnership for developing students’ social and emotional competencies in extracurricular education. It argues that development cannot depend on one teacher or institution alone and requires coordinated cooperation among the Kelajak centre, school, family, mahalla, school counsellor and community organisations.*

Keywords: *social and emotional competence, social and educational partnership, Kelajak centre, school, family, mahalla, community, individual development pathway, social transfer, educational cooperation.*

O‘quvchilarning ijtimoiy-emotsional kompetensiyalari faqat maxsus mashg‘ulot, trening yoki pedagogik metodlar orqali shakllanadigan alohida ko‘nikmalar majmui emas. Ular o‘quvchining turli ijtimoiy muhitlarda orttirgan tajribasi, kattalar va tengdoshlar bilan munosabatlari, oiladagi emotsional muhit, maktabdagi kommunikativ madaniyat, mahalladagi ijtimoiy faollik va jamoat hayotidagi ishtiroki ta’sirida rivojlanadi.

O‘quvchi maktabdan tashqari ta’lim markazida hamkorlik, o‘zaro hurmat va mas’uliyatli qaror qabul qilish qoidalarini egallashi, biroq maktab, oila yoki tengdoshlar muhitida mutlaqo boshqa munosabatlarga duch kelishi mumkin. Turli muhitlarda taqdim etilayotgan talablar va xulq modellarining o‘zaro mos kelmasligi shakllanayotgan kompetensiyalarning barqarorligini pasaytiradi.

Shu sababli ijtimoiy-emotsional rivojlanishni faqat bitta ta’lim muassasasi doirasida tashkil etish yetarli emas. Ushbu jarayonda maktabdan tashqari ta’lim markazi, maktab, oila, mahalla, mutaxassislar va jamoat tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi ko‘p subyektli ijtimoiy-pedagogik sheriklik zarur.

Mazkur nazariy pozitsiyalardan kelib chiqib, *ko‘p subyektli ijtimoiy-pedagogik sheriklik* deganda o‘quvchining ijtimoiy-emotsional rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish uchun ta’lim va tarbiya subyektlarining funksional vazifalari taqsimlangan, o‘zaro mas’uliyat, qayta aloqa va pedagogik muvofiqlashtirishga asoslangan hamkorlik tizimi tushuniladi.

Ushbu sheriklikning asosiy maqsadi o‘quvchini turli tashkilotlar tomonidan nazorat qilish emas, balki turli muhitlarda amalga oshirilayotgan pedagogik ta’sirlarning uyg‘unligi va rivojlanish jarayonining uzluksizligini ta’minlashdir.

Maktabdan tashqari ta’lim tizimidagi “Kelajak” markazi ko‘p subyektli sheriklikning tashkiliy va metodik muvofiqlashtiruvchi bo‘g‘ini sifatida faoliyat yuritishi mumkin. Markazning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

- ijtimoiy-emotsional rivojlantiruvchi mashg‘ulotlarni tashkil etish;
- o‘quvchilarni jamoaviy, ijodiy va ijtimoiy loyihalarga jalb qilish;
- emotsional xavfsiz va inklyuziv pedagogik muhit yaratish;
- o‘quvchilarning individual ehtiyojlari va kuchli jihatlarini aniqlash;
- pedagogik kuzatuv va rivojlantiruvchi monitoringni olib borish;
- oila, maktab va mahalla bilan hamkorlikni muvofiqlashtirish;
- o‘quvchilarning ijtimoiy tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash;
- individual rivojlanish trayektoriyasini shakllantirish.

Markaz o‘quvchiga faqat bilim yoki qo‘shimcha ko‘nikma beruvchi muassasa sifatida emas, balki turli ijtimoiy tajribalarni birlashtiruvchi va o‘quvchi tashabbusini real faoliyatga aylantiruvchi pedagogik makon sifatida qaralishi lozim.

Umumta’lim maktabi o‘quvchining ijtimoiy-emotsional kompetensiyalari kundalik o‘quv faoliyati va tengdoshlar bilan munosabatlarda qanday namoyon bo‘lishini kuzatish imkoniyatiga ega.

Maktabning sheriklik tizimidagi vazifalari quyidagilarni qamrab oladi:

- o‘quvchining sinf va maktabdagi kommunikativ xulqini kuzatish;
- tengdoshlar bilan hamkorlik va konfliktlar dinamikasini aniqlash;
- maktabdan tashqari faoliyat natijalarini tarbiyaviy ishlar bilan muvofiqlashtirish;
- sinf rahbari, fan o‘qituvchilari va maktab maslahatchisi o‘rtasidagi hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;
- maktab muhitida shakllangan kompetensiyalarni qo‘llash uchun vaziyatlar yaratish;
- o‘quvchining rivojlanish dinamikasi yuzasidan markaz va oilaga qayta aloqa berish.

Maktabning vazifasi o‘quvchini yana bir marta baholash emas, balki maktabdan tashqari muhitda shakllangan kompetensiyalarning kundalik ta’lim jarayonidagi namoyon bo‘lishini kuzatish va qo‘llab-quvvatlashdan iborat.

Oila bolaning birlamchi emotsional va ijtimoiy tajribasi shakllanadigan muhitdir. Ota-onalarning muloqot uslubi, hissiyotlarga munosabati, nizolarni hal etish strategiyalari va bolaga beriladigan mustaqillik darajasi uning ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Oilaning sheriklik tizimidagi vazifalari:

- o‘quvchiga barqaror emotsional qo‘llab-quvvatlash ko‘rsatish;
- uning fikri va hissiyotlarini tinglash;
- oilaviy muloqotda hurmat va ishonchni ta’minlash;
- uy sharoitida mustaqillik va mas’uliyatni rivojlantirish;
- o‘quvchining markazdagi faoliyatiga qiziqish bildirish;
- rivojlanish dinamikasi yuzasidan pedagoglarga qayta aloqa berish;
- o‘quvchining individual maqsadlarini qo‘llab-quvvatlash;
- konfliktlarni zo‘ravonliksiz hal qilishga shaxsiy namuna ko‘rsatish.

Oila bilan ishlashda ota-onalarni faqat majlisga chaqirish yoki o‘quvchining kamchiliklari haqida ma’lumot berish yetarli emas. Hamkorlik ota-onaning pedagogik jarayondagi faol va mas’uliyatli sherik sifatida ishtirokini nazarda tutadi.

Shu maqsadda ota-onalar bilan seminar, pedagogik maslahat, ota-ona va bola ustaxonasi, oilaviy loyiha, individual suhbat va rivojlantiruvchi tavsiyalardan foydalanish mumkin.

Maktab maslahatchisi yoki tegishli pedagogik mutaxassis ko‘p subyektli sheriklikda o‘quvchining individual ehtiyojlari va rivojlanish yo‘nalishlarini muvofiqlashtiruvchi vazifani bajaradi. Uning asosiy funksiyalari:

- o‘quvchining pedagogik va ijtimoiy-emotsional ehtiyojlarini aniqlash;
- o‘quvchi, pedagog va ota-ona o‘rtasidagi muloqotni tashkil etish;
- individual rivojlanish rejasini ishlab chiqishda ishtirok etish;
- markaz va maktabdagi kuzatuv natijalarini umumlashtirish;
- o‘quvchi uchun mos pedagogik yordam shakllarini tavsiya etish;
- zarur holatlarda tegishli mutaxassisga murojaat qilishni muvofiqlashtirish;
- rivojlanish dinamikasini kuzatish va qayta aloqani tashkil etish.

Maslahatchi o‘quvchini turli subyektlarning baholari obyektiga aylantirmasligi lozim. Uning vazifasi turli manbalardan olingan ma’lumotlarni etik talablar asosida umumlashtirish va pedagogik yordamni muvofiqlashtirishdan iborat.

Mahalla o‘quvchining ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarini real ijtimoiy faoliyatda qo‘llashi uchun tabiiy makon yaratadi. Agar kompetensiyalar faqat mashg‘ulot yoki sinf doirasida namoyon bo‘lsa, ularning hayotiy barqarorligi cheklangan bo‘lib qoladi. Mahalla va jamoat tashkilotlari quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

- volontyorlik faoliyatini tashkil qilish;
- ijtimoiy va ekologik loyihalarda ishtirok etish;
- keksa avlod vakillari bilan hamkorlik;
- mahalliy muammolarni o‘rganish va yechim taklif qilish;
- xayriya va o‘zaro yordam tashabbuslarini amalga oshirish;
- milliy qadriyatlar va madaniy merosga oid loyihalarda qatnashish;
- fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyatni namoyon etish.

Masalan, mahalladagi ekologik muammoni aniqlash, loyiha rejasini tuzish, vazifalarni taqsimlash va natijani jamoatchilikka taqdim etish jarayonida o‘quvchilar hamkorlik, liderlik, mas’uliyat, empatiya va muammoli vaziyatlarni hal qilish kompetensiyalarini real sharoitda qo‘llaydilar.

Jamoat tashkilotlari esa mentorlik, resurs, ekspert ko‘magi va ijtimoiy tashabbuslarni kengaytirish imkoniyatlarini taqdim etishi mumkin.

Ko‘p subyektli sheriklik samarali ishlashi uchun har bir subyektning vazifalari aniq belgilanishi, o‘zaro qayta aloqa izchil tashkil etilishi va faoliyat umumiy pedagogik maqsadga yo‘naltirilishi zarur. Mazkur mexanizmni quyidagicha ifodalash mumkin: *ehtiyojlarni aniqlash → umumiy rivojlanish maqsadini belgilash → subyektlar funksiyalarini taqsimlash → muvofiqlashtirilgan faoliyat → ko‘p muhitli kuzatuv → qayta aloqa → individual va umumiy korreksiya.*

Birinchi bosqichda o‘quvchining kuchli jihatlari, qiziqishlari va rivojlanish ehtiyojlari aniqlanadi. Keyin o‘quvchi ishtirokida umumiy va individual maqsadlar belgilanadi. Har bir sherik o‘z vakolati va imkoniyatidan kelib chiqib muayyan vazifani bajaradi.

Masalan, markaz jamoaviy loyiha tashkil etadi, maktab o‘quvchining kundalik xulqidagi o‘zgarishlarni kuzatadi, oila emotsional qo‘llab-quvvatlashni ta’minlaydi, mahalla real faoliyat maydonini taqdim etadi, maslahatchi esa jarayonni muvofiqlashtiradi.

Mazkur faoliyat natijalari qayta aloqa orqali umumlashtiriladi. Agar o‘quvchi markazdagi loyihada faol, biroq maktabdagi guruhli faoliyatda passiv bo‘lsa, kompetensiyani turli vaziyatlarga ko‘chirishga qaratilgan qo‘shimcha topshiriqlar ishlab chiqiladi. Agar u tengdoshlari bilan hamkorlik qilsa-yu, oiladagi muloqotda keskinlik saqlansa, ota-ona bilan maslahat va oilaviy hamkorlik faoliyati kuchaytiriladi. Shu tariqa ko‘p subyektli sheriklik bir martalik tadbir emas, balki muntazam qayta aloqa va pedagogik korreksiyaga asoslangan uzluksiz jarayon sifatida faoliyat yuritadi.

Ko‘p subyektli sheriklikning shaxsga yo‘naltirilganligini ta’minlovchi asosiy vosita individual rivojlanish trayektoriyasidir.

Individual trayektoriya o‘quvchini boshqa bolalardan ajratish yoki unga soddalashtirilgan faoliyat taqdim etish degani emas. U umumiy dastur doirasida o‘quvchining ehtiyojlari, kuchli tomonlari, qiziqishlari, rivojlanish sur’ati va shaxsiy maqsadlarini hisobga olishni anglatadi.

Individual rivojlanish trayektoriyasi quyidagi bosqichlarda tashkil etiladi:

- boshlang‘ich pedagogik diagnostika;
- kuchli jihatlar va rivojlanish ehtiyojlarini aniqlash;
- o‘quvchi bilan hamkorlikda shaxsiy maqsad belgilash;
- mos faoliyat, topshiriq va rolni tanlash;
- markaz, maktab va oiladagi rivojlanishni kuzatish;
- formativ qayta aloqa berish;
- o‘quvchining o‘zini baholashi;
- individual rejani korreksiya qilish;
- natijalarni portfolio orqali qayd etish.

Mazkur jarayonda pedagogik yondashuv “kamchiliklarni aniqlash va tuzatish” paradigmasidan o‘quvchining kuchli jihatlariga tayangan holda rivojlantirish paradigmasiga o‘tadi.

Ko‘p subyektli hamkorlik o‘quvchi haqidagi ma’lumotlarni nazoratsiz almashish yoki uni bir nechta subyekt tomonidan jamoaviy baholash jarayoniga aylanmasligi kerak.

Sheriklikda quyidagi etik talablar ta’minlanishi zarur:

- o‘quvchining qadr-qimmatini hurmat qilish;
- shaxsiy ma’lumotlar daxlsizligini saqlash;
- faqat pedagogik jihatdan zarur ma’lumotlardan foydalanish;
- o‘quvchining fikri va roziligini hisobga olish;
- baholovchi va hukm qiluvchi iboralardan voz kechish;
- ma’lumotlarni rivojlantiruvchi yordam ko‘rsatish maqsadida qo‘llash;
- oila va ta’lim muassasasi o‘rtasida o‘zaro ishonchni ta’minlash.

Mazkur tamoyillar sheriklikni nazorat mexanizmidan o‘quvchi rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi insonparvar pedagogik tizimga aylantiradi.

O‘quvchilarning ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarini rivojlantirish bitta pedagog, ta’lim muassasasi yoki alohida metodning ta’siri bilan cheklanmaydi. Ushbu kompetensiyalar o‘quvchi faoliyat yuritadigan turli ijtimoiy muhitlarning o‘zaro uyg‘un ta’siri asosida barqaror shakllanadi.

Shu sababli “Kelajak” markazi, maktab, oila, maktab maslahatchisi, mahalla va jamoat tashkilotlarining ko‘p subyektli ijtimoiy-pedagogik sherikligini yo‘lga qo‘yish ijtimoiy-emotsional rivojlanishning muhim sharti hisoblanadi.

Sheriklik tizimida “Kelajak” markazi rivojlantiruvchi faoliyatni tashkil etadi, maktab kompetensiyalarning kundalik muhitda namoyon bo‘lishini kuzatadi, oila emotsional qo‘llab-quvvatlashni ta’minlaydi, maktab maslahatchisi individual rivojlanishni muvofiqlashtiradi, mahalla va jamoat tashkilotlari esa kompetensiyalarni real ijtimoiy faoliyatda qo‘llash imkoniyatini yaratadi.

Mazkur yondashuvning ilmiy ahamiyati ijtimoiy-emotsional rivojlanishni alohida muassasa doirasidagi pedagogik jarayon sifatida emas, balki *markaz – maktab – oila – mahalla – hamjamiyat* o‘rtasidagi funksional aloqalarga tayangan ko‘p muhitli rivojlanish tizimi sifatida talqin etish bilan belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
2. Dewey J. Experience and Education. – New York: Macmillan, 1938.
3. Rogers C.R. Freedom to Learn. – Columbus, Ohio: Charles E. Merrill Publishing Company, 1969.
4. Deci E.L., Ryan R.M. The “What” and “Why” of Goal Pursuits: Human Needs and the Self-Determination of Behavior // Psychological Inquiry. – 2000. – Vol. 11, No. 4. – P. 227–268.

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MILLIY O'ZLIK VAGLOBAL DUNYOQARASHNI UYG'UN SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK YONDASHUVLARI

Qudratova Gulira'no Bekzod qizi
"Profi University" nodavlat oliy ta'lim muassasasi, Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi Ta'lim faoliyati va tillar fakulteti talabasi

Anotatsiya

Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning milliy o'zligini anglash va global dunyoqarashini uyg'un shakllantirish, shuningdek, milliyqadriyatlarni ta'limga singdirish bilan birgalikda boshqa madaniyatlar ham qiyosiy o'rganiladi va hamkorlikdagi mashg'ulotlar hamda o'qituvchining pedagogik yondashish roli tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *Boshlang'ich ta'lim, milliy o'zlik, global dunyoqarash, milliy qadriyatlar, madaniyatlararo muloqot, madaniy xilma-xillik, pedagogik yondashuvlar, hamkorlikdagi mashg'ulotlar, jadidlar, jadidlar merosi.*

Аннотация

В данной статье рассматриваются педагогические подходы к гармоничному Формированию национальной идентичности и глобального мировоззрения Учащихся в процессе начального образования. Наряду с интеграцией национальных ценностей в образовательный процесс сравнительно изучаются и другие культуры, а также анализируются совместные занятия и роль педагогического подхода учителя.

Ключевые слова: *начальное образование, национальная идентичность, глобальное мировоззрение, национальные ценности, межкультурная коммуникация, культурное разнообразие, педагогические подходы, совместные занятия, джадиды, наследие джадидов.*

Abstract

This article examines the harmonious development of primary school pupils' National identity and global worldview. It also analyzes the integration of national values into the educational process, the comparative study of different cultures, the role of collaborative activities, and the importance of teachers' pedagogical approaches in this process.

Keywords: *Primary education, national identity, global worldview, national values, intercultural communication, cultural diversity, pedagogical approaches, collaborative activities, the Jadids, Jadid heritage.*

Globallashuv sharoitida ta’limning muhim vazifalaridan biri milliy qadriyatlarini anglaydigan, o’zligini hurmat qiladigan boshqa xalqlar madaniyatiga ochiq munosabatda bo’ladigan shaxsni tarbiyalashdir. Bugungi kunda o’quvchilar nafaqat o’z xalqining tarixi, tili va an’analarini bilishi, balki boshqa madaniyatlarni ham tushunishi zarur.

Milliy o’zlik shaxsning o’z xalqi tarixi, tili, madaniyati va ma’naviy merosiga mansubligini anglashida namoyon bo’ladi. Global dunyoqarash esa turli xalqlar, madaniyatlar va umuminsoniy muammolar haqida tushunchaga ega bo’lishni anglatadi.

Boshlang’ich ta’lim davrida bolalarda muloqot madaniyati, o’ziga va boshqalarga hurmat hamda xulq-atvor me’yorlari shakllanadi. Shu sababli milliy qadriyatlarni zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg’unlashtirish va madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish dolzarb vazifadir. Milliy o’zlikni anglash o’quvchining o’z xalqi tarixi, tili, madaniyati va ma’naviy merosiga qiziqishi hamda hurmati orqali shakllanadi. Boshlang’ich sinf o’quvchilari milliy qadriyatlarni oila, xalq og’zaki ijodi, ertaklar, maqollar va milliy bayramlar orqali o’zlashtiradilar.

Global dunyoqarash o’quvchining turli xalqlar, madaniyatlar va umuminsoniy masalalar haqida yoshiga mos bilimga ega bo’lishini anglatadi. Turli mamlakatlardagi bolalarning hayoti, urf-odatlari, bayramlari va o’yinlarini o’rganish madaniy xilma-xillik haqidagi tasavvurlarni kengaytiradi.

UNESCOning global fuqarolik ta’limi konsepsiyasi dunyo miqyosidagi masalalarni tushunish, boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo’lish va mas’uliyatli ishtirokni rivojlantirishga qaratilgan[1]. Ushbu tamoyillarni boshlang’ich ta’limda yoshga mos matnlar, videoroliklar, rasmlar va muammolitopshiriqlar orqali qo’llash mumkin. Masalan, *“Dunyo bolalari”* mavzusida o’quvchilar turli mamlakatlarda yashovchi tengdoshlarining hayoti bilan tanishib, farqli va umuminsoniy jihatlarini aniqlaydilar. Bu ularda boshqa madaniyatlarni tushunish va hurmat qilish ko’nikmalarini rivojlantiradi.

UNESCOning Languages Matter: *Global Guidance on Multilingua Education* qo’llanmasida ona tilida ta’lim olishni qo’llab quvvatlash, ko’p tilli ta’limni rivojlantirish va til xilma-xilligini hisobga olish muhimligi ta’kidlanadi[2].Milliy qadriyatlar xalqning tarixi, tili, urf-odatlari va ma’naviy merosini ifodalasa,umuminsoniy qadriyatlar adolat, tinchlik, halollik, mehr-oqibat va o’zaro hurmat kabi tamoyillarni qamrab oladi. Ularning uyg’unligi o’quvchilarning ma’naviy va ijtimoiy rivojlanishi uchun muhimdir.

Boshlang’ich ta’lim o’quvchilarida madaniyatlararo muloqotni shakllantirish ko’nikmasi o’z fikrini erkin ifodalash, boshqalarni tinglash va kelishmovchiliklarnitinch yo’l bilan bartaraf etish orqali shakllanib boradi. Masalan,

“Bir qadriyat, turli madaniyat” mavzularida kechalar o’tkazish, turli xalqlar ertaklari haqida suhbatlashish madaniy meros va umuminsoniy qadriyatlarni birgalikda anglashga yordam beradi. Boshlang’ich ta’limda milliy o’zlik va global dunyoqarashni uyg’un shakllantirish o’qituvchidan maqsadga yo’naltirilgan pedagogik yondashuvni talab qiladi. Ushbu jarayonni shakllantirishda oila bilan hamkorlik muhim vazifalardan biridir. Chunki boshlang’ich sinf o’quvchilari ota-onalari yoki oila a’zolarini milliy an’analar va xalqlarning madaniyatlari yuzasidan turli xil savollarga tutishi mumkin.

Asqarova O’.M**.** va hammualliflar tomonidan tayyorlangan *Pedagogika Nazariyasi va tarixi* darsligida pedagogik faoliyat, ta’lim-tarbiya jarayonlarining nazariy va amaliy asoslari hamda ularning qonuniyat va tamoyillari yoritilgan[3].

Ta’lim jarayonida quyidagi nazariy va amaliy usullardan foydalanish mumkin:

1. **Milliy merosni o’rganish:** ertaklar, maqollar va milliy an’analar haqidagi matnlarni tahlil qilish.
2. **Madaniyatlarni qiyoslash:** turli xalqlarning bayramlari, kiyimlari va urf-odatlarini o’rganib, ularning o’zaro o’xshash va farqli jihatlarini aniqlash.
3. **Guruhli faoliyat:** o’quvchilarni kichik guruhlarda hamkorlikda ishlashgayo’naltirish.
4. **Ijodiy topshiriqlar:** milliy qadriyatlar yoki turli madaniyatlar haqida rasm, hikoya va taqdimot tayyorlash.
5. **Matnlar bilan ishlash:** milliy va jahon adabiyotidan yoshga mos parchalar orqali madaniy tushuncalarni muhokama qilish.
6. **Muloqot mashqlari:** turli fikrlarni tinglash, savol berish va hurmat bilan munosabat bildirishni o’rgatish.

Ushbu usullarni ona tili, o’qish, tarbiya va boshqa fanlar bilan bog’lab qo’llash maqsadga muvofiq bo’ladi.

Boshlang’ich ta’limda milliy o’zlik va global dunyoqarashni uyg’un shakllantirishda jadidlar asarlarini integratsiya qilish ham muhim pedagogik imkoniyatlardan biridir.

Jumladan, Abdulla Avloniyning *Turkiy guliston yoxud axloq* asaridagi yaxshi xulq, ilmga intilish va insoniy fazilatlar haqidagi qarashlardan foydalanish o’quvchilarda axloqiy mas’uliyatni rivojlantirishga yordam beradi[4].

Mahmudxo’ja Behbudiyning *Padarkush* dramasida esa ilm-ma’rifatning ahamiyati va jaholatning salbiy oqibatlari yoritiladi[5]. Ushbu asarlarning g’oyalarini yoshga mos hayotiy vaziyatlar, savol-javob va guruhli muhokamalar

orqali o’rganish o’quvchilarga milliy qadriyatlarni anglash, mustaqil fikrlash hamda boshqa madaniyatlarga ochiq munosabatda bo’lishga o’rgatadi.

Xulosa

Boshlang’ich ta’limda milliy o’zlik va global dunyoqarashni uyg’un shakllantirish barkamol, ma’naviy yetuk va keng fikrlaydigan avlodni tarbiyalashning muhim shartlaridan biridir. Milliy qadriyatlarni o’rgatish o’quvchilarning o’z xalqiga mansublik tuyg’usini mustahkamlasa, boshqa madaniyatlarni o’rganish ularda bag’rikenglik, hamkorlik va ochiq dunyoqarashni rivojlantiradi. Ta’lim jarayonida qiyosiy tahlil, guruhli faoliyat, ijodiy topshiriqlar va madaniyatlararo muloqot mashqlaridan foydalanish ushbu maqsadlarga erisishga xizmat qiladi. O’qituvchi milliy merosni qadrlash va boshqa xalqlarga hurmatni birgalikda rivojlantiradigan ta’lim muhitini yaratishi zarur.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. UNESCO. *Global Citizenship Education: Topic and Learning Objectives. –Paris: UNESCO,2025.*

2. UNESCO.*Languages Matter: Global Guidance on Multilingual Education.–Paris: UNESCO,2025.*

3. Asqarova O’.M. , Usmanova S.U. , Zamilova R.R. , Tashibekova M.X. , Abdusamiyev D.A. *Pedagogika nazariyasi va tarixi.* 1-qism. – Namangan: Usmon Nosir media, 2022. – 376b.

4. Avloniy A. *Turkiy guliston yoxud axloq*. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 96 b.

5. Behbudiy M. *Tanlangan asarlar*. – Toshkent: Ma’naviyat, 1999.

KASBIY TA’LIM MUASSASALARI RAHBAR KADRLARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI VA TASHKILIY-BOSHQARUV MEXANIZMLARI

Rashidova Nargiza Rashid qizi
O‘R harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti, p.f.f.d (PhD), dotsent
raschidova.nar@yandex.com

Annotatsiya. *Mazkur tezisda kasbiy ta’lim muassasalari rahbar kadrlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari va tashkiliy-boshqaruv mexanizmlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Rahbarlarning kasbiy kompetentligi ta’lim sifatini boshqarish, strategik rejalashtirish, pedagogik jamoa faoliyatini muvofiqlashtirish, raqamli texnologiyalardan foydalanish, innovatsion jarayonlarni tashkil etish hamda mehnat bozori talablariga mos ta’lim muhitini shakllantirish bilan bog‘liq yaxlit tizim sifatida asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *kasbiy ta’lim, rahbar kadrlar, kasbiy kompetentlik, pedagogik shart-sharoitlar, tashkiliy-boshqaruv mexanizmi, strategik boshqaruv, uzluksiz kasbiy rivojlanish, raqamli kompetentlik, ta’lim sifati, refleksiv faoliyat.*

Аннотация. *В тезисе рассматриваются педагогические условия и организационно-управленческие механизмы развития профессиональной компетентности руководящих кадров организаций профессионального образования. Профессиональная компетентность руководителя анализируется как интегративная характеристика, включающая управленческие, педагогические, цифровые, коммуникативные, аналитические и стратегические компетенции. Обосновывается значение непрерывного профессионального развития, проблемно-ориентированного обучения, наставничества, проектной деятельности, профессиональной рефлексии и оценки результатов управления.*

Ключевые слова: *профессиональное образование, руководящие кадры, профессиональная компетентность, педагогические условия, организационно-управленческий механизм, стратегическое управление, непрерывное профессиональное развитие, цифровая компетентность, качество образования, профессиональная рефлексия.*

Abstract. *This thesis examines the pedagogical conditions and organizational and managerial mechanisms for developing the professional competence of leaders of vocational education institutions. Professional competence is conceptualized as*

an integrated set of managerial, pedagogical, digital, communicative, analytical, and strategic competencies. Particular attention is given to continuous professional development, problem-based learning, mentoring, project-based activities, professional reflection, and performance evaluation.

Keywords: *vocational education, institutional leaders, professional competence, pedagogical conditions, organizational and managerial mechanisms, strategic management, continuous professional development, digital competence, educational quality, professional reflection.*

Kirish

Bugungi kunda kasbiy ta’lim tizimining raqobatbardoshligini ta’minlash, mehnat bozori talablariga mos malakali mutaxassislar tayyorlash va ta’lim xizmatlari sifatini oshirishda ta’lim muassasasi rahbarining kasbiy kompetentligi muhim omillardan biri hisoblanadi. Zamonaviy rahbar nafaqat ma’muriy vazifalarni bajaruvchi, balki ta’lim muassasasining strategik rivojlanishini ta’minlovchi, pedagogik jamoani umumiy maqsadlar atrofida birlashtiruvchi, innovatsion o‘zgarishlarni boshqaruvchi va natijalar uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga oluvchi subyekt sifatida namoyon bo‘ladi.

Kasbiy ta’lim muassasalari faoliyatining o‘ziga xos xususiyati shundaki, ularda nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar bilan uyg‘unlashtirish, ish beruvchilar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, dual ta’limni rivojlantirish, moddiy-texnik bazadan samarali foydalanish va bitiruvchilarning bandligini ta’minlash kabi vazifalar o‘zaro bog‘liq holda amalga oshiriladi. Mazkur vazifalarni samarali bajarish rahbardan pedagogik, tashkiliy, iqtisodiy, huquqiy, raqamli va kommunikativ kompetensiyalarni birgalikda qo‘llashni talab etadi.

YUNESKOning 2024/2025 yilgi Global Education Monitoring Report hisobotida ta’lim rahbarligining to‘rtta muhim yo‘nalishi ajratilgan: umumiy maqsad va kutilmalarni belgilash, ta’lim jarayoni va o‘quv natijalariga e’tibor qaratish, hamkorlikni rivojlantirish hamda xodimlarning kasbiy o‘sishini qo‘llab-quvvatlash. Ushbu yo‘nalishlar kasbiy ta’lim muassasalari rahbarlarining kompetentligini rivojlantirishda ham muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, rahbar kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishni alohida malaka oshirish tadbirlari bilan cheklamasdan, o‘zaro bog‘liq pedagogik shart-sharoitlar va tashkiliy-boshqaruv mexanizmlarini qamrab olgan tizim sifatida tashkil etish zarur.

2. Tadqiqotning maqsadi va metodologik asoslari

Tadqiqotning maqsadi — kasbiy ta’lim muassasalari rahbar kadrlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga ta’sir etuvchi pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash hamda ularni amalga oshirishning samarali tashkiliy-boshqaruv mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

rahbar kadrlarning kasbiy kompetentligi mazmuni va tarkibiy qismlarini aniqlash;

kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini tizimlashtirish;

tashkiliy-boshqaruv mexanizmlarining vazifalari va o‘zaro aloqadorligini belgilash;

xalqaro va milliy statistik ma’lumotlar asosida mavzuning dolzarbligini asoslash;

rahbarlarning kasbiy rivojlanishini monitoring qilish va natijalarini baholash mezonlarini taklif etish.

Tadqiqotda ilmiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, ilmiy umumlashtirish va statistik ma’lumotlarni tavsifiy tahlil qilish usullaridan foydalanish nazarda tutiladi.

3. Rahbar kadrlarning kasbiy kompetentligi mazmuni va tarkibiy tuzilishi

Kasbiy kompetentlik rahbarning egallagan bilimlari, amaliy ko‘nikmalari, shaxsiy sifatlari, kasbiy tajribasi va ularni aniq boshqaruv vaziyatlarida samarali qo‘llay olish qobiliyatini ifodalaydi. U faqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirish bilan emas, balki muammolarni mustaqil hal qilish, asoslangan qaror qabul qilish, jamoani boshqarish va erishilgan natijalarni baholash imkoniyati bilan ham belgilanadi.

Kasbiy ta’lim muassasasi rahbarining kasbiy kompetentligini quyidagi o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismlar asosida tavsiflash mumkin:

Birinchidan, strategik-boshqaruv kompetentligi. Muassasaning istiqbolli rivojlanish rejasini ishlab chiqish, resurslarni maqsadli taqsimlash, xavflarni baholash, o‘zgarishlarni boshqarish va qarorlar ijrosini nazorat qilish qobiliyatini qamrab oladi.

Ikkinchidan, pedagogik kompetentlik. Ta’lim sifati monitoringini tashkil etish, pedagoglarning kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, o‘qitishning zamonaviy usullarini joriy etish va ta’lim natijalarini tahlil qilishni o‘z ichiga oladi.

Uchinchidan, raqamli-axborot kompetentligi. Raqamli boshqaruv tizimlari, elektron hujjat aylanishi, ma’lumotlarni tahlil qilish vositalari va axborot xavfsizligi talablaridan samarali foydalanish bilan tavsiflanadi.

To‘rtinchidan, kommunikativ va ijtimoiy kompetentlik. Pedagogik jamoa, o‘quvchilar, ota-onalar, ish beruvchilar va hamkor tashkilotlar bilan samarali muloqot qilish, nizolarni hal etish va jamoaviy qarorlar qabul qilish qobiliyatini anglatadi.

Beshinchidan, innovatsion va tadbirkorlik kompetentligi. Mehnat bozori ehtiyojlarini tahlil qilish, ish beruvchilar bilan hamkorlikni rivojlantirish, dual ta’limni tashkil etish va yangi ta’lim xizmatlarini joriy etishga tayyorlikni ifodalaydi.

Oltinchidan, refleksiv-baholash kompetentligi. Rahbarning o‘z faoliyatini tanqidiy tahlil qilishi, kamchiliklarni aniqlashi, fikr-mulohazalardan foydalanishi va shaxsiy kasbiy rivojlanish trayektoriyasini belgilashini qamrab oladi.

Ushbu tarkibiy qismlar bir-biridan ajralgan holda emas, balki yaxlit tizim sifatida rivojlantirilishi lozim. Masalan, raqamli texnologiyalarni bilishning o‘zi yetarli emas; rahbar ular yordamida ta’lim sifatiga oid ma’lumotlarni tahlil qilishi va natijalar asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilishi kerak.

4. Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari

Pedagogik shart-sharoitlar rahbarning kasbiy rivojlanishini ta’minlaydigan mazmuniy, metodik, psixologik va tashkiliy-pedagogik omillar majmuasini tashkil etadi.

4.1. Kompetentlikka asoslangan ta’lim muhitini shakllantirish

Rahbar kadrlarni o‘qitish jarayonida nazariy ma’lumotlarni berish bilan bir qatorda, ularni real boshqaruv vaziyatlarida qo‘llash imkoniyatini yaratish zarur. Bunda vaziyatli topshiriqlar, keys-stadi, ishbilarmonlik o‘yinlari, muammoli tahlil va loyihaviy ta’lim usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Masalan, rahbarlarga muassasada o‘quvchilarning davomat ko‘rsatkichlari pasayishi, bitiruvchilar bandligining yetarli emasligi yoki ish beruvchilar bilan hamkorlikning sustligiga oid shartli keyslar taqdim etiladi. Ular muammoning sabablarini aniqlab, ma’lumotlarga asoslangan yechimlar ishlab chiqadilar.

4.2. Individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini joriy etish

Barcha rahbarlarning kasbiy ehtiyojlari bir xil emas. Ayrim rahbarlarda strategik rejalashtirish, boshqalarida raqamli boshqaruv, moliyaviy tahlil yoki jamoani boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish zarurati yuqori bo‘lishi mumkin.

Shu sababli dastlabki kompetentlik diagnostikasi natijalari asosida har bir rahbar uchun individual rivojlanish rejasi ishlab chiqilishi lozim. Ushbu rejada rivojlantiriladigan kompetensiyalar, o‘quv faoliyati, amaliy vazifalar, muddatlar va natijani baholash mezonlari belgilanadi.

4.3. Mentorlik va kasbiy hamkorlikni tashkil etish

Tajribali rahbarlarning kamroq tajribaga ega rahbarlarga maslahat berishi, o‘zaro tajriba almashish seminarlari va professional hamjamiyatlarni tashkil etish kasbiy bilimlarni amaliy faoliyatga tatbiq etish imkoniyatini oshiradi.

Bunda mentorlik faqat maslahat berish bilan cheklanmasdan, maqsad belgilash, amaliy faoliyatni kuzatish, natijalarni muhokama qilish va keyingi rivojlanish yo‘nalishlarini belgilashni qamrab olishi kerak.

4.4. Refleksiv va rag‘batlantiruvchi muhitni shakllantirish

Rahbar o‘z faoliyatidagi muvaffaqiyat va kamchiliklarni erkin tahlil qila oladigan, fikr-mulohaza oladigan hamda yangi usullarni sinab ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘lgan muhitda kasbiy jihatdan samarali rivojlanadi.

Shuning uchun o‘zini o‘zi baholash, 360 darajali fikr-mulohaza, kasbiy portfolio, hamkasblar bahosi va rivojlanish natijalarini muntazam muhokama qilish usullaridan foydalanish mumkin.

4.5. Raqamli ta’lim va boshqaruv resurslaridan foydalanish

Rahbarlarning masofaviy kurslar, elektron ta’lim platformalari, raqamli ma’lumotlar paneli va boshqaruv simulyatorlaridan foydalanishi kasbiy rivojlanishni uzluksiz tashkil etishga yordam beradi.

Bunda raqamli vositalarning samaradorligi ularning mavjudligi bilan emas, balki rahbarning ma’lumotlarni to‘g‘ri talqin qilishi, axborot xavfsizligini ta’minlashi va qarorlar sifatini oshirish uchun qo‘llay olishi bilan baholanishi lozim.

5. Tashkiliy-boshqaruv mexanizmlari

Tashkiliy-boshqaruv mexanizmi rahbar kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan maqsadlar, boshqaruv funksiyalari, mas’ul subyektlar, resurslar, amalga oshirish tartiblari va baholash vositalarining o‘zaro muvofiqlashgan tizimidir.

Mazkur mexanizmni beshta bosqichda amalga oshirish taklif etiladi.

1-bosqich. Diagnostika

Mavjud kompetensiyalar, kasbiy ehtiyojlar va boshqaruv muammolarini aniqlash

2-bosqich. Rejalashtirish

Individual rivojlanish rejasi, o‘quv mazmuni, muddat va resurslarni belgilash

3-bosqich. Amalga oshirish

Malaka oshirish, mentorlik, keyslar, loyihalar va ish joyida o‘rganish

4-bosqich. Monitoring va baholash

Kompetensiya o‘zgarishi, amaliy natijalar va jamoa fikrini tahlil qilish

5-bosqich. Korreksiya va uzluksiz rivojlanish

Natijalarga asosan rejani takomillashtirish va yangi rivojlanish maqsadlarini belgilash

Mexanizmning samaradorligi bir nechta shartlarga bog‘liq. Birinchidan, rahbarlarning kasbiy rivojlanishi muassasaning strategik maqsadlari bilan bog‘lanishi kerak. Ikkinchidan, o‘qitish natijalari amaliy faoliyatdagi o‘zgarishlar orqali tekshirilishi lozim. Uchinchidan, ta’lim muassasasi, malaka oshirish tashkilotlari, hududiy boshqaruv tuzilmalari va ish beruvchilar o‘rtasida hamkorlik ta’minlanishi zarur.

YUNESKO hisoboti ham ta’lim rahbarligini rivojlantirishda faqat shaxsiy qobiliyatlarga emas, balki rahbarning qaror qabul qilishiga imkon beruvchi institutsional muhit, vakolatlar taqsimoti va hamkorlik munosabatlariga ham e’tibor qaratish zarurligini ta’kidlaydi.

6. Statistik ma’lumotlar va ularning ilmiy tahlili

Mavzuning dolzarbligini asoslashda O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari va YUNESKOning xalqaro tahlil natijalaridan foydalanish mumkin.

6.1. O‘zbekistondagi kasbiy ta’lim tashkilotlari bo‘yicha ma’lumotlar

Milliy statistika qo‘mitasining 2025 yil 29 aprelda e’lon qilingan ma’lumotlariga ko‘ra, 2024/2025 o‘quv yili boshida mamlakatda jami 845 ta o‘rta maxsus va kasbiy ta’lim tashkiloti faoliyat yuritgan. Ularning tarkibiga 334 ta kasb-hunar maktabi, 272 ta texnikum, 147 ta kollej va 92 ta akademik litsey kirgan. 2021/2022 o‘quv yiliga nisbatan tashkilotlar soni 18 taga yoki 2,2 foizga oshgan.

1-jadval. O‘zbekistondagi o‘rta maxsus va kasbiy ta’lim tashkilotlarining 2024/2025 o‘quv yili boshidagi tarkibi

Tashkilot turi	Soni, ta	Umumiy sonidagi ulushi, %
Kasb-hunar maktablari	334	39,5
Texnikumlar	272	32,2
Kollejlar	147	17,4
Akademik litseylar	92	10,9
Jami	845	100,0

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, tashkilotlarning eng katta ulushini kasb-hunar maktablari tashkil etadi — 39,5 foiz. Texnikumlarning ulushi esa 32,2 foizga teng. Demak, kasbiy ta’lim tizimida rahbarlik kompetensiyalarini rivojlantirish dasturlari turli tashkiliy shakllar, vazifalar va ta’lim jarayonining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olishi lozim.

Shu bilan birga, tashkilotlar sonining ko‘payishi o‘z-o‘zidan ta’lim sifati oshganini bildirmaydi. Bu ko‘rsatkich tizimning tashkiliy ko‘lamini ifodalaydi va rahbar kadrlarni tayyorlash, qo‘llab-quvvatlash hamda ularning faoliyatini baholashga bo‘lgan ehtiyojni tahlil qilish uchun kontekst yaratadi.

6.2. Qabul ko‘rsatkichlari dinamikasi

Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, kasb-hunar maktablariga qabul qilinganlar soni 2021/2022 o‘quv yilida 93,0 ming nafarni, 2024/2025 o‘quv yilida esa 127,2 ming nafarni tashkil etgan. Bu davrda o‘sish 36,8 foizga teng bo‘lgan. Texnikumlarga qabul qilinganlar soni shu davrda 49,5 ming nafardan 52,9 ming nafarga oshgan, ya’ni 6,9 foiz o‘sish kuzatilgan.

2-jadval. Ayrim kasbiy ta’lim tashkilotlariga qabul qilinganlar sonining dinamikasi

Ta’lim tashkiloti	2021/2022, ming nafar	2024/2025, ming nafar	O‘zgarish, %
Kasb-hunar maktablari	93,0	127,2	+36,8
Texnikumlar	49,5	52,9	+6,9

Ushbu ma’lumotlar kasbiy ta’limning ayrim bo‘g‘inlarida qabul ko‘lami sezilarli o‘zgarganini ko‘rsatadi. Qabul hajmining o‘sishi ta’lim jarayonini tashkil etish, pedagog kadrlar faoliyatini muvofiqlashtirish, o‘quv va ishlab chiqarish amaliyotini rejalashtirish hamda ish beruvchilar bilan hamkorlikni boshqarishga qo‘yiladigan talablarni kuchaytirishi mumkin.

Biroq statistik o‘sishni rahbarlar kompetentligining pastligi yoki ta’lim sifatidagi kamchiliklarning bevosita isboti sifatida talqin qilish mumkin emas. Buning uchun alohida empirik tadqiqot va muassasalar kesimidagi ma’lumotlar talab etiladi.

YUNESKOning 2024/2025 yilgi ta’limda rahbarlik bo‘yicha global hisobotida 92 mamlakatdagi 142 ta rahbarlarni tayyorlash va o‘qitish dasturi tahlil qilingan. Ushbu dasturlarning 47 foizida o‘qitish va ta’lim natijalariga yo‘naltirilgan rahbarlik, 42 foizida o‘zgarishlarga yetakchilik qilish, 31 foizida xodimlarni rivojlantirish va 29 foizida hamkorlikdagi rahbarlik yo‘nalishlari qamrab olingan. Barcha to‘rt yo‘nalishni birgalikda qamrab olgan dasturlar ulushi esa 18 foizni tashkil etgan.

3-jadval. YUNESKO tahlilida ta’lim rahbarlarini tayyorlash dasturlarining asosiy yo‘nalishlari

Kompetensiya yo‘nalishi	Dasturlarda qamrab olinishi, %
Ta’lim va o‘quv natijalariga yo‘naltirilgan rahbarlik	47
O‘zgarishlarga yetakchilik qilish va umumiy maqsadlarni belgilash	42
Xodimlarni rivojlantirish	31
Hamkorlikdagi rahbarlik	29
To‘rt yo‘nalishning barchasini qamrab olgan dasturlar	18

Ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, tahlil qilingan dasturlarda ta’lim natijalariga e’tibor nisbatan keng qamrab olingan bo‘lsa-da, hamkorlikdagi rahbarlik va xodimlarni rivojlantirish yo‘nalishlariga qamrov pastroq. Barcha to‘rt yo‘nalishning bir dasturda birlashtirilishi 18 foiz bilan cheklangan.

Bu holat rahbarlarni rivojlantirish dasturlarini alohida mavzular to‘plami sifatida emas, balki strategik maqsadlar, ta’lim natijalari, jamoaviy hamkorlik va xodimlar salohiyatini birlashtiruvchi kompleks tizim sifatida loyihalash zarurligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, YUNESKO ma’lumotlari turli mamlakatlardagi rahbarlarni tayyorlash dasturlariga taalluqli bo‘lib, ularni O‘zbekistondagi kasbiy ta’lim muassasalari rahbarlarining real kompetentlik darajasiga bevosita tenglashtirish mumkin emas. Ushbu statistika milliy holatni emas, xalqaro tajribada kuzatilayotgan yo‘nalishlarni tavsiflaydi.

Yuqoridagi nazariy tahlil va statistik ma’lumotlar asosida kasbiy ta’lim muassasalari rahbarlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish uchun integrativ modelni joriy etish taklif qilinadi. Model maqsadli, mazmuniy, tashkiliy-texnologik va natijaviy qismlarni birlashtiradi.

4-jadval. Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish modeli va baholash mezonlari

Model tarkibi	Asosiy mazmuni	Baholash ko‘rsatkichlari
Maqsadli qism	Zarur kompetensiyalarni rivojlantirish maqsadlarini belgilash	Individual maqsadlarning aniqligi va o‘lchanuvchanligi
Mazmuniy qism	Boshqaruv, pedagogik, raqamli va kommunikativ bilimlarni rivojlantirish	Bilim va amaliy topshiriqlar natijalari
Tashkiliy-texnologik qism	Malaka oshirish, mentorlik, keyslar, loyihalar va tajriba almashish	O‘quv faoliyatida ishtirok va amaliy loyihalar sifati
Diagnostik-baholash qismi	O‘zini o‘zi baholash, ekspert bahosi va faoliyat natijalarini tahlil qilish	Boshlang‘ich va yakuniy baholashdagi o‘zgarish

Natijaviy qism	Kompetensiyalarning rivojlanishi va boshqaruv amaliyotida qo‘llanilishi	Qarorlar sifati, jamoa hamkorligi va belgilangan maqsadlarga erishish

Jadvaldagi mezonlar empirik tekshiruv uchun tavsiya etilgan bo‘lib, ularning ishonchliligi va amaliy qiymati tajriba-sinov jarayonida baholanishi lozim.

Model samaradorligini aniqlash uchun rahbarlarning kompetentlik darajasi o‘quv dasturi boshida va yakunida bir xil mezonlar asosida baholanishi mumkin. Bunda faqat test natijalariga emas, balki rahbarning real boshqaruv vazifalarini bajarishi, pedagogik jamoa bilan ishlashi, ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilishi va amaliy loyihalarni amalga oshirishiga ham e’tibor qaratiladi.

Ilmiy ishonchlilikni oshirish uchun imkoniyat mavjud bo‘lganda tajriba va taqqoslash guruhlarini shakllantirish, boshlang‘ich darajalarni hisobga olish, baholash vositalarining ishonchliligini tekshirish hamda natijalarni statistik usullar yordamida tahlil qilish tavsiya etiladi. Bunday tadqiqot o‘tkazilmaguncha model samaradorligi haqida qat’iy empirik xulosa chiqarish mumkin emas.

Olib borilgan nazariy va statistik tahlil rahbar kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda uchta asosiy masalaga e’tibor qaratish zarurligini ko‘rsatadi.

Birinchidan, rahbarlarning kasbiy rivojlanish dasturlari ularning real boshqaruv vazifalari va muassasa ehtiyojlariga moslashtirilishi lozim. Barcha rahbarlarga bir xil mazmundagi kurslarni taklif etish o‘rniga, diagnostika natijalariga asoslangan individual yondashuvni joriy etish maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, kasbiy rivojlanish nazariy bilimlar bilan cheklanmasligi kerak. Malaka oshirish jarayonida o‘zlashtirilgan bilimlar strategik rejalashtirish, ta’lim sifati monitoringi, jamoani boshqarish va ish beruvchilar bilan hamkorlik kabi amaliy vazifalarda sinovdan o‘tkazilishi zarur.

Uchinchidan, kompetentlikni baholashda ta’lim kursini tugatish yoki sertifikat olishning o‘zi yetarli mezon hisoblanmaydi. Rahbarning faoliyatidagi o‘zgarishlar, jamoa bilan ishlash sifati, qarorlarning asoslanganligi va muassasaning rivojlanish maqsadlariga erishish darajasi ham hisobga olinishi kerak.

Shu bilan birga, muassasa rahbarining faoliyati natijalariga tashqi omillar — moliyaviy resurslar, kadrlar ta’minoti, infratuzilma, mahalliy mehnat bozori va boshqaruv vakolatlari ham ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli ta’lim natijalarini faqat rahbarning shaxsiy kompetentligi bilan izohlash ilmiy jihatdan to‘g‘ri emas. Samarali rivojlanish mexanizmi shaxsiy salohiyat va institutsional imkoniyatlarni o‘zaro uyg‘unlashtirishi lozim.

Tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

1. Kasbiy ta’lim muassasasi rahbarining kasbiy kompetentligi strategik-boshqaruv, pedagogik, raqamli, kommunikativ, innovatsion va refleksiv kompetensiyalarning o‘zaro uyg‘unligi asosida shakllanadi.

R. Hake mexanika bo‘yicha 62 ta boshlang‘ich fizika kursining 6542 ishtirokchiga oid ma’lumotlarini tahlil qilib, faol o‘zaro ishtirok qo‘llangan kurslarda konseptual o‘sish yuqoriroq bo‘lganini ko‘rsatgan [9]. Bu kuzatuv tadqiqoti faol fizik mulohazani dasturga kiritishga asos beradi. Undagi guruhlar turli ta’lim muhitlariga mansub bo‘lgani va tasodifiy taqsimlanmagani sababli natijani aynan litsey uchun taklif etilayotgan modelning sababiy ta’siri sifatida qo‘llash mumkin emas.

Individual akademik rivojlanish dasturining tuzilmasi

Taklif etilayotgan modelning ish birligi sakkiz haftalik mavzuli moduldir. Bu muddat namunaviy metodik yechim bo‘lib, rasmiy semestr davomiyligi yoki majburiy soat me’yori sifatida belgilanmaydi. Modul birinchi yoki ikkinchi kursning ayni paytda o‘rganilayotgan bo‘limi uchun moslanadi. Fizika chuqurlashtirib o‘qitiladigan yo‘nalishda tadqiqot vazifalari kengaytirilishi mumkin; boshqa yo‘nalishdagi akademik litseyda topshiriq hajmi tegishli ishchi dasturga muvofiqlashtiriladi.

Dastur boshlanishida o‘qituvchi umumiy kutiladigan natijalarni belgilaydi. O‘quvchi esa diagnostika dalillariga tayangan holda ikki ustuvor shaxsiy maqsadni tanlaydi. Bir maqsad fizik mazmunga, ikkinchisi faoliyat usuliga tegishli bo‘lishi tavsiya etiladi. Masalan, elektr zanjirida tokning taqsimlanishini tushuntirish mazmuniy maqsad bo‘lsa, o‘lchov natijasidan grafik tuzish va uning fizik ma’nosini izohlash faoliyat maqsadidir.

1-jadval. Sakkiz haftalik modulni tashkil etishning namunaviy bosqichlari

Davr	Asosiy faoliyat	Qayd etiladigan dalil
1-hafta	Boshlang‘ich diagnostika va o‘quvchi bilan maqsadlarni kelishish	Diagnostik ish, ikki individual maqsad, dastlabki rivojlanish kartasi
2–3-haftalar	Birinchi o‘quv davri va 3-hafta oxirida rejani yangilash	Izohli yechim, qisqa nazorat, tuzatilgan ish
4–5-haftalar	Ikkinchi davr va 5-hafta oxirida yordamni qayta belgilash	Umumiy nazorat topshirig‘i, tajriba yozuvi, yangilangan karta
6–7-haftalar	Uchinchi davr va bilimni yangi vaziyatga qo‘llash	Mustaqil yechim yoki kichik tadqiqot, xatolar tahlili
8-hafta	Yakuniy baholash va keyingi modul maqsadini belgilash	Taqqoslanuvchi yakuniy ish, portfolio himoyasi, keyingi reja

Rivojlanish kartasi bir sahifadan oshmaydigan ish hujjati sifatida yuritiladi. Unda o‘quvchi kodi, mavzu, aniqlangan ehtiyoj, ikki maqsad, tanlangan yordam, natijani ko‘rsatuvchi ish va rejani qayta ko‘rish sanasi yoziladi. Maqsad “fizikani

yaxshi o‘rganish” tarzida emas, bajarilishi kuzatiladigan harakat sifatida ifodalanadi. Masalan, “ikki navbatdagi mustaqil ishda tanlangan qonunning qo‘llanish shartini yozib asoslash” maqsadi o‘qituvchi va o‘quvchiga bir xil tekshirish nuqtasini beradi.

Akademik litseyning ikki yillik bosqichida modul natijalari keyingi mavzuga o‘tishda uzviy saqlanadi. Birinchi kursda qayd etilgan muammo ikkinchi kurs boshlanishida yangi diagnostika bilan tekshiriladi; oldingi tavsif doimiy yorliq sifatida ko‘chirilmaydi. Ikkinchi kursdagi maqsadlar murakkab vaziyatga bilimni ko‘chirish, bir nechta fizik modelni solishtirish yoki tajriba rejasini mustaqil tuzishga qaratilishi mumkin. Muayyan bo‘limni qaysi kursga biriktirishni litseyning amaldagi rejalashtirishi belgilaydi.

Diagnostika va individual o‘quv yo‘lini tanlash

Boshlang‘ich diagnostika fizik tushunish, matematik amallar, tajriba ma’lumotini talqin qilish va yechimni rejalashtirishga oid qisqa vazifalarni qamrab oladi. O‘quvchidan javob bilan birga izoh ham so‘raladi. Masalan, ideal simlar va barqaror tok sharoitidagi ketma-ket ulangan ikki rezistordan o‘tadigan toklarni taqqoslash yoki kuchlanishning tokka bog‘lanish grafigidagi qiyalikning ma’nosini tushuntirish taklif etiladi. Shunda fizik tasavvurdagi xato hisoblashdagi xatodan ajratiladi.

D. Hestenes, M. Wells va G. Swackhamer ishlab chiqqan Force Concept Inventory mexanik tushunchalarni aniqlashga mo‘ljallangan baholash vositasidir [10]. Uning yondashuvi kundalik tasavvurlar bilan ilmiy tushuncha orasidagi farqni tekshirishga e’tibor qaratadi. Biroq o‘zbekchaga erkin tarjima qilingan savollarni avtomatik tarzda validlangan test deb bo‘lmaydi. Standart vosita ishlatilsa, foydalanish shartlari, tarjimaning mazmuniy mosligi va mahalliy sharoitda tushunarliligi tekshiriladi. O‘qituvchi tuzgan diagnostik topshiriqlar esa shu maqomda ochiq belgilanadi.

Tashxisdan keyin o‘quvchiga muayyan mavzu bo‘yicha vaqtinchalik o‘quv yo‘li taklif qilinadi. Konseptual yordam, matematik tayanch va tadqiqot yo‘li bir-birini istisno qilmaydi. Masalan, murakkab hisobni tez bajarayotgan o‘quvchi ham tajriba dalilini talqin qilishda yordam olishi mumkin. Yo‘lni o‘zgartirish qarori bitta umumiy ballga emas, o‘quvchi ishining mazmuniga tayanadi.

Har bir qisqa davrda ikki mustaqil ish dalili ko‘rib chiqilishi tavsiya etiladi. O‘quvchi qonunni tanlab asoslay olsa va yangi vaziyatda yordam talab qilmasa, tayanchlar kamaytiriladi. Xato takrorlansa, aynan qiyinchilikka tegishli yordam almashtiriladi. “Ikki dalil” talabi ushbu modelning amaliy ish qoidasi bo‘lib, ilmiy jihatdan aniqlangan universal chegara sifatida talqin qilinmaydi.

Fizik mazmunni moslashtirish namunasi

Elektr zanjirlari moduli uchun umumiy natija sifatida o‘quvchining Om qonunini qo‘llashi, rezistorlar ulanishini izohlashi va tajriba ma’lumotidan qarshilikni aniqlashi tanlanadi. Shu natijaga olib boradigan vazifalardagi yo‘riqnoma, oraliq savol va mustaqillik darajasi farqlanadi. 2-jadvaldagi topshiriqlar mualliflik metodik namunalari bo‘lib, real o‘quvchilar natijasini ifodalamaydi.

2-jadval. Elektr zanjirlari bo‘yicha individual ehtiyojga mos topshiriqlar

Ehtiyoj	Moslashtirilgan topshiriq	Umumiy nazorat dalili
Fizik tushunchani aniqlashtirish	Ketma-ket zanjir sxemasida tok va kuchlanishni bashorat qilish; izohli tajribadan so‘ng javobni qayta yozish	Boshqa qarshilik qiymatlari berilgan sxemani mustaqil tushuntirish
Matematik tayanchni mustahkamlash	Birliklarni almashtirish uchun tayanch jadval; so‘ng kuchlanish va tok o‘lchovlaridan grafik tuzish	Yangi ma’lumotlar asosida qarshilikni aniqlash va birlikni tekshirish
Tadqiqot mustaqilligini kengaytirish	Qarshilikning o‘zgarmasligini tekshirish uchun o‘lchov rejasini tuzish; qizish va o‘lchov cheklovlarini muhokama qilish	Bir xil umumiy topshiriqni bajarish va qo‘shimcha tadqiqot xulosasini asoslash

Masala yechish jarayonida o‘quvchi avval vaziyatni tasvirlaydi, qo‘llanadigan fizik tamoyilni tanlaydi va nima uchun mos kelishini yozadi. Keyin hisoblashni bajarib, natijaning birligi va fizik jihatdan maqbulligini tekshiradi. J. Docktor va hammualliflar tadqiqotida konseptual masala yechish yondashuvi aynan tamoyilni aniqlash, uning qo‘llanishini asoslash va hisobdan oldin reja yozishga yo‘naltirilgan [11]. Ushbu tartib akademik litsey topshirig‘iga moslashtiriladi; izohning hajmi vazifaning murakkabligiga mutanosib bo‘ladi.

Tajriba ishida o‘quvchi faqat jadvalni to‘ldirish bilan cheklanmay, o‘lchov oralig‘ini tanlash sababini va natijaga ta’sir qiluvchi omillarni izohlaydi. Tok kuchi gorizontal, kuchlanish vertikal o‘qqa joylashtirilgan grafikning qiyaligi omik rezistor qarshiligini bildiradi. Bu talqin harorat yetarlicha barqaror bo‘lganda qo‘llanadi. Kichik kuchlanishli xavfsiz ta’minot, tegishli o‘lchov asboblari va litsey laboratoriyasining xavfsizlik yo‘riqnomalari asosida ishlanadi.

K. Perkins va hammualliflar PhET simulyatsiyalarini fizik hodisaning ko‘rinadigan va konseptual tasvirlari orasida aloqa hosil qilish uchun ishlab chiqilgan vositalar sifatida tavsiflaydi [13]. Dasturda simulyatsiya bashoratni tekshirish yoki tajribaga tayyorlanish uchun tanlanishi mumkin. Real asbob bilan ishlash baholanayotgan bo‘lsa, uning o‘rniga bajarilgan virtual mashq ayni ko‘nikma egallanganining yetarli dalili hisoblanmaydi. Raqamli imkoniyati

cheklangan o‘quvchiga bosma sxema va tajriba ma’lumotlari bilan teng mazmundagi vazifa beriladi.

Rivojlanishni baholash va fikr mulohaza

Baholashda barcha o‘quvchilar uchun umumiy fizik natijalar va individual maqsad bo‘yicha siljish alohida qayd etiladi. Umumiy topshiriq o‘quvchilar o‘rtasida mazmunan taqqoslash imkonini beradi. Shaxsiy maqsadga erishish haqidagi qayd esa o‘quvchining boshlang‘ich holatiga nisbatan o‘zgarishini ko‘rsatadi. Dastur monitoringi uchun ishlatiladigan ko‘rsatkichlar litseyning rasmiy baholash tartibini almashtirmaydi.

J. Docktor va hammualliflarning yozma yechimlarni baholash rubrikasida vaziyatni foydali tasvirlash, fizik yondashuvni tanlash, uni shartga tatbiq etish, matematik amallar va mantiqiy izchillik ajratiladi [12]. 3-jadval shu kabi analitik baholash tamoyilidan foydalanadigan, akademik litsey uchun muallif tomonidan taklif etilgan ixcham mezonlarni beradi. U original rubrikaning tarjimasi yoki mahalliy validlangan nusxasi sifatida taqdim etilmaydi.

3-jadval. Individual rivojlanishni qayd etish uchun tavsiya etilayotgan mezonlar

Mezon	Kuzatiladigan harakat	Dalil manbai
Fizik tushunish	Qonunni tanlaydi, qo‘llanish shartini va hodisaning sababini tushuntiradi	Izohli savol va yangi vaziyatga oid masala
Masala yechish	Sxema yoki model tuzadi, hisoblaydi, birlik va javobni tekshiradi	Mustaqil yozma yechim
Tajriba va dalil	O‘lchashni rejalashtiradi, grafikni talqin qiladi, natijaning cheklovini ko‘rsatadi	Laboratoriya yozuvi va qisqa himoya
O‘z o‘qishini boshqarish	Maqsadiga mos ish usulini tanlaydi, xatosini dalil bilan ko‘rsatib rejani yangilaydi	Rivojlanish kartasi va tuzatilgan ish

Har bir mezon to‘rtta tavsif bilan qayd etilishi mumkin: 0 — yetarli bajarish dalili yo‘q; 1 — batafsil yo‘riqnoma bilan bajaradi; 2 — ayrim eslatmalar bilan bajaradi; 3 — mustaqil bajarib, tanlovini asoslaydi. Bu qiymatlar kuzatuvni tartibga soladigan taklif etilayotgan tartib shkalasidir. Ular orasidagi farqlarni teng miqdor deb hisoblash yoki to‘rtta mezonni asoslanmagan holda yagona “rivojlanish indeksi”ga aylantirish tavsiya etilmaydi. O‘sish har bir mezon bo‘yicha alohida ko‘rsatiladi.

Fikr-mulohaza aniq ishga bog‘lanadi. Masalan, “grafikda o‘qlar va birliklar to‘g‘ri; qarshilikni aniqlashda faqat bitta nuqtadan foydalangansiz; keyingi urinishda o‘lchovlar tendensiyasini ifodalovchi to‘g‘ri chiziq qiyaligini hisoblang” mazmunidagi izoh navbatdagi harakatni belgilaydi. O‘quvchi tuzatilgan ishni topshirgach, aynan shu tavsiyadan qanday foydalanganini ko‘rsatadi. Natijada nazorat ma’lumoti keyingi faoliyatga o‘tadi [6; 7].

Portfolio uchun boshlang‘ich diagnostika, maqsadlar kartasi, oldingi va tuzatilgan yechim, tajriba yozuvi hamda qisqa yakuniy mulohaza yetarli. Bir xil turdagi ko‘p ishni jamlash o‘rniga o‘zgarishni ko‘rsatadigan namunalar tanlanadi. O‘quvchining o‘ziga bergan bahosi uning yozma ishi yoki himoyasi bilan solishtiriladi. Shu tariqa refleksiya umumiy taassurotga emas, tekshiriladigan dalilga tayanadi [5].

Dastur samaradorligini tekshirish shartlari

Modelning samaradorligini aniqlash uchun dastlab bir necha akademik litsey guruhida kichik sinov o‘tkazish taklif etiladi. Taqqoslash guruhlari bir kurs, yaqin yo‘nalish va bir xil fizik mavzu bo‘yicha tanlanadi. Sinov hamda taqqoslash guruhlarida mavzu mazmuni, ta’lim vaqti va umumiy yakuniy topshiriqlar tenglashtiriladi. Imkon bo‘lsa, guruhlar tasodifiy taqsimlanadi; buning imkoni bo‘lmaganda boshlang‘ich tayyorgarlik va pedagog omiliga oid farqlar qayd etiladi.

Birlamchi natija sifatida umumiy fizik tushunish va masala yechish topshirig‘ining yakuniy natijasi oldindan belgilanadi. Boshlang‘ich va yakuniy ishlar bir xil mazmuniy reja asosida, yaqin murakkablikda tuziladi. Bir xil savollarni qayta yodlash ta’sirini kamaytirish uchun parallel variantlar va umumiy tayanch savollar qo‘llanishi mumkin. Ularning taqqoslanuvchanligi ekspert tekshiruvi va kichik dastlabki sinovda baholanadi.

Yordamchi natijalar tajriba sifati, individual maqsadlarning bajarilishi, o‘quvchi sarflagan vaqt va o‘qituvchining qo‘shimcha yuklamasidir. Bilim o‘sishi bilan fanga ishonch yoki mustaqillikning o‘sishi bir xil hodisa deb olinmaydi [8]. Yozma ishlar ishtirokchi guruhini bildirmaydigan kod bilan baholanadi; ishlarning bir qismini ikki baholovchi mustaqil tekshirishi va kelishmovchiliklarni tahlil qilishi ko‘zda tutiladi.

Tahlilda boshlang‘ich va yakuniy ko‘rsatkichlar, ma’lumot yetishmasligi va qatnashishni tugatgan o‘quvchilar soni ochiq berilishi kerak. Foizda ifodalangan test ballari farqi foiz punktida ko‘rsatiladi. Yetarli guruh va kuzatuv bo‘lganda boshlang‘ich natijani hisobga oluvchi model hamda guruh ichidagi bog‘liqlikni e’tiborga oladigan tahlil tanlanadi. Faqat bitta sinov va bitta taqqoslash guruhi mavjud bo‘lsa, guruh yoki o‘qituvchi ta’sirini dastur ta’siridan ishonchli ajratish

qiyinligi xulosada ko‘rsatiladi. Kichik sinov avvalo amalga oshirish imkoniyatini baholaydi.

Muhokama

Taklif etilgan yechimning akademik litsey uchun amaliy qiymati maqsad, topshiriq va baholash dalilini bitta davriy reja bilan bog‘lashidadir. Mahalliy metodik manbalardagi rivojlantiruvchi ta’lim g‘oyalari [2; 3] hamda litseyga oid differensial model [4] ushbu rejaning mazmuniy asosini beradi. Xalqaro tadqiqotlar esa maqsadni o‘quvchi bilan kelishish, fizik tushunchani tekshirish va fikr-mulohazadan foydalanish mexanizmlarini tanlashga yordam beradi. Bu uyg‘unlashtirishning o‘zi yangi empirik dalil o‘rnini bosa olmaydi.

Joriy etishda asosiy cheklov o‘qituvchining vaqti bo‘lishi mumkin. Shuning uchun har bir o‘quvchiga butunlay alohida kurs yozish o‘rniga, umumiy mavzu bo‘yicha qayta ishlatiladigan topshiriqlar banki va yordam kartalari tayyorlanadi. O‘qituvchi qisqa maslahatlarni darsdagi mustaqil ish vaqtida navbat bilan beradi. Har bir kichik davr yakunida faqat ikki maqsad bo‘yicha qaror yozilishi ortiqcha hujjatni kamaytirishga qaratilgan tashkiliy taklifdir; uning vaqtga ta’siri sinovda o‘lchanadi.

Doimiy “kuchli” va “kuchsiz” guruhlarga ajratish o‘quvchining keyingi imkoniyatlarini cheklashi mumkin. Modelda yordam mavzu va vazifaga bog‘lanadi, tadqiqot vazifasini tanlash imkoniyati ochiq saqlanadi. O‘quvchi muvaffaqiyatli bajargan ishini qayta ko‘rsatib, yordam darajasini o‘zgartira oladi. Ma’lumotlar ommaga chiqarilmaydigan shaxsiy kartada yuritiladi; tadqiqot hisobotida esa kodlangan ko‘rsatkichlardan foydalaniladi. Voyaga yetmaganlar qatnashadigan sinovda tegishli xabardor rozilik va maxfiylik tartibi oldindan belgilanadi.

Yana bir cheklov diagnostika va baholash vositalarining til hamda mazmunga mosligidir. Xorijiy vosita yoki rubrikaning mavjudligi uning o‘zbek akademik litseyida xuddi shunday ishlashini kafolatlamaydi [10; 12]. Shu bois o‘zbekcha topshiriqlarning fizik aniqligi, ifoda tushunarliligi va baholovchilar bir xil talqin qilishi tekshirilishi kerak. Individual yondashuvning samarasi mazkur shartlar va amaldagi litsey yuklamasi bilan birgalikda baholanadi.

Xulosa

Akademik litseylarda fizikadan “Individual akademik rivojlanish” dasturini o‘quvchining boshlang‘ich holati, tekshiriladigan shaxsiy maqsadi va keyingi pedagogik qarorini bog‘lovchi modul sifatida loyihalash mumkin. Taklif etilgan sakkiz haftalik model rivojlanish kartasi, vaqtinchalik o‘quv yo‘llari, umumiy fizik topshiriqlar va individual o‘sish dalillarini birlashtiradi. Elektr zanjirlari namunasi mazmuniy talablarni saqlagan holda yordam va mustaqillik darajasini qanday moslashtirish mumkinligini ko‘rsatadi.

Dasturdan kutiladigan natija haqidagi ilmiy xulosa akademik litsey sharoitidagi keyingi sinovga bog‘liq. Sinov umumiy fizik natijalarni, tajriba ko‘nikmasini va mustaqil ishlashni alohida o‘lchashi, boshlang‘ich farqlar hamda o‘qituvchi yuklamasini hisobga olishi kerak. Shu shartlarda individual rivojlanish rejasi litsey o‘quvchisiga qaysi bilimni, qanday ish orqali va qanday dalil bilan yaxshilashi zarurligini ko‘rsatadigan amaliy vosita bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi. Ta’lim to‘g‘risida. 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son Qonun. 9-modda. LexUZ, amaldagi matn. https://lex.uz/docs/-5013007

2. Sadriddinov N., Rahimov A., Mamadaliyev A., Jamolova Z. Fizika o‘qitish uslubi asoslari. Toshkent: O‘zbekiston, 2006. 192 b. Elektron katalog

3. Djo‘rayev M. Fizika o‘qitish metodikasi. Toshkent: Abu matbuot-konsalt, 2015. 280 b. Universitet elektron katalogi

4. Batirov B. B. Akademik litseylarda fizika fanini o‘qitishda differensial yondashuvni amalga oshirish modeli. Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar. 2025. № 3, C seriya. B. 1206–1213. Jurnalning to‘liq soni

5. Zimmerman B. J. Becoming a Self-Regulated Learner: An Overview. Theory Into Practice. 2002. Vol. 41, No. 2. P. 64–70. https://doi.org/10.1207/s15430421tip4102_2

6. Black P., Wiliam D. Assessment and Classroom Learning. Assessment in Education: Principles, Policy & Practice. 1998. Vol. 5, No. 1. P. 7–74. https://doi.org/10.1080/0969595980050102

7. Hattie J., Timperley H. The Power of Feedback. Review of Educational Research. 2007. Vol. 77, No. 1. P. 81–112. https://doi.org/10.3102/003465430298487

8. Salar R., Turgut U. Effect of Differentiated Instruction and 5E Learning Cycle on Academic Achievement and Self-efficacy of Students in Physics Lesson. Science Education International. 2021. Vol. 32, No. 1. P. 4–13. https://doi.org/10.33828/sei.v32.i1.1

9. Hake R. R. Interactive-engagement versus traditional methods: A six-thousand-student survey of mechanics test data for introductory physics courses. American Journal of Physics. 1998. Vol. 66, No. 1. P. 64–74. https://doi.org/10.1119/1.18809

10. Hestenes D., Wells M., Swackhamer G. Force concept inventory. The Physics Teacher. 1992. Vol. 30, No. 3. P. 141–158. https://doi.org/10.1119/1.2343497

11. Docktor J. L., Strand N. E., Mestre J. P., Ross B. H. Conceptual problem solving in high school physics. Physical Review Special Topics — Physics Education Research. 2015. Vol. 11. 020106. https://doi.org/10.1103/PhysRevSTPER.11.020106

12. Docktor J. L., Dornfeld J., Frodermann E., Heller K., Hsu L., Jackson K. A., Mason A., Ryan Q. X., Yang J. Assessing student written problem solutions: A problem-solving rubric with application to introductory physics. Physical Review Physics Education Research. 2016. Vol. 12. 010130. https://doi.org/10.1103/PhysRevPhysEducRes.12.010130

13. Perkins K., Adams W., Dubson M., Finkelstein N., Reid S., Wieman C., LeMaster R. PhET: Interactive Simulations for Teaching and Learning Physics. The Physics Teacher. 2006. Vol. 44, No. 1. P. 18–23. https://doi.org/10.1119/1.2150754

6. PHILOLOGY, LINGUISTICS, AND TRANSLATION STUDIES

SUN’IY INTELLEKT TUSHUNCHASINING KONSEPTUAL TABIATI VA TERMINOLOGIK XUSUSIYATLARI

Abdurahmonova Nilufar Laziz qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, 1-bosqich tayanch doktoranti
abdurahmonovanilufar33@gmail.com

Annotatsiya*: Maqolada sun’iy intellekt (SI) tushunchasining konseptual tabiati va uni ifodalovchi terminning lingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. SI tushunchasi bir vaqtning o‘zida ilmiy yo‘nalish, texnologik tizim va mashinaning qobiliyati ma’nolarida ishlatilishi ko‘rsatib beriladi. Tadqiqotda SI terminining ichki shakli, metaforikligi, hosila terminlar bilan hosil qiladigan ierarxik tizimi, variantliligi va ekvivalent tanlashdagi muammolar aniqlandi. Xulosalar o‘zbek tilida sun’iy intellekt terminlarini tartibga solish va terminologik lug‘at yaratish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, termin, konsept, metafora, ekvivalent, o‘zbek tili.*

Аннотация. В статье анализируются концептуальная природа понятия искусственного интеллекта (ИИ) и лингвистические особенности обозначающего его термина. Показано, что ИИ одновременно именует научное направление, технологическую систему и способность машины. Рассмотрены внутренняя форма и метафоричность термина, его иерархические связи с производными терминами, вариантность и проблемы выбора эквивалентов. Выводы могут служить теоретической основой для упорядочения терминологии ИИ на узбекском языке и составления терминологического словаря.

Ключевые слова: искусственный интеллект, термин, концепт, метафора, эквивалент, узбекский язык.

Annotation*: The article analyses the conceptual nature of the notion of artificial intelligence (AI) and the linguistic features of the term that expresses it. It is shown that AI is used simultaneously as the name of a scientific field, a technological system and a property of machines, which blurs the boundaries of the term. The results reveal the internal form of the term, its metaphorical character, the hierarchical system it forms with derived terms, its variability, and the problems of choosing equivalents. The findings can serve as a theoretical basis for regulating AI terms in Uzbek and for compiling a terminological dictionary.*

Key words: *artificial intelligence, term, concept, metaphor, equivalent, Uzbek language.*

KIRISH: Sun’iy intellekt bugun faqat texnologiya sohasining tushunchasi emas. U ta’lim, tibbiyot, iqtisodiyot, huquq va boshqaruv singari ko‘plab sohalarga kirib borib, kundalik muloqotda ham tez-tez ishlatiladigan so‘zga aylangan. O‘zbekistonda bu yo‘nalishga davlat darajasida e’tibor qaratilgani sohaning tilga ta’sirini yanada kuchaytirmoqda. 2024-yil 14-oktabrda Prezidentning PQ-358-sonli qarori bilan sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi tasdiqlandi [PQ-358, 2024]. Hujjat bu sohadagi ishlarni huquqiy jihatdan tartibga solish bilan birga, yangi tushunchalarni ifodalovchi ko‘plab terminlarni o‘zbek tilida muntazam qo‘llash zaruratini ham yuzaga keltirdi.

Termin ommalashsa ham uning mazmuni doim ham bir xil tushunilayotganini anglatmaydi. Sun’iy intellekt shunday holatning yaqqol misolidir. Bir muallif bu so‘z bilan kompyuter dasturini, ikkinchisi ilmiy yo‘nalishni, boshqa biri esa mashinaning “aqlli” xatti-harakatini nazarda tutadi. Bunday noaniqlik terminning tarjimasida ham, lug‘atlarda berilishida ham muammo tug‘diradi. Shu sababli SI qanday tushunchani bildirayotganini va nima uchun aynan shu shaklda ifodalanayotganini aniqlab olish zarur.

Terminologiya masalasi tilshunoslikning dolzarb yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Bu haqda Imomiddinova shunday yozadi: Terminologiya masalasi tilshunoslikning murakkab va shu bilan birga, dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Terminologiyaga oid tadqiqotlar chet el hamda mamlakatimiz olimlari tomonidan keng miqyosda olib borilmoqda [Imomiddinova, 2022: 5]. Mavzuning dolzarbligi, avvalo, yangi terminlarning tinimsiz paydo bo‘lishi bilan bog‘liq. Bu jarayonni va uning oqibatlarini quyidagicha izohlash mumkin: Fan, texnika, ishlab chiqarish, ijtimoiy hayotdagi jiddiy o‘zgarishlar va bu o‘zgarishlarni tilda ifoda etish zarurati tufayli yangidan-yangi terminlar vujudga kelmoqda. Har bir sohada uchraydigan bunday terminlarni ilmiy tahlil qilib borish, ularni tartibga solish terminologiyaning asosiy vazifasidir. Bu vazifani amalga oshirishning asosiy yo‘llaridan biri mukammal terminologik lug‘atlar tuzishdir [Madvaliyev, 2017: 12]. Demak, terminlarni ilmiy tahlil qilish, tartibga solish va lug‘atlarda mustahkamlash terminologiyaning amaliy vazifasi sifatida qaraladi.

Terminlarni tartibga solish uchun esa avvalo termin nima ekanini aniq belgilash kerak. Termin ta’rifi xususida ilmiy adabiyotlarda ko‘pdan-ko‘p mulohazalar bildirilgan. Deyarli barcha ta’riflarda termin maxsus ilmiy-texnikaviy tushunchani ifodalovchi so‘z yoki so‘z birikmasi tarzida tavsiflanadi [Dadaboyev, 2019: 5]. Ko‘rinadiki, ta’riflar xilma-xil bo‘lsa-da, ularning ko‘pchiligida umumiy asos saqlanadi: termin maxsus tushunchani ifodalovchi til birligidir. Bu holat sun’iy intellekt kabi tez rivojlanayotgan sohada alohida ahamiyat kasb etadi, chunki yangi

terminlar tizimini tartibga solishdan oldin termin tushunchasining o‘ziga ilmiy aniqlik kiritish zarur.

Terminning ortidagi tushuncha aniqlanmaguncha, uni o‘zbek tilida to‘g‘ri ifodalash, hosila terminlar bilan tizimga solish va lug‘atda izohlash qiyin bo‘ladi. Shu sababli mazkur maqolada sun’iy intellekt tushunchasining konseptual tabiati va uni ifodalovchi terminning lingvistik xususiyatlari o‘zbek tili materialida tahlil qilinadi. Tadqiqotdan ko‘zlangan maqsad sun’iy intellekt terminlarini tartibga solish va terminologik lug‘at yaratish uchun nazariy asos shakllantirishdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR: O‘zbek tilshunosligida sun’iy intellekt terminologiyasi so‘nggi yillarda alohida tadqiqot obyektiga aylandi. SI terminlarining genetik qatlamlari, ya’ni manba tillar, o‘zlashtirish jarayonlari va neologizmlar yasalishi tahlil qilinib, bu tizim global ilmiy diskurs bilan milliy til o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirda shakllanayotgani ta’kidlangan. [Muminova, 2025: 197–200]. Shuningdek, ingliz va o‘zbek tillaridagi SI leksikasining tarjima muammolarini tahlil qilingan [Xolliyeva, 2025: 396–403].

Jahon tilshunosligida, xususan, rus tilshunosligida SI terminologiyasi korpus yondashuvi asosida o‘rganilmoqda. O.V. Shadrinaning nomzodlik dissertatsiyasi “sun’iy intellekt” predmet sohasi terminologiyasining struktur-semantik xususiyatlariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda terminologiya evolyutsiyasining asosiy bosqichlari hamda terminlarning sintaktik derivatsiyasi (ikki va ko‘p komponentli terminlar) tahlil qilingan [Шадрина, 2026].

Ko‘rib chiqilgan tadqiqotlar asosan terminlarning kelib chiqishi, tarjimasi, ekvivalenti va korpusdagi qo‘llanishiga qaratilgan. Bunda SI tushunchasining o‘zi qanday konseptual tabiatga ega ekani va bu tabiat terminologik tizimning xususiyatlariga qanday ta’sir qilishi masalasi alohida tadqiq obyekti sifatida kam yoritilgan. Mazkur maqola shu jihatni to‘ldirishga qaratilgan.

Tahlil jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi: *tavsifiy metod*, SI terminlarining tuzilishi va qo‘llanishini tavsiflash uchun; *tushunchaviy (konseptual) tahlil*, termin ortidagi tushunchaning ma’no qatlamlarini aniqlash uchun; *komponent tahlil*, “sun’iy intellekt” terminining va unga bog‘liq hosila terminlarning ichki shakli va tarkibini ochish uchun; *qiyosiy usul*, ingliz va o‘zbek tillaridagi terminlar va ularning ekvivalentlarini taqqoslash uchun.

NATIJALAR: SI tushunchasining ildizlari 1950-yilda A. Tyuringning “Hisoblash mashinalari va intellekt” maqolasi bilan bog‘lanadi. Muallif “Mashinalar o‘ylay oladimi?” degan savolni qo‘yadi va uni o‘zi “taqlid o‘yini” deb atagan amaliy sinov bilan almashtirishni taklif qiladi [Turing, 1950: 433]. Bu yerda muhim jihat

shuki, tushunchaning dastlabki talqini “intellekt nima?” degan falsafiy savolga emas, mashinaning xatti-harakatini kuzatishga tayangan.

Keyingi davrda tushuncha kengayib, bir-biridan farq qiluvchi yondashuvlar paydo bo‘ldi. S. Rassell va P. Norvig SIga berilgan ta’riflarni ikki o‘lchov bo‘yicha guruhlaydi: ular inson kabi yoki oqilona bo‘lishni, shuningdek, fikrlashni yoki xatti-harakat qilishni o‘z ichiga oladi, natijada to‘rt yondashuv hosil bo‘ladi [Russell, Norvig, 2020: 1–5]. J. Serl 1980-yilda “kuchsiz” va “kuchli” SI o‘rtasidagi farqni ilgari surdi. Birinchisida kompyuter aqliy faoliyatni o‘rganish vositasi sifatida qaraladi, ikkinchisida esa to‘g‘ri dasturlangan kompyuterning o‘zi aqliy holatlarga ega, deb hisoblanadi [Searle, 1980: 417]. Ko‘rinadiki, mutaxassislar orasida ham SIning yagona ta’rifi yo‘q.

Bu tarixiy manzara SI terminining kamida uch ma’noda ishlatilishini ko‘rsatadi. Uchala ma’no bir termin bilan ifodalangani uchun ularni kontekstdan tashqarida ajratish qiyin. Klassik terminologiya talabiga ko‘ra bir termin bir tushunchani bildirishi kerak, SI esa bu talabdan chetga chiqadi. Bu hodisa faqat o‘zbek tiliga xos emas, termin ingliz tilida paydo bo‘lgan davrdan beri mavjud. Biroq o‘zbek tilida bu holat tarjima va talqinlar orqali yana ham murakkablashadi.

PQ-358-sonli qarorga ilova qilingan Strategiyada SI insonning bilim va ko‘nikmalariga taqlid qilish (shu jumladan mustaqil o‘rganish va yechim izlash) hamda aniq vazifalarda inson aqliy faoliyati natijalari bilan taqqoslanadigan natijalarni olish imkonini beruvchi “texnologik yechimlar majmui” sifatida ta’riflanadi [PQ-358, 2024].

Terminning ichki shakli va tuzilishi. “Sun’iy intellekt” termini sifat va otdan iborat so‘z birikmasi shaklidagi termindir. Uning birinchi komponenti “sun’iy” arab tilidan o‘zlashgan “sun’” (yasash, yaratish) ildizidan hosil bo‘lgan va “inson tomonidan yaratilgan” ma’nosini bildiradi. Ikkinchi komponent “intellekt” xalqaro leksika qatlamiga mansub bo‘lib, lotincha intellectus (anglash, tushunish) so‘ziga borib taqaladi. Shunday qilib, termin ichki shakliga ko‘ra “inson yaratgan anglash qobiliyati” degan ma’noni ifodalaydi. Bu esa tushunchaning asosiy mohiyatini, ya’ni inson aqliy faoliyatiga taqlid qilishni aks ettiradi.

O‘zbek tilida “intellekt” so‘zining o‘rniga aql, tafakkur, zakovat kabi milliy so‘zlarni qo‘llash imkoniyati ham bor. Haqiqatan ham amaliyotda “sun’iy tafakkur” kabi variantlar uchrab turadi. Biroq bu so‘zlarning har biri o‘z ma’no doirasiga ega: aql ko‘proq mulohaza yuritish qobiliyatini, tafakkur fikrlash jarayonini, zakovat esa topqirlikni bildiradi. “Intellekt” esa bunday tor ma’no yuklamasidan xoli va xalqaro termin tizimi bilan aloqani saqlab qoladi. Ehtimol, termin barqarorligining sabablaridan biri shudir.

Ingliz tilidagi “intelligence” so‘zi ikkinchi ma’noda (axborot yig‘ish, razvedka) ham ishlatiladi. O‘zbek tilida “intellekt” bu ma’noni ifodalamaydi, uni “razvedka” so‘zi bildiradi. Natijada o‘zbekcha termin inglizchasiga nisbatan aniqroq. Qisqartma shakli ham muhim: o‘zbek tilida SI shakli qo‘llansa-da, matnlarda inglizcha AI qisqartmasi ham uchraydi.

MUHOKAMA: Tahlil natijalariga ko‘ra, SI terminini va unga bog‘liq terminologik qatlamni quyidagi xususiyatlar tavsiflaydi.

Birinchi xususiyat — metaforiklik. SI terminologiyasining ko‘p qismi inson va biologik olamdan olingan obrazlarga tayanadi: “neyron tarmoq”, “o‘qitish”, “o‘rganish”, “xotira”, “gallyutsinatsiya”. Yangi tushuncha tanish soha orqali tushuntirilgani uchun metafora termin yaratishda qulay vosita bo‘ladi. R. Temmerman ham terminlar shakllanishida metaforaning rolini alohida ta’kidlaydi. Ammo bunda xavf ham bor: “mashina tushunadi”, “mashina o‘ylaydi” kabi iboralar terminning ilmiy aniqligini susaytirib, antropomorf talqinni kuchaytiradi.

Ikkinchi xususiyat — tizimlilik va ierarxiya. Strategiya matnida bu yaxshi ko‘rinadi: neyron tarmoq mashinaviy o‘qitish usullaridan biri sifatida, chuqur o‘rganish platformasi esa sun’iy neyron tarmoqlarini chuqur o‘rganish uchun mo‘ljallangan vositalar majmui sifatida ta’riflanadi [PQ-358, 2024]. Demak, SI umumiy tushuncha, mashinaviy o‘qitish uning bo‘limi, neyron tarmoq va chuqur o‘rganish esa undan keyingi pog‘onalardir. Bunday jins–tur munosabati terminologik tizimning asosiy belgisi bo‘lib, SI terminlarini lug‘atda ham shu mantiq asosida joylashtirish maqsadga muvofiq.

Uchinchi xususiyat — variantlilik va barqaror emaslik. Misol uchun, ingliz tilidagi “machine learning” va “deep learning” terminlari ikki xil beriladi: “mashinaviy o‘qitish” va “chuqur o‘rganish”. Aslida bu ikki fe’l turli nuqtayi nazarni bildiradi: “o‘qitish” o‘qituvchi tomonidan, “o‘rganish” esa o‘rganuvchi tomonidan qaraydi. Natijada bir komponent ikki xil ekvivalentga ega bo‘lib qolgan. Xuddi shunday, “tabiiy tilga ishlov berish” shakli bilan birga “tabiiy tilni qayta ishlash” kabi variantlar ham ishlatilishi mumkin.

To‘rtinchi xususiyat — xalqaro ta’sir va ekvivalent tanlash muammosi. SI terminologiyasi asosan ingliz tilida shakllangan va o‘zbek tiliga tarjima, o‘zlashtirish hamda moslashtirish orqali kirib kelmoqda. Kalka usuli: “katta ma’lumotlar” (big data), “bulutli texnologiyalar” (cloud technologies). Lotin yozuvidagi qisqartmalarni saqlash: LLM, NLP, Face-ID. Chet so‘zni tabiiy shaklda qo‘llash: “chat-bot”. Har bir usul o‘z afzallik va kamchiligiga ega. Kalka ma’noni tushunarli qiladi, lekin ba’zan yasama va noqulay shaklga olib keladi. Qisqartmani saqlash aniqlikni ta’minlaydi, ammo o‘zbek yozuvi va talaffuzi bilan uyg‘unlik buziladi.

Beshinchi xususiyat — fanlararo xarakter. SI terminologiyasi kompyuter fani, matematika, statistika, nevrologiya, falsafa, huquq va tilshunoslik kabi turli sohalarning tushunchalarini birlashtiradi. Shu sababli bir so‘z turli sohada turli ma’no kasb etadi: “model”, “o‘qitish”, “ma’lumot” kabi so‘zlar matematikada, informatikada va kundalik nutqda har xil tushuniladi.

Olingan natijalar o‘zbek tilida SI terminlarini tartibga solish uchun bir necha amaliy xulosa berishga imkon beradi. Birinchidan, termin bilan ish boshlashdan oldin uning qaysi ma’no qatlamiga (yo‘nalish, tizim yoki qobiliyat) tegishli ekani aniq belgilanishi kerak. Ikkinchidan, jins–tur munosabati asosida terminlar ierarxiyasini tuzish va har bir pog‘onada bitta asosiy shaklni tanlash zarur. Uchinchidan, metaforik terminlarni qo‘llashda ularning mazmuni lug‘atda izoh bilan ochilishi lozim, chunki bu antropomorf talqinning oldini oladi. To‘rtinchidan, variant shakllarni bir-biridan ajratib, asosiy va yordamchi variant sifatida berish kerak. Bu xulosalar SI terminologik lug‘atini tuzishda tushunchalarni tartibli joylashtirish va bir xil izohlashga yordam beradi.

XULOSA: Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, sun’iy intellekt tushunchasi o‘zining shakllanish tarixi davomida kengayib, bir termin ostida ilmiy yo‘nalish, texnologik tizim va mashina qobiliyati ma’nolarini birlashtirgan. Rasmiy hujjatlarda bu tushuncha asosan texnologik talqinda beriladi, ilmiy manbalarda esa funksional, kognitiv va falsafiy yondashuvlar yonma-yon mavjud. Shu sababli “sun’iy intellekt” termini klassik terminologiyaning bir ma’nolilik talabiga to‘liq javob bermaydi va uni tahlil qilishda tushunchaning konseptual tabiatini hisobga olish zarur.

Sun’iy intellekt terminologiyasi metaforik xarakterga ega, ierarxik tizim hosil qiladi, variantlilikka moyil, xalqaro ta’sirga ochiq va fanlararo xususiyatga ega. Terminlarni tartibga solishda ularning ortidagi tushunchani aniq belgilash, bir tushunchaga bir asosiy shaklni tanlash va variantlarni izchil me’yorlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada olingan natijalar o‘zbek tilida sun’iy intellekt terminlarini standartlashtirish va terminologik lug‘at yaratish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son qarori “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”. – https://lex.uz/uz/docs/-7158604

2. Имомиддинова Н. Ҳозирги хитой тилидаги ҳарбий терминлар тадқиқи. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т.,2022. – Б. 130.

3. Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017. – Б. 384.

4. Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Nodirabegim, 2019. – B. 138.

5. Muminova Ch. Sun’iy intellekt terminlarining genetik qatlamlari. Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika elektron jurnal, 2025. – B. 197-200.

6. Xolliyeva S. Ingliz va o‘zbek tillarida sun’iy intellekt leksikasining tarjima muammolari va muqarrar tendensiyalari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2025. – B. 396-403.

7. Шадрина О.В. Структурно-семантические особенности терминологии предметной области «Искусственный интеллект» (корпусное исследование): дис. ... канд. филол. наук. – М.: МГПУ, 2026.

8. Turing A.M. Computing machinery and intelligence // Mind. – 1950. – Vol. 59, No. 236. – P. 433–460.

9. Russell S., Norvig P. Artificial Intelligence: A Modern Approach. 4th ed. – Hoboken: Pearson, 2020. P. 166.

10. Searle J.R. Minds, brains, and programs // Behavioral and Brain Sciences. – 1980. – Vol. 3, No. 3. – P. 417–457.

ARTUR KONAN DOYL DETEKTIVLARIDA IZQUVAR PORTRETINING BADIIY-ESTETIK FUNKSIYALARI

Abdusalimova Sadoqatxon
FarDU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. *Maqolada portret tasviri, uning tasvirlanish usuli va badiiy ifoda xususiyatlariga ko‘ra turlari detekriv asarlar misolida tahliliy o‘rganilgan. Artur Konan Doyl detektivlarida izquvar ruhiyati masalasi psixologik portert vositasida yoritilgan. Muallif detektivlarida dinamik portret yetakchilik qilishi, psixologik detallarga murojaatning ustuvorligi badiiy mahorat kontekstida asoslangan.*

Аннотация. *В статье представлено аналитическое исследование портрета-способов изображения и различных форм художественного воплощения-в контексте детективного жанра. В детективных произведениях Артура Конан Дойла внутреннее состояние сыщика раскрывается посредством психологического портрета. Автор статьи утверждает, что преобладание динамического портрета и особое внимание к психологическим деталям в этих произведениях служат важнейшими показателями художественного мастерства автора.*

Annotation. *This article presents an analytical study of portraiture-examining methods of depiction and various types of artistic expression-within the context of detective fiction. In the detective stories of Arthur Conan Doyle, the inner state of the investigator is explored through the use of psychological portraiture. The author argues that the prevalence of dynamic portraiture and a strong emphasis on psychological detail in these detective works serve as key indicators of the author’s artistic mastery.*

Kalit so’zlar. *Detektiv, portret, statik portret, dinamik portret, psixologik portret.*

Ключевые слова. *Детектив, портрет, статический портрет, динамический портрет, психологический портрет.*

Keywords. *Detective, portrait, static portrait, dynamic portrait, psychological portrait.*

Kirish. Portret tasviri badiiy asarda qahramon obrazini shakllantirishda muhim vosita bo‘lib, u orqali kitobxon tasavvurida jonli obraz yuzaga keladi. Mazkur obraz esa o‘quvchida qahramonning tashqi qiyofasi va ichki dunyosi haqida dastlabki tasavvurni hosil qiladi. Badiiy asarda portretning asosiy vazifasi – qahramonning ruhiy holati va ichki dunyosini ochish. Shu sababli, portretning shakli

va mazmuni yozuvchining individual uslubi va ijodiy maqsadlariga bog‘liq bo‘lib, turlicha darajada berilishi mumkin. Ba’zan qahramonning tashqi ko‘rinishi va xatti-harakati batafsil tasvirlanadi, ba’zan esa faqat muhim detal orqali uning xarakteri ochib beriladi. Xuddi detektiv asarlardagi portretlar tasviri singari. Shuningdek, portret muallifning personajga bo‘lgan qarashini, bahosini, simpatiya, antipatiyasini ham aks ettiradi va o‘quvchiga ushbu qahramonning syujetdagi roli haqida oldindan tushuncha beradi.

Yozuvchi har bir qahramonni o‘ziga xos tarzda ifodalaydi. Bunda portret tasviri orqali qahramonning individual xususiyatlari, ruhiy kechinmalari va syujetdagi o‘rni yanada aniqroq namoyon bo‘ladi

Bu borada professor D.Quronov portretni qahramon xarakterini ochishda muhim badiiy vosita sifatida talqin qildi. Olim portretning badiiy imkoniyatlarini tahlil qilar ekan, uning qahramon tasvirini berishdagi turli ko‘rinishlarini ajratib ko‘rsatadi. Shu tasnifga tayangan holda badiiy asarlarda portretning statik va dinamik turlari farqlanadi. Mazkur ilmiy qarashlarni umumlashtirgan holda esa portret tasviri tasvirlanish usuli va badiiy ifoda xususiyatlariga ko‘ra uch asosiy turga ajratiladi:

1. Statik portret.
2. Dinamik portret.
3. Kontrast portret

Portretning statik usuli an’anaviy bo‘lib, hozirgi adabiy jarayonda unga nisbatan murojaat susayib bormoqda. “Statik” atamasi yunoncha “statikos” so‘zidan olingan bo‘lib, “harakatsiz”, “o‘zgarmas” degan ma’nolarni anglatadi. Terminning ma’nosidan anglashiladiki, qahramonning tashqi va ichki olamiga doir tavsiflar bir o‘rinda asosan asarning ekspozitsiyasida berib o‘tiladi. Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon ijodida buning ko‘plab namunalarini uchratish mumkin. Professor D. Quronov talqini bilan aytganda, bu portret turida personajning tashqi qiyofasi syujet voqeasi to‘xtatilgan holda ancha mufassal, detallashtirib chiziladi[1]. Xalq og‘zaki ijodi, mumtoz asarlardan tortib to zamonaviy adabiy jarayongacha bo‘lgan davrda statik portret keng qo‘llanilib, qahramonning tashqi qiyofasini barqaror va yaxlit holda ifodalash orqali uning obrazini shakllantirishda muhim badiiy-estetik ahamiyat kasb etadi. Odatda, bunday portretlar personaj yoki qahramon badiiy asar voqeligiga ilk bor kirib kelgan mahaldayoq kitobxonga tanishtiriladi va o‘quvchining ko‘z o‘ngida ma’lum bir shaxs haqida tasavvur uyg‘onadi. Qahramon tasviriga ko‘ra o‘sha qahramonga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabat shakllanishi mumkin.

Artur Konan Doylning badiiy mahoratidagi o‘ziga xoslik detektiv obrazini yaratishda uning do‘sti Uotson tomonidan “chizilgan” portretni afzal ko‘rishida namoyon bo‘ladi. Bu izquvar va uning ruhiyati bilan bog‘liq bor tafsilotlarni

mukammal, haqqoniy, jonli va xolis tavsiflash imkonini bergan. Muallif portretning dinamik usulidan foydalanishni detektiv asarning xususiyatiga ko‘ra to‘g‘ri tanlagan. Voqeliklar rivojida portretga xos chizgilarning birma-bir berib borilishi natijasida yuzaga keladigan kitobxon tasavvurlari izquvarga xos ma’lumot, dalillarni yig‘ish funksiyasi bilan parallel kechadi. Aytish mumkinki, portret turlarining hammasi turli yo‘sinda asar qahramonlarning badiiy qiyofasini yaratishga xizmat qiladi va yozuvchi o‘zining uslubi va badiiy maqsadidan kelib chiqib, ma’lum bir turini faol tarzda ham qo‘llashi mumkin.

Xolmsning sarguzashtlarida statik portretga ko‘p o‘rin berilmagan. Asarning ekspozitsiyasida, tugundan avval Xolms haqida kengroq, aniqrog‘i, bir abzas tavsif beriladi, undan ko‘p emas. Bu muallifning portret yaratishdagi uslubiy o‘ziga xosligi hisoblanadi.

“Men ko‘zda tutganimdek, Sherlok Xolms hali xalatda, mehmonxonada trubka chekib, “Tayms”ni o‘qib o‘tirgan ekan. Unda har-xil shaxslarning jinoyat qidiruv ishlari haqida yozadi. Odatda, u trubkani sinchiklab yig‘ilgan va kamin tokchasida quritilgan qolgan tamakilar bilan to‘ldirib nonushtadan oldin chekardi. U bizni o‘ziga xos xotirjamlik bilan kutib oldi-da, biz uchun ham tuxum va vetchina buyurdi. Va biz yaxshi nonushta qilib oldik. Ovqatlanib bo‘lgach, u bizning tanishimizni divanga o‘tqazdi-da, uning orqasiga yostiq qo‘ydi. Yoniga esa bir stakan suv bilan konyak qo‘ydi ”(“Muhandisning barmog‘i”B.71).

Detektiv asarlarda izquvarlarning tashqi qiyofasi u qadar mukammal chizilmaydi. Asosan psixologik portretlariga e’tibor qaratiladi. Shunday bo‘lsa ham bir nechta asarlarda an’anaviy tarzda asosiy qahramon maqomida keluvchi Xolmsning tashqi ko‘rinishidagi ba’zi bir belgilar uning umumiy qiyofasini gavdalantiradi. Bo‘yi baland va ozg‘in, qomatdor, cho‘ziq yuzli, iyagi ingichka, kulrang (ba’zi asarlarda ko‘kimtir)ko‘zlari o‘tkir, mayda tafsilotlargacha ilg‘aydigan, oddiy, ammo toza kiyinadi. Uyqudan turgandagi holatlarida qizil xalatli tasvirlanadi. Ko‘proq ertalab, ba’zan chuqur o‘ylagan paytlarida tamaki chekadi. Chehrasida qat’iyat, o‘ziga ishonch bor. Ushbu tavsiflar Xolms sarguzashtlari sikliga kiruvchi bir nechta asarlardan jamlangan umumiy tasavvurdir. Odatda bu ma’lumotlar dinamik tarzda berilgan.

Yuqoridagi misolda yangi bir jinoyat tafsilotlari boshlanishidan avval Xolmsning portreti beriladi. Mazkur statik portretda qiyofa va psixologik tavsiflar uyg‘unlashgan. Detektivning *xalatda, tamaki chekib, gazeta o‘qib o‘tirishi* uning ishdan holi, dam olish vaqtlaridagi oddiy inson ekanligi haqida tasavvur uyg‘otadi. Aslida bu navbatda ishga o‘zini jisman va ruhan tayyorlashga o‘xshaydi. Gazeta o‘qishi va unda nimalar bosilishi bilan bog‘liq izohning o‘ziyoq Xolmsning oddiy kunlari ham ish jarayonidan u qadar farq qilmasligiga amin bo‘ladi. Uyiga tashrif

buyuruvchilarni *xotirjamlik bilan kutib olishi*, yaxshi nonushtadan so‘nggina jinoyatga bog‘iq tafsilotlarni eshitish uchun suhbatdoshni ruhan tayyorlashi(*orqasiga yostiq , oldiga suv va konyak qo‘ydi*) uning muloqotlar psixologiyasini yaxshi egallaganidan dalolat beradi. Portretning bu tarzda berilishining o‘ziyoq asar qahramonlarinigina emas, kitobxonni ham navbatdagi jinoyat va uning fosh etilishiga doir voqeliklar silsilasiga tayyorlaydi.

Statik portret qahramonning qiyofasini barqaror holda tasvirlash bilan birga, uning xarakterini dastlabki bosqichdayoq belgilashga xizmat qiladi. Ko‘pincha asar boshida berilib, syujet rivoji uchun asosiy tayanch vazifasini ham bajarib keladi. Shuningdek, statik portret inson obrazining estetik yaxlitligini ta’minlab, o‘quvchi tasavvurida qahramonning konkret qiyofasi shakllanishiga ko‘maklashadi. Shu jihati bilan boshqa portret turlaridan ajralib turadi. Statik portretdan farqli ravishda, dinamik portretda qahramon tasviri batafsil bayon qilinmaydi.

“Dinamik” so‘zi yunoncha “dynamis” (kuch) so‘zidan olingan bo‘lib, asosiy ma’nosi “harakatlanuvchi, o‘zgaruvchan” demakdir. Dinamik portret epik va dramatik asarlarda qo‘llanilib, qahramon tasvirini asar voqealari davomida shakllanishiga xizmat qiladi. Adabiyotshunos Dilmurod Quronov dinamik portretga quyidagicha ta’rif beradi: “Dinamik portret deganda voqea va dialoglar jarayonida, ya’ni harakat davomida berib boriladigan tashqi ko‘rinishga xos ayrim detallar nazarda tutiladi. Bunday portret detallari (yuz-ko‘z ifodalari, tana holati va harakatlari, qiliqlari) ko‘proq remarkalarda uchraydi va personajning ayni paytdagi ruhiy holatini ifodalashga xizmat qiladi”[2]. Dinamik portretning ushbu xususiyatlari adabiyotshunos A.Ulug‘ov qarashlarida ham o‘z ifodasini topgan. Uning ta’kidlashicha, dinamik portret personajning tashqi ko‘rinishi batafsil tasvirlanmasdan, balki voqealar rivoji va dialoglar jarayonida ayrim detallar orqali tavsiflanadi[3]. Ayni xususiyatiga ko‘ra ham portret berishning bu usuli detektiv asar kompozitsiyasiga, uning kanonik talablarig mos keladi. Artur Konan Doyl asarlarida dinamik portret ustuvorligi kuzatiladi. Detektiv asarning dramatizm asosiga qurilishi, voqeliklarning shiddatli kechimi ham dinamik portret berishni taqozo qiladi. Bunda portret voqeliklar davomida mukammallashib boradi.

“...U bir soatlarcha yo‘q bo‘lib ketdi. Qaytib kelganida esa uning oyog‘i rosa qorga botgandi. Yuzidan esa odatdagidek, hech narsani bilib bo‘lmasdi”...

“Xolms qanaqadir eski botinkani goh u tomon, goh bu tomon silkitib, ko‘tarinki kayfiyatda qaytib kelganda, men choy ichib bo‘lgandim. U botinkani burchakka otdi-da, o‘ziga choy quydi”.

“O‘zini tutishidan do‘stimning ishining natijasidan qoniqayotganini sezdim. Uning ko‘zlari yarqirardi, hatto, yuziga bir oz qizil ham yugurgan. U tepaga,

xonasiga chiqib ketdi va bir necha daqiqadan so‘ng kirish eshigimizning tovushini eshitdim. Xolms yana “ovga” ketdi(137-139b).

Detektiv asarlarda psixologik portret muhim o‘ri tutadi. Bu asardagi voqeliklar rivojiga ko‘ra qahramon xarakterining bosqichma-bosqich parallel ravishda dinamik o‘zgarib borishini ko‘rsatadi. Detektivning dinamik portreti uning ruhiyatidagi evrilishlarni, ruhiy ta’sirlanish, quvonch, g‘azab, nafrat, ruhiy qoniqish, tushkunlik kabi qator ruhiy holatlar dinamikasini namoyon etadi. Ko‘pincha bu holat surishtiruv, qidiruv ishlarining samaradorlik ko‘lami, natijadorligiga mos holatda kechadi. Keltirilgan misolda Xolmsning har bir ishga ijodkorona, borlig‘ini berib yondashishini sezish mumkin. Ish yurmagan, dalillar “tilga kirmagan” vaqtdagi Xolmsning ruhiy tushkunligi, ish yurishib ketgandan keyin (*ko‘tarinki kayfiyatda)*gi holatidan tubdan farq qiladi. Uning ruhiy holatini hatto jismi o‘z jestlari(*eski botinkani goh u tomon, goh bu tomon silkitib)* orqali namoyon etib turibdi.

Xolms berilib ijod qilayotgan(jinoyat bilan ishlayotgan) vaqtda xalal bermaslikni hamxona sifatida Uotson yaxshi biladi. Bunday vaqtlarda bir chetdan kuzatib turishni ma’qul ko‘radi. Chunki Xolms shuni tarafdori. *Uning ko‘zlari yarqirardi, hatto, yuziga bir oz qizil ham yugurgan* holati qidiruv, surishtiruv ishlarining anchayin jonlanib ketganidan darak beradi. Asar davomida Xolmsning mana shunday xarakterli statik portretlari mayoq singari kitobxonni voqeliklar shiddatidan ogoh etib turadi. Ko‘zlarning yarqirashi, yuzga qizillik yugurishi izquvar ruhiy holatining yorqin ifodasidir. Ayni kontekstning o‘zida izquvar portretining birinchi tavsifi, uchinchi tavsif bilan kontrastlik hosil qiladi.

“Psixologik belgilar portret tasvirida aniq ko‘rinadi. Mohir san’atkor qahramonning portreti orqali uning qalbini chuqur yoritadi. Portret bilan xarakter yo‘nalishi o‘rtasida birlik bo‘lishi, portret qahramon qalbini yoritishga xizmat qilishi lozim”[4].

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, portretning barcha turlari obrazni shakllantirishda va qahramon ruhiyati yoritishda muhim o’rin tutadi. Artur Konan Doyl detektiv asarlarida portretning statik, dinamik va psixologik turlaridan foydalanish bilan bir qatorda, dinamik portretning yetakchiligini ko’rishimiz mumkin. Sherlok Xolms sarguzashtlarida Uotson go‘yoki detektivning hayotini kadrga muhrlayotgan operatordek harakat qiladi. Izquvarning har bir holatini, harakatini aniq-ravshan tavsiflab boradi. Uoston nigohidan chizilgan psixologik portretlar ham detektivning ruhiy olamini yorqin namoyon etishda eng muhim vazifani bajargan. Xususan, uning har bir ish jarayonidagi ruhiy holatini tafakkur san’ati sohibi sifatida jo‘shqin ifodalaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Quronov D. Mamajonov Z. Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. - T., Akademnashr, 2013. – B.226.

2. Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. - T.1992, G‘afur G‘ulom nomidagi nashr – B.63.

3. Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик. – Т.: Шарқ. 2007. – Б.187

4. Doyle A. C. The Adventures of Sherlock Holmes. — London: George Newnes, 1892.

KO‘P TILLI RAQAMLI KOMMUNIKATSIYADA TIL VA NUTQ EKOLOGIYASINING ZAMONAVIY TALQINI

Abduvaxabova Dilnoza Nurmaxamatovna
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU, Chet tillar kafedrasi, dotsent

Annotatsiya. *Ko‘p tilli raqamli kommunikatsiyada til va nutq ekologiyasining nazariy mazmuni, kod almashinuvining funksional talqini hamda ekologik baholash mezonlari yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *til ekologiyasi; nutq ekologiyasi; ko‘p tillilik; raqamli kommunikatsiya; kod almashinuvi; pragmatik moslik.*

Qayd etish kerakki, tarixiy idg‘om atamasi zamonaviy assimilyatsiya tushunchasiga to‘liq mos tushmasligi mumkin. Assimilyatsiyada turli tovushlar o‘zaro ta’sir natijasida bir yoki bir necha belgi bo‘yicha o‘xshashlashadi. Bir xil undoshlarning qo‘shilishida esa tovushlar boshlang‘ich holatidayoq aynan bo‘lib, asosiy o‘zgarish ularning artikulyatsion birlashuvida yuz beradi. Sibavayh bir nom ostida ko‘rib chiqqan ushbu holatlarni farqlash tovush o‘zgarishining mohiyati va shartlarini aniqlash uchun zarur. Aks holda, o‘xshashlashish, almashish va qo‘sh undosh hosil bo‘lishi yagona jarayon sifatida talqin qilinadi.

Mavzuga aloqador tadqiqotlarga nazar solsak, Bashir Ibrir Sibavayhning fonetik qarashlarida yengillik va og‘irlik tamoyillariga e’tibor qaratganini ko‘ramiz. Ibrohim Ahmad Umayriy Ali al-Luhaybiy esa al-Mubarrad va Ibn Jinniyga bag‘ishlangan qiyosiy tadqiqotida undoshlarning qo‘shilishi bilan tovushlarni bir-biriga yaqinlashtirish o‘rtasidagi farqni yoritadi. G‘unnali talaffuz masalasida Abhar Hodiy Muhammad Sibavayh izohlarining keyingi tajvid tasniflari bilan to‘liq mos kelmasligini ilgari suradi.[16]

Sibavayh tavsifida maxraj tovushning hosil bo‘lish o‘rnini belgilasa, sifat shu o‘rinda yuzaga keladigan talaffuz xususiyatlarini ifodalaydi. “Nun” va “mim”ning g‘unnasi, “ro”ning takrorlanishi, “vov” va “yo”ning lin xususiyati tovushlarning kombinator imkoniyatlariga bevosita daxldordir. Olim “nun” va “mim” talaffuzida burun yo‘li berkitilsa, ular bilan davom etadigan ovozning to‘xtashini qayd etadi. Bu kuzatish burun rezonansini undoshlarning o‘zaro munosabatini belgilovchi mustaqil omil sifatida ajratish imkonini beradi. Binobarin, maxraj jihatidan yaqin tovushlar o‘rtasidagi farq ularning havo oqimi va rezonans xususiyatlari bilan ham belgilanadi.[17]

Artikulyatsion yaqinlikning yo‘nalishga bog‘liq natijasi «اصحب مطراً» va «أكرم به» birikmalarida kuzatiladi. Birinchi misolda “ba” keyingi “mim”ga moslashib, unga qo‘shiladi; ikkinchisida esa “mim” “ba” oldida saqlanadi. Har ikki ketma-

[15] Sibavayh, Abu Bishr Amr ibn Usmon. Al-Kitāb [الكتاب] / tahqiq: Abdussalom Muhammad Horun. – 3-nashr. – Qohira: Maktabat al-Xonjiy, 1988. – J. 4. – B. 431.

[16] Ibrir, Bashir. سيبويه كتاب من الإدغام باب في قراءة: العربية اللغوية النظرية في أساسيان مبدآن والثقل الخفة // El-Tawassol (التواصل). – 2011. – J. 17, № 3. – B. 6–22. – URL: https://asjp.cerist.dz/en/article/48913 (murojaat sanasi: 24.10.2026); al-Luhaybiy, Ibrohim Ahmad Umayriy Ali. جني وأبن المبرد بين موازنة: العربية في الإدغام // Majallat Jāmiʿat Tikrīt li-l-ʿUlūm al-Insāniyya. – 2016. – J. 23, № 6. – B. 479–503. B. 481–483. Muhammad, Abhar Hodiy. وعلماء سيبويه بين بغنة الإدغام والأداء المفهوم دلالة في دراسة: التجويد // Al-Khalīj al-ʿArabī (العربي الخليج). – 2024. – J. 52, ilova son. – B. 293–306. B. 301–302.

[17] Sibavayh. Al-Kitāb. – J. 4. – B. 435.

ketlik lab undoshlaridan tuzilganiga qaramay, almashinish imkoniyati teng emas. “Ba” tovushining “mim”ga o‘tishi lab artikulyatsiyasini saqlagan holda keyingi undoshning talaffuz usuliga moslashuvni yuzaga keltiradi. “Mim”ning “ba”ga aylanishi esa uning burun rezonansini yo‘qotgan bo‘lar edi. Sibavayhning bu ikki holatni turlicha baholashi maxraj umumiyligidan tashqari tovush sifatining saqlanishi ham ahamiyatli ekanini ko‘rsatadi.[18]

«اصحب مطراً» misolidagi o‘zgarish yo‘nalishi keyingi undoshdan oldingisiga qaratilgan. “Ba” tovushining “mim”ga aynanlashishi natijasida artikulyatsion farq bartaraf etilib, qo‘shaloq “mim” yuzaga keladi. Shu belgilari asosida hodisa regressiv to‘liq assimilyatsiya sifatida tavsiflanadi. «أكرم به» misolida esa teskari o‘zgarishning cheklanishi assimilyatsiyani ikki qo‘shni undoshning mexanik tenglashuvi tarzida izohlash mumkin emasligini tasdiqlaydi. Jarayonning amalga oshishi ta’sir etuvchi undosh bilan o‘zgaruvchi undoshning fonetik munosabatiga bog‘liq.

“Nun”ning “ba” oldida “mim”ga aylanishi hosil bo‘lish o‘rni bo‘yicha moslashuvni ifodalaydi. Sibavayh «من بك» birikmasida “nun” o‘rnida “mim” kelishini izohlaydi. Bunda keyingi “ba” lab artikulyatsiyasi orqali oldingi “nun”ning o‘zgarishiga sharoit yaratadi; “nun”ning burun rezonansi esa hosila “mim”da saqlanadi. O‘zgarish natijasida “mim” va “ba” ketma-ketligi yuzaga keladi, biroq bu undoshlar bir-biriga to‘liq aynanlashmaydi. Demak, fonetik natija qo‘sh undosh emas, artikulyatsiya o‘rni moslashgan ikki turli undoshdan iborat. Ushbu belgilarga ko‘ra hodisa regressiv qisman assimilyatsiyaga mansubdir.[19]

Assimilyatsiyaning tovush sifatiga daxldor ko‘rinishi «مصدر»، «أصدر» va «التصدير» misollarida namoyon bo‘ladi. Olim “sod”ning keyingi “dal” ta’sirida “zay”ga yaqin talaffuz qilinishini, ayrim arablar nutqida esa «التزدير» kabi “zay” bilan almashgan variant mavjudligini qayd etadi. Dastlabki holatda “sod”ning ayrim sifatlari keyingi undoshga moslashtiriladi; “zay”ga to‘liq almashgan variantda esa “sod”ga xos itboq belgisi ham saqlanmaydi. Shunga qaramay, ikkala holatda ham keyingi “dal” bilan birlashgan qo‘sh undosh hosil bo‘lmaydi. Shu bois birinchi undoshning almashishini butun ketma-ketlikning to‘liq assimilyatsiyasi bilan tenglashtirish asosli emas.[20]

Sibavayh qo‘llagan «أن يكون عملهم من وجه واحد» iborasi tovushlar ketma-ketligidagi artikulyatsion harakatni bir yo‘nalishga moslashtirishni anglatadi. Biroq bu muvofiqlashuv doimo undoshlarning qo‘shilishiga olib kelmaydi: o‘zgarish bir tovushning ayrim belgilarida ham yakunlanishi mumkin. «من بك» va «التصدير»

[18] Sibavayh. Al-Kitāb. – J. 4. – B. 447.

[19] Sibavayh. Al-Kitāb / tahqiq: Abdussalom Muhammad Horun. – Bayrut: Dor al-Jil, nashr yili ko‘rsatilmagan. – J. 4. – B. 453.

[20] Sibavayh. Al-Kitāb. – J. 4. – B. 477–478.

misollari shu jihatdan umumiy bo‘lsa-da, birinchisida artikulyatsiya o‘rni, ikkinchisida esa tovush sifati o‘zgarishning asosiy sohasidir.

Bir xil undoshlarning qo‘shilishi Sibavayh tomonidan tilning ikki tovush uchun bir o‘rinda turishi orqali izohlanadi. Bu tavsifda undoshlar orasidagi alohida artikulyatsion harakatlar bartaraf etilib, talaffuz yagona tutash harakatga birlashadi. «جعل لك» va «فعل لبيد» misollarida birinchi “lam” harakatining tushirilishi ikki “lam”ning bevosita tutashishiga sharoit yaratadi. Undoshlarning sifati boshlang‘ich holatda aynan bo‘lganligi uchun bu yerda o‘xshashlashishdan ko‘ra geminatsiya, ya’ni qo‘sh undoshning hosil bo‘lishi ustuvordir.[21]

Sibavayh ushbu misollarda harakatli tovushlar ketma-ketligining ko‘payishini undoshlar qo‘shilishining ma’qulligi bilan bog‘laydi. Ayni vaqtda ajratib talaffuz qilishni Hijoz hududiga xos me’yoriy qo‘llanish sifatida tan oladi. Demak, so‘zlar tutashuvidagi fonetik qurshov jarayonning yuz berishiga imkon yaratadi, ammo uning barcha talaffuz variantlarida majburiy bo‘lishini belgilamaydi.

So‘z chegarasida kelgan mad tovushlarida boshqa holat kuzatiladi. «ظلموا واقداً» birikmasida birinchi so‘z oxiridagi cho‘ziq unli keyingi “vov” oldida, «اظلمي ياسراً»da esa cho‘ziq unli keyingi “yo” oldida saqlanadi. Harflarning yozuvdagi o‘xshashligi ularning nutqdagi vazifasini tenglashtirmaydi: birinchi unsur cho‘ziq unli, keyingisi esa undoshdir. Sibavayh bu o‘rinlarda madni saqlashni so‘zning tovush vazni bilan bog‘laydi.[22]

Nutqiy yengillik tamoyilining amal qilish doirasi so‘z tuzilishini farqlash talabi bilan chegaralanadi. «قنية» ،«كنية» va «منية» misollarida “nun” bilan “yo”ning ochiq talaffuzi morfologik chalkashlikning oldini oladi. “Nun”ning keyingi undoshga to‘liq moslashishi ushbu shakllarni qo‘sh undoshli tuzilishga yaqinlashtirgan bo‘lar edi. Sibavayh aynan shu ehtimolni ajratib talaffuz qilishning sababi sifatida ko‘rsatadi. Bunda assimilyatsiyaning cheklanishi maxrajlar uzoqligidan emas, so‘z tarkibidagi undoshlarning mustaqil tanilishini saqlash zaruratidan kelib chiqadi.[23]

“Nun”ning “ro” va “lom” bilan munosabatida maxraj yaqinligi, “mim” bilan munosabatida esa g‘unnadagi umumiylik asosiy omil sifatida ko‘rsatiladi. Sibavayh “ro” va “lom”ga qo‘shilishning g‘unnali hamda g‘unnasiz variantlarini qayd etadi. G‘unnali talaffuzga nisbatan qo‘llangan «ولكن صوت الفم أشرب غنة» ifodasi og‘izda hosil bo‘ladigan ovoz bilan burun rezonansining munosabatini ajratadi. Shu sababli g‘unnaning mavjudligi mustaqil “nun” artikulyatsiyasi saqlanganligining o‘zi bilan

[21] Sibavayh. Al-Kitāb. – J. 4. – B. 437.
[22] Sibavayh. Al-Kitāb. – J. 4. – B. 442.
[23] Sibavayh. Al-Kitāb. – J. 4. – B. 455.

izohlanmaydi; assimilyatsiyadan keyingi undoshning rezonans xususiyati ham hisobga olinadi.[24]

Tadqiqotchi Abhar Hodiy Muhammad yuqoridagilarga asoslanib, Sibavayhdagi g‘unnali idg‘omni keyingi tajvid adabiyotida qo‘llanadigan «noqis idg‘om» tasnifi bilan aynanlashtirishga e’tiroz bildiradi. Bu talqin tarixiy atama bilan keyingi me’yoriy tasnif o‘rtasidagi farqni aniqlashtiradi.[25]

Xulosa qilib aytganda, Sibavayh talqinida undoshlar assimilyatsiyasi maxraj yaqinligi, tovush sifati, ta’sir yo‘nalishi va so‘z tuzilishining o‘zaro munosabati bilan belgilanadi. Artikulyatsion yaqinlik moslashuv uchun imkoniyat yaratadi, ammo g‘unna, mad va morfologik farqlanishni saqlash talabi uning amalga oshishini cheklashi mumkin. “Ba” va “mim”ning qarama-qarshi tartibdagi holatlari shu shartlarning yo‘nalishga bog‘liq amal qilishini ochib beradi.

Asardagi fikrlar to‘liq assimilyatsiya, qisman moslashuv va bir xil undoshlarning qo‘shilishini farqlash imkonini beradi. “Nun” va “sod” bilan bog‘liq o‘zgarishlar assimilyatsiyaning qo‘sh undosh hosil bo‘lishisiz ham yuz berishini ko‘rsatsa, “lam”larning tutashuvi geminatsiyaning alohida artikulyatsion tabiatini namoyon etadi. G‘unna haqidagi izohlar esa undoshning o‘zgarishi bilan rezonans xususiyatining saqlanishini ajratib tahlil qilishni talab etadi. Demak, Sibavayhning fonetik qarashlarida tovushlar ta’siri talaffuzni yengillashtirish hamda til birliklarining farqlovchi tuzilishini saqlash o‘rtasidagi munosabat asosida izohlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sibavayh, Abu Bishr Amr ibn Usmon. Al-Kitāb [الكتاب] / tahqiq: Abdussalom Muhammad Horun. – 3-nashr. – Qohira: Maktabat al-Xonjiy, 1988. – J. 4.

3. Ibrir, Bashir. قراءة في باب الإدغام من كتاب سيبويه// El-Tawassol (التواصل). – 2011. – J. 17, № 3. – B. 6–22. – URL: https://asjp.cerist.dz/en/article/48913

4. al-Luhaybiy, Ibrohim Ahmad Umayriy Ali. موازنة بين المبرد وأبن جني// Majallat Jāmiʿat Tikrīt li-l-ʿUlūm al-Insāniyya. – 2016. – J. 23, № 6. – B. 479–503. – URL: https://iasj.rdd.edu.iq/journals/uploads/2024/12/11/f66c8f16c66d12e6b40740bf9416c4c5.pdf

5. Muhammad, Abhar Hodiy. دراسة في دلالة الإدغام بغنة بين سيبويه وعلماء التجويد المفهوم والأداء// Al-Khalīj al-ʿArabī (الخليج العربي). – 2024. – J. 52, ilova son. – B. 293–

[24] Sibavayh. Al-Kitāb. – J. 4. – B. 452, 454.

[25] Muhammad, Abhar Hodiy. التجويد وعلماء سيبويه بين بغنة الإدغام: دراسة في دلالة المفهوم والأداء // Al-Khalīj al-ʿArabī. – 2024. – J. 52, ilova son. – B. 301–302.

306. – URL: https://books.quranonlinelibrary.com/books/6605/Al-Idgham-bi-Ghunnah-bayna-Sibawayh-wa-Ulama-at-Tajwid.pdf

6. Sotvoldiev S. AL-AḌDĀD IN THE QUR'AN: A CORPUS-BASED ANALYSIS OF LEXICAL CONTRONYMY AND ITS IMPACT ON CLASSICAL TAFSIR TRADITIONS //Arabian journal of Science. – 2026. – T. 13. – №. 6. – C. 2193-2195.

7. Sotvoldiyev S. SEMANTIC DISAMBIGUATION OF ENANTIOSEMIC LEXEMES IN CLASSICAL ARABIC: EVIDENCE FROM CLASSICAL LEXICOGRAPHY AND QUR'ANIC DISCOURSE //BG Pulse Journal. – 2026. – T. 2. – № 07. – C. 123-131.

8. Sotvoldiyev S. ARAB LEKSIKOGRAFIYASI TARIXI VA IBN MOLIK MUSALLAS LUG'ATLARINING TUZILISH PRINSIPLARI // THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD, London, United Kingdom. – 2023.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕТОДА «ИНТЕЛЛЕКТ-КАРТА» ПРИ ИЗУЧЕНИИ ОМОНИМОВ НА ЗАНЯТИЯХ РУССКОГО ЯЗЫКА В ВУЗАХ

Хаитова Феруза Салохитдиновна
доцент межфакультетской кафедры русского языка Самаркандского государственного университета им.Ш.Рашидова, доктор философии по филологическим наукам (PhD)
feruza8134783@gmail.com
УДК : 891.709:398.9

Аннотация: *Интеллект-карта — это способ схематичного представления материала, позволяющий в графической форме отразить процессы восприятия, переработки и запоминания информации. Составление таких карт делает учебный процесс более творческим и интересным. Данная технология применяется для запоминания и систематизации сведений, планирования деятельности и организации обучения.*
Ключевые слова: *критическое мышление, омонимы, самостоятельность, познавательная деятельность, интеллект-карта, творческие способности.*

Annotatsiya: *Intellekt-xarita axborotni sxematik tarzda ifodalash usuli bo‘lib, uning yordamida ma’lumotni idrok etish, qayta ishlash va eslab qolish jarayonlari grafik ko‘rinishda aks ettiriladi. Intellekt-xarita tuzish ta’lim jarayonini ijodiy va qiziqarli qiladi. Ushbu texnologiyadan ma’lumotni eslab qolish va tizimlashtirish, faoliyatni rejalashtirish hamda ta’lim jarayonida foydalanish mumkin.*
Kalit so‘zlar: *tanqidiy fikrlash, omonimlar, mustaqillik, bilish faoliyati, intellekt-xarita, ijodiy qobiliyatlar.*

Abstract: *A mind map is a schematic way of presenting information that visually reflects the processes of perception, processing, and memorization. Creating mind maps makes the learning process more creative and engaging. This technology can be used to memorize and organize information, plan activities, and support teaching and learning.*
Keywords: *critical thinking, homonyms, independence, cognitive activity, mind map, creative abilities.*

Введение

Современное образование относится к числу важнейших сфер человеческой деятельности и напрямую влияет на будущее государства.

Именно система образования во многом формирует основу социального и экономического развития страны. В Узбекистане этой сфере уделяется особое внимание. Проводимые реформы, разработка новых образовательных стандартов, внедрение новых дисциплин, учебников и учебных пособий закономерно требуют совершенствования и методики преподавания.

В предложениях, посвящённых модернизации образования на современном этапе, Президент Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёев подчёркивал необходимость «совершенствования системы образования и просвещения, приобщения нашей молодежи - будущего страны – к самым современным знаниям, воспитанием всесторонне и гармонично развитой личности. Именно просвещение и образование являются ключом к процветанию народов, ведут людей к благодеяниям, добру, терпимости. Такой подход – веление времени» [1, с 1-4].

Перед современным педагогом стоит целый ряд задач: научить студентов работать с информацией, развивать их речь и навыки работы с текстом, а также формировать умение систематизировать материал. Одним из способов решения этих задач является использование интеллект-карт в образовательном процессе.

Интеллект-карта представляет собой наглядную схему, с помощью которой процессы восприятия, обработки и запоминания информации получают графическое выражение.

Основная часть

При создании интеллект-карты рекомендуется придерживаться нескольких правил. Лист удобнее располагать горизонтально, а в его центре размещать главную идею, например тему занятия. От центральной темы разноцветными линиями выводятся основные «ветви», каждая из которых отражает отдельный аспект рассматриваемого материала и получает собственную подпись. Карту можно дополнять рисунками, условными обозначениями и стрелками, показывающими взаимосвязи между идеями [2, с 46].

Осваивать технологию ментальных карт целесообразно поэтапно. На первом этапе студенты анализируют уже готовый образец, затем составляют карту вместе с преподавателем, после чего переходят к работе в парах или небольших группах, а завершающим этапом становится самостоятельное выполнение задания. Метод интеллект-карт был предложен психологом Тони Бьюзеном. В России его изучением занимается профессор Санкт-Петербургского университета Елена Александровна Бершадская.

Тони Бьюзен отмечал: «Традиционное конспектирование ведет к неоправданным потерям времени, записыванию ненужной информации, потери времени на поиск ключевых слов».

У интеллект-карт есть несколько существенных преимуществ. Центральное расположение основной идеи помогает быстрее выделить главное, а цветовое оформление способствует более эффективному запоминанию и последующему воспроизведению материала. Благодаря структурной организации карту легко дополнять новыми сведениями. Кроме того, сам процесс её создания делает обучение более творческим и увлекательным. Формируя такие карты, то есть буквально «рисуя мысли», учащиеся демонстрируют индивидуальные особенности восприятия, переработки и представления информации [3, с 22-24].

Интеллект-карты можно создавать вручную на бумаге либо с помощью компьютерных программ, например Mind Maps и Power Point.

Метод «Интеллект-карта» применим на различных этапах и формах учебного занятия:

- при изучении нового материала;
- при закреплении изученного;
- при обобщении пройденного материала.

Применение интеллект-карт на занятиях русского языка помогает раскрывать творческий потенциал студентов, в том числе в их научно-исследовательской деятельности. Творческая организация работы делает учебный процесс более наглядным, ярким и интересным.

При изучении **омонимов** интеллект-карты позволяют активнее вовлекать студентов в освоение нового материала, облегчают запоминание и переработку полученной информации и создают условия для развития творческого мышления. Практическое использование данного метода показывает его эффективность.

- ОМОФОНЫ — слова, одинаковые по звучанию, но различающиеся написанием и значением. Карточка: «Приятно поласкать дитя или собаку, но всего необходимее полоскать рот» (К. Прутков).

- ОМОФОРМЫ — слова, совпадающие по звучанию только в отдельных грамматических формах и чаще всего относящиеся к разным частям речи. Карточка:

Вы, щенки! За мной ступайте!
Да смотрите ж, не болтайте,
Будет вам ***по калачу,***
А не то ***поколочу.*** *(А.С.Пушкин)*

- ОМОГРАФЫ — слова, одинаковые по написанию, но различающиеся произношением, прежде всего постановкой ударения. Карточка:

А что такое **Атлас?**

Его приносят в класс?

Я прочитала «**атлас**»,

Но есть ведь и атлАс.

- Подведём итоги выполненной работы.

- Запишите новые определения в тетрадь.

Задание: составить предложения.

1 группа — свет, клуб; 2 группа — дробь, ласка; 3 группа — мир, язык.

- Как определить по словарю, что перед нами омонимы?

- Значения омонимов приводятся в разных словарных статьях, поскольку эти слова имеют самостоятельные лексические значения.

- Каким образом в словаре объясняются многозначные слова?

- Значения многозначного слова обычно приводятся в одной словарной статье и нумеруются.

- Итак, определим, в чём заключаются сходство и различия омонимов и многозначных слов. Слайд.

Свет

Свет[1] - энергия, источник освещения. *Яркий свет.*

Включить свет.

Свет[2] - мир, вселенная, земной шар.

Целый свет.

Путешествовать по свету.

Мир

Мир[1] - планета Земля. *Весь мир.*

Посмотреть мир.

Мир[2] - отсутствие войны, радость, счастье.

Жить в мире.

Вывод

Применение метода интеллект-карт позволяет получить заметный результат:

А) Наглядность и экономичность. Ключевую мысль можно передать одним словом, сокращением или условным знаком.

Б) Привлекательность. Интеллект-карта должна быть яркой и красочной, чтобы её было не только полезно, но и интересно рассматривать. Тони Бьюзен рекомендовал: «Настраивайтесь на создание красивых интеллект-карт».

Ментальные карты (Mind Map) относятся к эффективным приёмам запоминания лексико-грамматического материала, поскольку изучение русского языка связано с усвоением большого количества лексических единиц и грамматических конструкций. Интеллект-карта служит инструментом, позволяющим наглядно выделять основные идеи и показывать существующие между ними связи. Одновременно эта технология способствует развитию логического и творческого мышления [4, с 54].

Работа в малых группах представляет собой форму организации учебно-познавательной деятельности, при которой студенты совместно выполняют как общие, так и специальные задания преподавателя.

Групповая форма работы развивает согласованное взаимодействие между студентами, формирует навыки сотрудничества и чувство взаимной ответственности.

Организация работы в малых группах включает следующие этапы:

• Учебную группу делят на несколько малых групп по 3–6 человек.

• Каждой группе предлагается отдельное задание; задания могут быть одинаковыми либо различаться по содержанию.

• Между участниками каждой группы распределяются роли.

• Выполнение задания строится на обмене мнениями и взаимной оценке результатов.

Основные функции преподавателя:

• объяснить цель предстоящей работы;

• распределить студентов по группам;

• выдать задания каждой группе;

• контролировать ход выполнения работы;

• после представления результатов группами подвести итоги и сформулировать выводы.

Таким образом, работа в малых группах помогает сформировать атмосферу психологического комфорта и взаимной поддержки. Для некоторых студентов такая организация занятия облегчает преодоление неуверенности и страха перед активным участием в работе.

Метод « Интеллект-карта» **Приложение -1**



Список литературы:

1. Мирзиеев Ш.М. О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования. Постановление Президента РУз №ПП-2909 от 20.04.2017 г.

2. Воробьева В.М, Будунова Л.Г. Эффективное использование метода интеллект-карта на уроках. Методическое пособие В.М.Воробьева,Л.Г, Будунова М,2013,с 46

3. Ахмедова Л.Т., Лагай Е.А. Современные технологии преподавания русского языка и литературы. – Т.: «Фан ва технология». 2016,с 22

4. Конышева А.В. Современные метолы обучения. - Минск, 2007,с 52

7. SOCIAL SCIENCES, HUMANITIES, AND LAW.

BOBURIYLAR SULOLASI MONARX-ELIYA QATLAMINING BOBURIY MALIKA AYOLLAR TA'LIMIGA BO'LGAN MUNOSABATI – ZEBUNNISO DAVRI BEGIM MISOLIDA

Abdiqahhorov Sardor Azizbek O'g'li
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Markaziy Osiyo xalqlari tarixi (MOXT-1) 3-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: DSc Odilov B., Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti; +998942023029

Annotatsiya: *Qariyb 350 yil Hindiston yarimoroli va unga tutash bo'lgan hududlarda hukm surgan Boburiylar imperiyasi jahon tarixi sahnasida yuksak o'rin egallagan. Bobur Mirzo boshlab bergan "davlat tuzish" ishlarini uning vorislari: Humoyun, Buyuk Akbar, Shoh Jahon va Avrangzeb Olamgir kabi yetakchi hukmdorlar takomillashtirishgan. Boburiylar imperiyasi "turli konfessiyali" boshqaruv hisobiga doimiy ravishda jamiyat ijtimoiy munosabatlarini takomillashtirib, doimiy progressiv etno-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarni namoyon qilib kelgan. Yagona monarx tomonidan "fuqaro" hayoti uchun, mamlakatning iqtisodiy taraqqiy qilishi uchun tizimli islohotlar va hamma uchun bir xil majburiy bo'lgan qonunlar tizimi doimiy amalda tatbiq etilgan.*

Kalit so'zlar: *kutubxona. Bedil, progressive, Zebunnisobegim, she'r, kapital, intelligent, hofiza, safar, tarjiman, misra, qonun, Avrangzeb, manba, ta'sir, qo'rg'on, qiz, raqam ,"feminizm", moziy.*

Аннотация. *В статье рассматривается отношение монарха и элиты династии Бабуридов к образованию женщин царской семьи на примере Зебуннисо-бегим. Освещаются созданные для неё образовательные условия, изучение религиозных, литературных и точных наук, формирование личной библиотеки, поддержка учёных и поэтов, а также её научное и литературное наследие. На примере Зебуннисо показано значение покровительства просвещению и женскому образованию в общественно-культурной жизни государства Бабуридов.*

Ключевые слова: *Бабуриды, Зебуннисо-бегим, женское образование, библиотека, поэзия, просвещение, Аврангзеб, научное наследие.*

Abstract. *The article examines the attitude of the Mughal monarch and elite toward the education of royal women through the example of Zeb-un-Nissa Begum. It discusses the educational conditions created for her, her study of religious, literary and exact sciences, the development of her personal library, her support for*

scholars and poets, and her scholarly and literary legacy. Zeb-un-Nissa's experience demonstrates the importance of patronage for learning and women's education in the social and cultural life of the Mughal state.

Keywords: *Mughal dynasty, Zeb-un-Nissa Begum, women's education, library, poetry, enlightenment, Aurangzeb, scholarly legacy.*

Kirish

Dunyo tarixida so‘nggi o‘rta yuzyilliklar va yangi davr yuzyilligi bosqichida mamlakatning gullab yashnashi yoxud tarix sahnasidan supurilib yuborilishi ko‘p jihatdan hukmdor va uning elitasiga bog‘liq. Monarx atrofida aslzoda, ko‘p hollarda o‘z yaqin-qarindoshlaridan iborat bo‘lgan intelligentlar qatlami davlatning holatiga sezilarli darajada ta’sir o‘tkazadi. Bunday qatlam ilm-fan taraqqiyotiga yo‘l ochadi va bu yo‘lning boshida o‘zi turadi. Ayni mana shu yuqorida aytilgan fikrlarga Avrangzeb Olamgir va uning to‘ng‘ich qizi Zebunnisobegim namunasi misol bo‘la oladi.

Asosiy qism

Zebunnisobegim - (1638-1702) Avrangzeb Olamgirning katta qizi. Shoira, ma’rifatparvar, faylasuf, xattot, filolog va pedagog. Ota tomondan Boburga, ona tomondan esa Boburning qizi Gulbadanbegimga borib taqaladi, aslzoda. Zebunniso tug‘ilgan payt otasi Dekan viloyati hokimi bo‘lgan. Yoshlik yillarida otasi va uning aka-ukalari o‘rtasida ko‘plab toj-u taxt tuchun kurashlarning bevosita guvohi bo‘ladi[26]. Avrangzeb keyinchalik, Zebunnisoning o‘ta hur fikrlashidan va a‘yonlarga ta’sir ko‘rsatishidan hadiksirab uni Salimgarhi qo‘rg‘onida uy qamog‘iga mahkum qiladi[27]. Aslida Avrangzeb katta farzandi Zebunnisoni jonidan ortiq ko‘rgan, yoshligidan unga alohida ta’lim olishi uchun shaxsiy murabbiylar yollatgan. Dastlabki savodini u Hafiza Maryam qo‘lida chiqaradi. Uch yil davomida Qur’oni Karimni yod olib 7 yoshida hofiza ‘‘martabasi’’ga erishadi. Buning sharofatiga hukmdor Zebunnisoga o‘ttiz ming, ustozi Maryamga o‘ttiz ming oltin tanga mukofot belgilaydi[28]. She’riyatga mayli bo‘lgan Zebunniso yoshligidan Dehlaviy, Bobur, Navoiy asarlarini o‘rganadi. Ularga havas qilib o‘zi she’r yozishni mashq qiladi. Avrangzeb o‘z saroyida Hofiz Sheroziy she’rlarini ta’qiqlagan ersa-da, qizi uchun Fors, Hind vodiysi va Kashmir atrofidagi shoirlarni topishni va ularning qiziga muallimlik qilishini tayinlagan[29]. Mirzo Bedil bilan ham fikrlar almashgan va keyinchalik Bedilning yagona qizini o‘z xohishiga ko‘ra o‘z tarbiyasiga olgan. Matematika, astrnomiya kabi aniq fanlarni ham qunt bilan o‘zlashtirgan

[26] Turg‘un Fayziyev. Temuriy malikalar. T.1994. 40-b
[27] Botir Yuldashev. Boburiy malikalar. T.2022. 208-b
[28] Raman, Sista Anantha. Women in India A Social and Cultural History. D.2009. 10-b
[29] Mirsa, Rekha. Women in Mughal India. Munshiram Manoharlal. D.1967. 90-b

Zebunnisoning kutubxonasi o‘z davrida eng yiriklaridan biri bo‘lgan. Kutubxonasida olimlar, shoirlar, intelligent jamiyat zukkolarini to‘plab doimiy ular bilan ilmiy majlislar tashkil qilgan. Kutubxonasida Qur’oni Karimni xattot uslubida ko‘chirgan. Zebunnisobegim hukmdor zotidan bo‘lgani uchun shaxsiy hisobida katta miqdorda kapital jamg‘arilgan. Shuning uchun har yili fuqarolarni haj safariga o‘z hisobidan yuborgan. Olim, jamiyat ziyolilariga va kutubxona hamjamiyatiga doimiy oylik maoshi to‘lab turgan[30]. Ilmiy merosiga tasavvuf falsafi, musiqa ilmi va tafsir ilmiga oid asarlar va she’riy devon majmuasi kabi asarlar kiradi. Ilohiyot ilmi va tasavvuf filosofiyasi aks etgan “Munis ul-arvoh” va “Zebr ut-tafosir” to‘liq nashr etilgan. “Maxfiy” taxallusi orqali yozilgan she’rlari taxminan 7560 misrani tashkil etadi. “Devoni Maxfiy” to‘plami 1958-yilda “Majmuai she’rho” nomi bilan Tojikistonda chop etilgan. Hindiston musulmonlari uchun asosiy manba “Fatavoyi Olamgiriy” asarini fors tiliga tarjima qildiradi[31]. Zebunnisobegimning ilmiy merosini taqiq qilish va yangi ilmiy asarlarini izlab topish ishlari davom ettirilmoqda. Afsuski, bugungi kunda Zebunnisobegim davrini to‘liq yoritib beradigan aniq manba mavjud emas. U hayotining oxirini Salimgarhi qo‘rg’onida kechiradi. Yetti kun davom etgan hastalikdan so‘ng 1702-yil (hijriy 1113-yil) bu olamni tark etadi. Qabri hozirda Dehli yaqinida joylashgan. Zebunnisobegim vafot etgach, unga atab g‘azal bitiladi. G‘azaldagi arab alifbosidagi harflarning raqami 1132. Ya’ni “Zebunniso bu hukmi qazo”. “Zeb” harflari raqami 19. 1132 dan 19 ni ayirsak 1113 hosil bo‘ladi. Milodiy yil hisobida Zebunnisobegim vafot etgan yil-1702 hosil bo‘ladi.

XULOSA

Zebunnisobegim misolida ko‘rib o‘tgan tarixiy faktlarimiz Boburiylar davlatida ilm-fanga bo‘lgan e’tibor va ayniqsa, mamlakatdagi ayollar ta’lim olishiga bo‘lgan ahamiyat qay darajada ekanligining bir belgisi sifatida namoyon bo‘ladi. Boburiy malikalar doimiy ravishda o‘z davrining yetuk ustozlaridan ta’lim-tarbiya olishganligi va bu holat institusional (tizimli) ravishda yo‘lga qo‘yilganini boshqa Boburiy malikalar hayot yo‘llaridan ham bilib olishimiz mumkin. Bugungi kunda “Feminizm” atamasi bilan bog‘liq dunyo siyosatida yer yuzida ayollar o‘z insoniy, ta’limiy huquqlarini bilishi va uni himoya qilishi kerakligi haqida uqtirilmoqda. Ta’lim olish, ilm-fanni yuksaltirish kabi vazifalarni o‘zlarining eng birinchi qilishi kerak bo‘lgan farz amali sifatida unga og‘ishmay rioya etgan moziydagi Boburiylar sulolasi nafaqat o‘tmish balki, bugungi dunyo uchun ham xolisona namuna sifatida tan olinmog‘i zarur.

[30] To‘xtasin Jalolov. O‘zbek shoiralari. T. 1970. 344-b
[31] The Diwan of Zeb-un-Nissa, by Magan Lal and Jessie Duncan Westbrook. 1913.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Turg‘un Fayziyev. Temuriy malikalar. T.1994. 40-b
2. Botir Yuldashev. Boburiy malikalar. T.2022. 208-b
3. Raman, Sista Anantha. Women in India a Social and Cultural History. D.2009
10-b.
4. Mirsa, Rekha. Women in Mughal India. Munshiram Manoharlal. D.1967.
5. To‘xtasin Jalolov. O‘zbek shoiralari. T. 1970. 344-b
6. The Diwan of Zeb-un-Nissa, by Magan Lal and Jessie Duncan Westbrook. 1913.
7. Nath, Renuka. Notable Mughal and Hindu women in the 16th and 17th centuries A.D. Dehli.1990
8. Smith, Paul. Makhfi The princess Sufi Poet Zebunnissa. Book Heaven, 2012

YOSHLARDA HUQUQIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH MASALASINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Ahmadov Azamat Baxodir o‘g‘li
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI, 2-kurs magistri
ahmadovazamat81@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada yoshlarda huquqiy qadriyatlarni shakllantirish masalasining nazariy-metodologik asoslari tahlil qilingan. “Huquqiy qadriyat”, “huquqiy ong”, “huquqiy madaniyat” va “huquqiy sotsializatsiya” tushunchalarining mazmuni hamda o‘zaro nisbati falsafiy, huquqiy, sotsiologik va psixologik yondashuvlar asosida ochib berilgan. Aksiologik, tizimli, sinergetik, kompetensiyaviy va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlarning tadqiqot predmetiga tatbiq etilish imkoniyatlari asoslangan. Huquqiy qadriyatlar shakllanishining bilish, emotsional-baholash va xulq-atvor komponentlaridan iborat uch bosqichli modeli taklif etilgan. Yangi O‘zbekiston sharoitida yoshlar huquqiy tarbiyasini takomillashtirishga doir ilmiy xulosa va amaliy takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *huquqiy qadriyat, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy sotsializatsiya, yoshlar, aksiologik yondashuv, qonun ustuvorligi, huquqiy tarbiya, huquqiy nigilizm.*

Аннотация. *В статье анализируются теоретико-методологические основы формирования правовых ценностей у молодёжи. На основе философского, юридического, социологического и психологического подходов раскрыто содержание и соотношение понятий «правовая ценность», «правовое сознание», «правовая культура» и «правовая социализация». Обоснованы возможности применения аксиологического, системного, синергетического, компетентностного и личностно-ориентированного подходов к предмету исследования. Предложена трёхэтапная модель формирования правовых ценностей, включающая когнитивный, эмоционально-оценочный и поведенческий компоненты. Разработаны научные выводы и практические предложения по совершенствованию правового воспитания молодёжи в условиях Нового Узбекистана.*

Ключевые слова: *правовая ценность, правовое сознание, правовая культура, правовая социализация, молодёжь, аксиологический подход, верховенство закона, правовое воспитание, правовой нигилизм.*

Abstract. *The article analyzes the theoretical and methodological foundations of forming legal values among youth. Drawing on philosophical, legal, sociological and psychological approaches, it clarifies the content of and relationship between the concepts of "legal value", "legal consciousness", "legal culture" and "legal socialization". The applicability of axiological, systemic, synergetic, competency-based and person-centered approaches to the research subject is substantiated. A three-stage model of legal value formation comprising cognitive, emotional-evaluative and behavioral components is proposed. Scientific conclusions and practical recommendations for improving the legal education of youth in the context of New Uzbekistan are developed.*

Keywords: *legal value, legal consciousness, legal culture, legal socialization, youth, axiological approach, rule of law, legal education, legal nihilism.*

KIRISH

Huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurilishi jarayonida yoshlar ongida huquqiy qadriyatlarni barqaror shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. 2023-yilda yangi tahrirda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni va qadr-qimmati oliy qadriyat ekani mustahkamlangan [1]. Mazkur konstitutsiyaviy qoida huquqni jamiyat a’zolari, avvalo yoshlar tomonidan ichki ishonch darajasida qabul qilinadigan qadriyat sifatida qaror toptirishni taqozo etadi.

Davlat siyosati darajasida bu vazifa bir qator me’yoriy hujjatlarda aniq ifodalangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-son Farmoni bilan jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish vazifalari belgilandi [2]. “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi va qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalashni davlat siyosatining asosiy yo‘nalishi sifatida qayd etadi [3]. 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi [4] va “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi [5] qonun ustuvorligini ta’minlash hamda aholining huquqiy madaniyatini oshirishni ustuvor maqsad sifatida belgilagan. Davlat rahbari ham huquqiy madaniyatni oshirishni jamiyat taraqqiyotining muhim sharti deb ta’kidlaydi [6].

Shu bilan birga, globallashuv, axborot oqimining keskin ortishi va virtual makonda turli mafkuraviy ta’sirlarning kuchayishi yoshlar ongida huquqiy nigilizm, huquqiy infantilizm va huquqqa formal munosabat kabi salbiy holatlarning yuzaga kelish xavfini oshirmoqda. Bu esa huquqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonini faqat huquqiy bilim berish bilan cheklamasdan, uni yaxlit nazariy-metodologik asosda tadqiq etish zaruratini keltirib chiqaradi.

Tadqiqotning maqsadi — yoshlarda huquqiy qadriyatlarni shakllantirish masalasining nazariy-metodologik asoslarini tizimli tahlil qilish va ularni shakllantirish modelini asoslash.

Tadqiqot vazifalari:

1. “Huquqiy qadriyat” tushunchasining mazmuni va uning turdosh tushunchalar bilan nisbatini aniqlash.
2. Mavzuga oid falsafiy, huquqiy, sotsiologik va psixologik yondashuvlarni qiyosiy tahlil qilish.
3. Tadqiqot predmetiga mos metodologik yondashuvlar tizimini asoslash.
4. Yoshlarda huquqiy qadriyatlarni shakllantirish modelini ishlab chiqish va amaliy takliflar berish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Huquqiy qadriyatlar muammosi ilmiy adabiyotlarda to‘rt asosiy yo‘nalishda — falsafiy, huquqiy, aksiologik-sotsiologik va psixologik yo‘nalishlarda o‘rganilgan.

Falsafiy yo‘nalish. Sharq tafakkurida adolat, qonun va fazilatli jamiyat g‘oyalari Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asarida izchil talqin etilgan bo‘lib, unda fuqarolarning axloqiy va huquqiy kamoloti adolatli jamiyatning sharti sifatida qaraladi [7]. G.V.F. Gegel huquqni erkinlikning voqelikdagi ifodasi deb talqin qilgan [8]. I.A. Ilin huquqiy ongni shaxsning huquqqa ichki, vijdoniy munosabati sifatida tavsiflab, huquqni anglash va qadrlashning ma’naviy asoslarini ochib bergan [9]. G. Radbrux huquqni adolat, maqsadga muvofiqlik va huquqiy aniqlik qadriyatlariga xizmat qiluvchi hodisa sifatida baholagan [10].

Huquqiy yo‘nalish. S.S. Alekseev huquqni insonparvarlik qadriyatlariga asoslangan, shaxs erkinligini kafolatlovchi tizim sifatida talqin qiladi [11]. N.I. Matuzov huquqiy tizim va shaxs o‘rtasidagi munosabatni tahlil qilib, shaxsning huquqiy maqomi va huquqiy faolligini huquqiy ong bilan bog‘laydi [12]. O‘zbek huquqshunosligida A.X. Saidov va U.T. Tadjixanov huquqiy ong va huquqiy madaniyatni davlat va huquq nazariyasining asosiy kategoriyalari sifatida tizimlashtirgan [13]. H.L.A. Xart esa huquqiy normalarga “ichki nuqtai nazar”dan — ularni xulq-atvor uchun asos sifatida qabul qilishdan iborat munosabatni ajratib ko‘rsatgan [14]. Bu yondashuv huquqiy qadriyat tushunchasi uchun muhim nazariy tayanch hisoblanadi.

Aksiologik-sotsiologik yo‘nalish. M. Rokich qadriyatlarni shaxs xulq-atvorini yo‘naltiruvchi barqaror e’tiqodlar sifatida ta’riflab, terminal va instrumental qadriyatlarni ajratgan [15]. Sh. Shvarts qadriyatlarning universal tuzilmasini empirik jihatdan asoslagan [16]. Ushbu tasniflar huquqiy qadriyatlarni (adolat, tenglik,

erkinlik, qonuniylik) shaxsning umumiy qadriyatlar tizimi tarkibida ko‘rish imkonini beradi.

Psixologik yo‘nalish va huquqiy sotsializatsiya nazariyasi. L. Kolberg axloqiy rivojlanishning konvensiyagacha, konvensional va konvensiyadan keyingi darajalarini asoslagan [17]. J. Tapp va F. Levin bu g‘oyani huquq sohasiga tatbiq etib, “huquqiy sotsializatsiya” konsepsiyasini ishlab chiqqan [18]. T. Tayler odamlarning qonunga bo‘ysunishi jazodan qo‘rqishdan ko‘ra ko‘proq huquqiy institutlarning legitimligi va adolatli jarayonga ishonchga bog‘liq ekanini ko‘rsatgan [19]. Keyingi tadqiqotlarda bolalar va o‘smirlarda huquqiy sotsializatsiya [20], uning ijtimoiy tabiati [21] hamda bolalikdan boshlab legitimlik tuyg‘usining shakllanishi [22] chuqur o‘rganilgan.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, mavjud tadqiqotlarda huquqiy qadriyatlar ko‘pincha yoki falsafiy-nazariy, yoki psixologik-empirik jihatdan alohida o‘rganilgan. Yoshlar huquqiy qadriyatlarini shakllantirishni yaxlit metodologik asosda, milliy huquqiy tizim va ma’naviy meros bilan uyg‘unlikda tadqiq etish ilmiy jihatdan yetarli darajada hal etilmagan masala bo‘lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda umumilmiy va xususiy-ilmiy metodlar uyg‘unligidan foydalanildi. Tarixiy-mantiqiy metod huquqiy qadriyatlar haqidagi qarashlar evolyutsiyasini, qiyosiy-huquqiy metod milliy va xorijiy yondashuvlarni solishtirishni, tizimli-strukturaviy tahlil esa huquqiy qadriyatlar tarkibi va ularning o‘zaro bog‘liqligini aniqlashni ta’minladi. Shuningdek, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, abstraksiyalash hamda me’yoriy-huquqiy hujjatlarni kontent-tahlil qilish metodlari qo‘llanildi.

Tadqiqotning metodologik asosini quyidagi yondashuvlar tashkil etadi (1-jadval).

1-jadval

Tadqiqotning metodologik yondashuvlari

Yondashuv	Mazmuni	Tadqiqotdagi o‘rni
Aksiologik	Huquqni qadriyat sifatida baholash	Huquqiy qadriyatlar ierarxiyasini aniqlash
Tizimli	Hodisani o‘zaro bog‘liq elementlar yaxlitligi sifatida o‘rganish	Oila, ta’lim, OAV, mahalla va davlat institutlari ta’sirini yaxlit ko‘rish
Sinergetik	Ochiq tizimlarning o‘z-o‘zini tashkil etishini tahlil qilish	Axborot makonidagi noaniq va ko‘p omilli ta’sirlarni hisobga olish
Kompetensiyaviy	Bilim, ko‘nikma va amaliy tayyorgarlik birligi	Huquqiy bilimni amaliy huquqiy faollikka aylantirish

Yondashuv	Mazmuni	Tadqiqotdagi o‘rni
Shaxsga yo‘naltirilgan	Shaxsning individual xususiyatlari va ehtiyojlarini inobatga olish	Yosh davrlari va ijtimoiy guruhlar bo‘yicha tabaqalashtirish
Huquqiy sotsializatsiya	Huquqiy me’yorlarning shaxs tomonidan o‘zlashtirilish jarayoni	Huquqiy qadriyatlar shakllanish bosqichlarini asoslash

Mazkur yondashuvlar bir-birini to‘ldiradi: aksiologik yondashuv tadqiqotning qadriyatiy mazmunini, tizimli va sinergetik yondashuvlar uning tashkiliy-ijtimoiy muhitini, kompetensiyaviy va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar esa amaliy-pedagogik jihatini belgilaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1. “Huquqiy qadriyat” tushunchasining mazmuni. Adabiyotlar tahlili asosida muallif tomonidan quyidagi ishchi ta’rif taklif etiladi: *huquqiy qadriyat — shaxs va jamiyat tomonidan ahamiyatli deb e’tirof etilgan, huquq orqali ifodalanadigan va kafolatlanadigan, kishilarning huquqiy xulq-atvorini ichki ishonch darajasida yo‘naltiruvchi ideallar, tamoyillar va ne’matlar majmui.* Bu ta’rif huquqiy qadriyatni huquqiy bilimdan farqlaydi: bilim “nima qonuniy” degan savolga, qadriyat esa “nima uchun qonunga amal qilish kerak” degan savolga javob beradi.

Huquqiy qadriyatlarni uch guruhga ajratish maqsadga muvofiq:

– **umuminsoniy huquqiy qadriyatlar** — inson qadr-qimmati, erkinlik, tenglik, adolat;

– **institutsional huquqiy qadriyatlar** — qonun ustuvorligi, odil sudlov, huquqiy aniqlik, hokimiyatlar bo‘linishi;

– **shaxsiy-xulqiy huquqiy qadriyatlar** — qonunga hurmat, huquqiy mas’uliyat, o‘zgalar huquqini hurmat qilish, huquqiy faollik.

2. Turdosh tushunchalar nisbati. Huquqiy ong — huquqiy hodisalarga munosabatni ifodalovchi g‘oya, qarash va his-tuyg‘ular majmui; huquqiy qadriyatlar uning yadrosini tashkil etadi. Huquqiy madaniyat esa huquqiy ong va huquqiy xulq-atvorning amaldagi birligi bo‘lib, qadriyatlarning hayotda namoyon bo‘lish darajasini ko‘rsatadi. Huquqiy sotsializatsiya bu qadriyatlarning shaxs tomonidan o‘zlashtirilish jarayonini anglatadi. Demak, huquqiy qadriyat — huquqiy ongning mazmuni, huquqiy sotsializatsiyaning natijasi va huquqiy madaniyatning asosi.

3. Huquqiy qadriyatlarni shakllantirish modeli. Tadqiqot natijasida huquqiy qadriyatlar shakllanishining uch bosqichli modeli asoslandi (2-jadval).

2-jadval

Yoshlarda huquqiy qadriyatlarni shakllantirishning uch bosqichli modeli

Bosqich	Komponent	Mazmuni	Natija ko‘rsatkichi
1. Bilish	Kognitiv	Huquqiy me’yorlar, huquq va burchlar, ularning ijtimoiy mazmunini bilish	Huquqiy savodxonlik
2. Baholash	Emotsional-baholash	Huquqiy me’yorlarni adolatli va zarur deb ichdan qabul qilish, institutlarga ishonch	Huquqqa ijobiy munosabat, legitimlik tuyg‘usi
3. Amal qilish	Xulq-atvor	Qonunga ixtiyoriy rioya qilish, huquqlarni himoya qilish, huquqiy faollik	Barqaror qonunga itoatkor va faol huquqiy xulq

Modelning asosiy xulosasi shundaki, birinchi bosqichda to‘xtab qolgan huquqiy ta’lim faqat formal bilim beradi. Bilim qadriyatga aylanishi uchun ikkinchi — baholash bosqichi hal qiluvchi ahamiyatga ega. T. Tayler tadqiqotlari ham qonunga ixtiyoriy rioya qilish adolatli jarayon va institutlar legitimligiga ishonch bilan bog‘liqligini tasdiqlaydi [19; 22].

4. Shakllantirish omillari. Yoshlarda huquqiy qadriyatlar shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar ikki guruhga bo‘linadi. *Ichki omillar* — shaxsning yosh xususiyatlari, axloqiy rivojlanish darajasi [17], qadriyatlar tizimi va ijtimoiy tajribasi. *Tashqi omillar* — oila, ta’lim muassasalari, mahalla, ommaviy axborot vositalari, raqamli muhit hamda davlat organlarining faoliyatidagi adolat va shaffoflik. Ayniqsa, davlat organlari amaliyotining adolatliligi yoshlar uchun huquqiy qadriyatlarning eng ta’sirchan “amaliy darsi” hisoblanadi.

5. Salbiy holatlar. Huquqiy qadriyatlar shakllanishiga to‘sqinlik qiluvchi asosiy holatlar sifatida huquqiy nigilizm (huquqni inkor etish), huquqiy infantilizm (huquqiy bilimlarning yuzakiligi) va huquqiy idealizm (huquq imkoniyatlarini haddan tashqari oshirib baholash) ajratildi. Ularni bartaraf etish faqat bilim berish emas, balki yoshlarning huquqiy tajribasini boyitish orqali mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Huquqiy qadriyat huquqiy ongning yadrosi, huquqiy sotsializatsiyaning natijasi va huquqiy madaniyatning asosi bo‘lib, u huquqiy bilimdan ichki ishonch va ixtiyoriy amal qilish darajasi bilan farqlanadi.

2. Yoshlarda huquqiy qadriyatlarni shakllantirish masalasini aksiologik, tizimli, sinergetik, kompetensiyaviy va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar hamda huquqiy sotsializatsiya nazariyasi uyg‘unligida tadqiq etish ilmiy jihatdan samarali.

3. Huquqiy qadriyatlar bilish, baholash va amal qilish bosqichlaridan o‘tib shakllanadi; bunda emotsional-baholash bosqichi bilimni qadriyatga aylantiruvchi hal qiluvchi bo‘g‘in hisoblanadi.

4. Huquqiy institutlar faoliyatining adolatliligi va shaffofligi yoshlar huquqiy qadriyatlariga ta’lim jarayoni bilan teng darajada ta’sir ko‘rsatadi.

Amaliy takliflar:

–ta’lim muassasalarida huquqiy fanlarni o‘qitishda faqat bilim berishga emas, balki keys-stadi, imitatsion sud jarayonlari (moot court), munozara va loyiha usullari orqali baholash va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga e’tibor qaratish;

–yoshlarning huquqiy qadriyatlari darajasini bilish, baholash va xulq-atvor ko‘rsatkichlari bo‘yicha muntazam sotsiologik monitoring qilish metodikasini ishlab chiqish;

–raqamli makonda huquqiy nigilizmga qarshi yoshlar tilida tayyorlangan huquqiy-ma’rifiy kontent yaratishni kengaytirish;

–mahalla, oila va ta’lim muassasalari hamkorligida yoshlarning huquqiy tajribasini boyituvchi ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish;

–huquqiy tarbiya mazmuniga milliy ma’naviy merosdagi adolat va qonunga hurmat g‘oyalarini tizimli kiritish.

–

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – 80 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamiyatda huquqiy ongni va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5618-son Farmoni. 09.01.2019 // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz

3. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi O‘RQ-406-son Qonuni. 14.09.2016 // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. 28.01.2022 // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “«O‘zbekiston – 2030» strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni. 11.09.2023 // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz

6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.

7. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – 224 b.
8. Гегель Г.В.Ф. Философия права. – М.: Мысль, 1990. – 524 с.
9. Ильин И.А. О сущности правосознания. – М.: Рарогъ, 1993. – 235 с.
10. Радбрух Г. Философия права. – М.: Международные отношения, 2004. – 240 с.
11. Алексеев С.С. Восхождение к праву. Поиски и решения. – М.: Норма, 2001. – 752 с.
12. Матузов Н.И. Правовая система и личность. – Саратов: Изд-во Саратовского университета, 1987. – 294 с.
13. Saidov A.X., Tadjixanov U.T. Davlat va huquq nazariyasi. – Toshkent: Adolat, 2001.
14. Hart H.L.A. The Concept of Law. – Oxford: Clarendon Press, 1961. – 263 p.
15. Rokeach M. The Nature of Human Values. – New York: Free Press, 1973. – 438 p.
16. Schwartz S.H. Universals in the content and structure of values: Theoretical advances and empirical tests in 20 countries // Advances in Experimental Social Psychology. – 1992. – Vol. 25. – P. 1–65.
17. Kohlberg L. The Philosophy of Moral Development: Moral Stages and the Idea of Justice. – San Francisco: Harper & Row, 1981. – 441 p.
18. Tapp J.L., Levine F.J. Legal socialization: Strategies for an ethical legality // Stanford Law Review. – 1974. – Vol. 27, No. 1. – P. 1–72.
19. Tyler T.R. Why People Obey the Law. – New Haven: Yale University Press, 1990. – 273 p.
20. Fagan J., Tyler T.R. Legal socialization of children and adolescents // Social Justice Research. – 2005. – Vol. 18, No. 3. – P. 217–241.
21. Trinkner R., Cohn E.S. Putting the “social” back in legal socialization: Procedural justice, legitimacy, and cynicism in legal and nonlegal authorities // Law and Human Behavior. – 2014. – Vol. 38, No. 6. – P. 602–617.
22. Tyler T.R., Trinkner R. Why Children Follow Rules: Legal Socialization and the Development of Legitimacy. – New York: Oxford University Press, 2017. – 368 p.

HUQUQ VA MAJBURIYATLAR MUVOZANATINING BUZILISHI: MUSTAQIL TA'LIM MISOLIDA

Bekchanov Yashnarbek Jumanazar o‘g‘li
Urganch State University named after Abu Rayhan Beruniy Lecturer, Department of Law, Faculty of History and Law
bekchanovyashnarbek@gmail.com | https://orcid.org/0009-0004-6276-5081; https://scholar.google.com/citations?hl=en&user=npo__IYAAAAJ; Tel: 97-195-01-10

Annotatsiya. *Tezisda an'anaviy ta'lim modelida talaba, professor-o'qituvchi va oliy ta'lim muassasasi o'rtasida huquq va majburiyatlar muvozanatining buzilishi mustaqil ta'lim misolida tahlil qilinadi. Talaba yordam talab qilish huquqisiz majburiyat tashuvchisi, o'qituvchi va muassasa esa sifat uchun majburiyatsiz vakolat egasi bo'lgani ko'rsatilib, muvozanatni baholashning uch mezoni va asimmetriyaning qoldiq ko'rinishlari aniqlanadi.*

Kalit so'zlar: *huquq va majburiyatlar muvozanati, huquqiy asimmetriya, talaba, professor-o'qituvchi, oliy ta'lim muassasasi, mustaqil ta'lim, himoya vositasi, paradigma almashuvi.*

Аннотация. *В тезисах на примере самостоятельного обучения анализируется нарушение баланса прав и обязанностей между студентом, преподавателем и высшим учебным заведением в традиционной модели образования. Показано, что студент был носителем обязанности без права требовать помощи, а преподаватель и вуз обладали полномочием без обязанности за качество; выделяются три критерия оценки баланса и остаточные проявления асимметрии.*

Ключевые слова: *баланс прав и обязанностей, правовая асимметрия, студент, профессорско-преподавательский состав, высшее учебное заведение, самостоятельное обучение, средство защиты, смена парадигмы.*

Abstract. *Taking self-directed learning as its example, the thesis analyses the disruption of the balance between rights and obligations among the student, the faculty member and the higher education institution in the traditional model of education. It shows that the student carried an obligation without a right to demand support, while the teacher and the institution held authority without an obligation as to quality, and it identifies three criteria for assessing the balance and the residual forms of the asymmetry.*

Keywords: *balance of rights and obligations, legal asymmetry, student, faculty member, higher education institution, self-directed learning, remedy, paradigm shift.*

Introduction. In any legal relationship the rights and the obligations of the parties are expected to be linked: the obligation of one side answers to the right of the other. In the traditional model of the educational process, independent work shows this balance being broken with particular clarity. The student was charged with the duty to complete the assignment, yet the entitlement to require the conditions needed to fulfil that duty was never clearly set out.

The aim of the thesis is to identify the make-up of the historical asymmetry between the parties and to show its effect on the quality of self-directed learning. The objectives are to analyse the legal position of the student, to analyse the position of the teacher and the institution, and to single out the modern instruments directed at removing the asymmetry.

Main part. The position of the student. Within the old model the student bore an actual (de facto) obligation to carry out assignments. There was, however, no right to demand the resources and methodological help necessary for doing so. Consultation hours were not included in the teacher's workload, and the material base was limited. As a result the student remained a passive performer rather than an active subject of the educational process, and no systematic conditions were created for forming the skill of learning independently [1, p. 6].

The position of the teacher and the institution. Faculty members and the institution had the authority to assign independent work. Yet neither a legal obligation nor an economic incentive existed to organise it well. Because the teacher's workload and the institution's rating rested solely on lecture-room hours, supervising independent work became an activity without interest and without obligation [2, p. 85]. In other words, there was authority, but no matching responsibility was set.

The form the asymmetry took. The parties thus stood in two opposite positions. The student was the side "with obligation but without right", and the teacher and the institution were the side "with authority but without obligation". Such a structure contradicts a general rule of legal theory: right and obligation must correspond. The distinctive feature of the problem is that the asymmetry was not openly fixed in any document; it arose through silence, that is, through the fact that documents said nothing.

Effect on quality. Under this imbalance the quality of independent work hung on a teacher's personal initiative rather than on any structural safeguard. An active

teacher could create the conditions, but doing so was his private choice and not his duty. In such a system a student who moved to another teacher or another subject could lose the opportunities he had enjoyed.

Modern instruments. The credit-module regulation introduced after 2020 contains a number of instruments aimed at reducing this asymmetry. First, it provides that students are given consultation and explanations [3, cl. 8]. Second, teachers must ensure consistency among learning outcomes, teaching and assessment [3, cl. 10]. Third, the institution must publish its catalogue of educational programmes on its website before the academic year begins, so that the student can learn the conditions of study in advance [3, cl. 9]. Fourth, the student forms a personal learning trajectory with the help of a group mentor, which strengthens his active role in choosing his own learning activity [3].

Assessment. These instruments widen the student's opportunity to obtain information and consultation and to shape his own trajectory, and thereby reduce the "passive performer" position. At the same time, the documents analysed show no norms that guarantee the performance of these instruments or fix a separate consequence for their violation. It is therefore more accurate to speak of a partial reduction of the asymmetry than of its complete removal.

The principle of correspondence between right and obligation. In legal theory a right corresponds to an obligation: one person's entitlement to demand equals another's duty to perform. For a student to have a "right to demand help", somebody must be bound to give it. In the traditional model no such obligation was laid on the teacher or the institution, and for that reason the student had no matching right. It is more exact to describe this situation not as mere "neglect" but as a disruption of the balance between right and obligation: there is a duty on one side, and the other side of it, the corresponding duty of another person, is missing.

The institution's resource obligation. Another dimension of the asymmetry concerns resources. Independent study requires a library, information sources, laboratories or study rooms. In the traditional model the provision of these conditions was treated as the institution's voluntary activity, and the student's entitlement to use them was not separately secured. The student was bound to complete the task, but his right to use the resources necessary for it was unclear. Giving the resource obligation legal expression is an important condition for reducing the asymmetry at later stages.

The control aspect. The asymmetry also appears in the control mechanisms. The result of a student's independent work is checked and graded, whereas the quality with which the teacher organised it and the institution's creation of conditions were not indicators subject to regular control. When one party is an object of control

and the others remain outside it, the balance of obligations is not maintained in practice either. In assessing modern regulation, attention must therefore be paid not only to the list of rights and obligations but also to the mechanism for supervising their performance.

Questions for further research. To test whether the historical asymmetry has diminished, several questions need an answer. To which body can a student turn if his right to obtain help is violated? In what document, and with what precision, is the teacher's duty to consult fixed? What consequence is provided if the institution fails to supply resources? The answers will show the actual level of the balance, not only its level on paper.

The origin of the asymmetry. The root of the imbalance lay in the view of education itself. In the centralised model the student was regarded as an object of educational influence: a fixed amount of knowledge was to be given to him and assignments were to be completed by him. An obligation can be laid on an object, but giving it rights is not logical. Once the student is recognised as a subject of the educational process, a need arises to define his rights, including the right to help and to use resources. In this sense legal asymmetry is also the legal reflection of a change of paradigm in education.

Criteria for testing the balance. Three criteria are proposed for assessing the balance between the parties: the existence of the right; the definition of the corresponding obligation; and the existence of a remedy when the right is violated. If any one of the three is missing, the balance is judged incomplete. In the first period a shortfall was observed on all three, whereas in the present regulations the first two are partly met and the third requires separate analysis.

Three pairs of relations. The analysis cannot be confined to the tie between student and teacher. Three pairs can be distinguished: student and teacher, student and institution, teacher and institution. In the first pair the student performs the task, and the teacher assigns and assesses it. In the second the student is included in the institution's educational process, but the way of demanding that it create conditions is unclear. In the third the teacher is in an employment relationship with the institution, but his workload does not clearly show hours for managing independent work. In all three pairs one party holds authority and the corresponding obligation of the other is vague.

Residual forms. Modern regulation has not removed the asymmetry altogether. The credit-module regulation does not apply to all higher education institutions: its first clause leaves aside institutions within some ministries, military institutions, non-state institutions and foreign ones [3, cl. 1]. For these categories the student's access to the guarantees above depends on other documents or on the

institution's own rules. Under the 2026 Regulation on Higher Education the student may use libraries and information sources without charge and may challenge leadership decisions [4]. This shows that two elements missing in the first period, access to resources and a remedy, have to some extent been supplied.

Conclusion. First, under the traditional model the student was bound but not entitled, whereas the teacher and the institution were empowered but not bound. Second, this imbalance deprived the quality of independent work of a systemic guarantee and tied it to personal initiative. Third, the credit-module regulation reduced the asymmetry through instruments of information openness, consultation and personal trajectory, but the question of consequences for failing to perform these instruments requires separate study.

References

1. Zaripov L. et al. Talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish: Metodik qo'llanma [Organising students' self-directed learning: A methodological manual]. – Toshkent: Sano-Standart, 2023. – P. 6.

2. Jumaniyazova N.S. Modern Reforms in Enhancing Higher Education Quality: Philosophical Foundations and Legal Frameworks // International Journal of Scientific Trends (IJST). – 2024. – Vol. 4, No. 5. – P. 85.

3. Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 824 of 31 December 2020 "On measures to improve the system related to the organisation of the educational process in higher education institutions" (Annex 1: Regulation on the procedure for introducing the credit-module system) [in Uzbek].

4. Regulation on Higher Education approved by order of the Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan (registered with the Ministry of Justice on 3 April 2026 under No. 3807).

AGRAR SOHADA SHARTNOMAVIY MUNOSABATLAR SUB'YEKTLARI SIFATIDA QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING HUQUQIY MAQOMI MASALALARI

Bekniyazov A.J.
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Maqolada agrar sohada shartnomaviy munosabatlarning ishtirokchilari - fermer xo'jaliklari, dehqon xo'jaliklari, qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkat xo'jaliklari) va agroklasterlarning huquqiy maqomi tahlil qilinadi. Ularning fuqarolik-huquqiy sub'yektligi, shartnoma tuzishdagi huquq va muomala layoqatining o'ziga xos jihatlari, shuningdek kontraktatsiya va fyuchers shartnomalari amaliyotida yuzaga kelayotgan muammolar yoritiladi. Muallif qonunchilikdagi bo'shliqlarni bartaraf etish va taraflarning tengligi tamoyilini ta'minlashga qaratilgan takliflar beradi.

Kalit so'zlar: *agrar huquq, qishloq xo'jaligi korxonasi, fermer xo'jaligi, dehqon xo'jaligi, kooperativ, agroklaster, kontraktatsiya, fyuchers shartnomasi, huquqiy maqom.*

Аннотация. *В статье анализируется правовой статус фермерских и дехканских хозяйств, сельскохозяйственных кооперативов и агрокластеров как участников договорных отношений в аграрной сфере. Рассматриваются особенности их гражданской правосубъектности, право- и дееспособности при заключении договоров, а также проблемы практики контрактации и фьючерсных договоров. Предлагаются меры по устранению пробелов в законодательстве и обеспечению равенства сторон.*

Ключевые слова: *аграрное право, сельскохозяйственное предприятие, фермерское хозяйство, дехканское хозяйство, кооператив, агрокластер, контрактация, фьючерсный договор, правовой статус.*

Abstract. *The article examines the legal status of farms, dehkan farms, agricultural cooperatives and agroclusters as parties to contractual relations in agriculture. It discusses their civil legal personality and capacity to conclude contracts, as well as problems arising in contract farming and futures agreements. The author proposes measures to address legislative gaps and ensure equality between the parties.*

Keywords: *agrarian law, agricultural enterprise, farm, dehkan farm, cooperative, agrocluster, contract farming, futures contract, legal status.*

Kirish

Qishloq xo‘jaligi - iqtisodiyotning strategik tarmog‘i bo‘lib, uning samaradorligi ko‘p jihatdan yetishtiruvchilar, tayyorlov va qayta ishlash korxonalari o‘rtasidagi shartnomaviy munosabatlarning barqarorligiga bog‘liq. O‘zbekistonda 2017 yil 9 oktyabrdagi PF-5199-son Farmonda ta’kidlanganidek, qabul qilingan «Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida»gi va «Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida»gi qonunlar fermer va dehqon xo‘jaliklarining huquqiy maqomini belgilab, ularning qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi asosiy sub’yektlar sifatida shakllanishini ta’minladi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 99 foizdan ortig‘i aynan shu xo‘jaliklar va tomorqa yerlarida yetishtirilmoqda [6].

Amalda esa yetishtiruvchilar va klasterlar o‘rtasidagi munosabatlarda nizolar tez-tez yuzaga kelmoqda. Buning sabablaridan biri - agroklasterlarning mustaqil huquqiy shakl sifatida aniq belgilanmaganligi va shartnoma taraflarining iqtisodiy jihatdan teng emasligidir. Maqolaning maqsadi - agrar shartnomaviy munosabatlar sub’yektlarining huquqiy maqomini qiyosiy-tahliliy o‘rganish va uni takomillashtirish yo‘llarini aniqlashdir.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda formal-yuridik, qiyosiy-huquqiy, tizimli tahlil usullaridan, shuningdek normativ-huquqiy hujjatlar va rasmiy manbalarni o‘rganishdan foydalanildi.

Shartnoma va tadbirkorlik sub’yektlarining fuqarolik-huquqiy tartibga solinishi masalalari milliy sivilist olimlar - I.B. Zokirov, H.R. Raxmonqulov, Sh.N. Ro‘zinazarov, N.S. Narmatov asarlarida o‘rganilgan [10-14]. Bu umumnazariy yondashuvlarni agrar shartnomaviy munosabatlarga tatbiq etishda qishloq xo‘jaligining o‘ziga xos jihatlari hisobga olinadi.

1. Qishloq xo‘jaligi korxonalarining huquqiy maqomini belgilovchi asoslar

Agrar shartnomaviy munosabatlar Fuqarolik kodeksi, xo‘jalik yurituvchi sub’yektlarning shartnoma-huquqiy bazasi to‘g‘risidagi qonun hujjatlari hamda soha qonunlari bilan tartibga solinadi [2, 4, 5, 10]. Xo‘jalik shartnomalarini tuzish, bajarish, o‘zgartirish va bekor qilishdan kelib chiqadigan munosabatlar Fuqarolik kodeksi va tegishli xo‘jalik shartnomalari to‘g‘risidagi qonun bilan tartibga solinishi belgilangan [4].

Qishloq xo‘jaligida xo‘jalik yuritish shakllarini quyidagicha tasnif etish mumkin:

• **fermer xo‘jaligi** - tovar qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchi, mustaqil xo‘jalik yurituvchi sub’yekt sifatida yuridik shaxs huquqlariga ega xo‘jalik [1, 8];

• **dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaligi** - oilaviy mayda tovar xo‘jaligi bo‘lib, u alohida «Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida»gi qonun bilan tartibga solinadi va yuridik shaxs hisoblanmaydi [3];

• **qishloq xo‘jaligi kooperativi (shirkat xo‘jaligi)** - a’zolarning ixtiyoriy birlashuvi asosidagi yuridik shaxs; fermer xo‘jaligi ixtiyoriy ravishda tashkil etilganda ham uning boshlig‘i shirkat xo‘jaligi boshqaruviga murojaat qilishi nazarda tutilgan [1];

• **agroklaster** - qishloq xo‘jaligi xomashyosini yetishtirishdan tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo‘lgan zanjirni birlashtiruvchi tadbirkorlik tuzilmasi.

Ushbu sub’yektlarning huquqiy maqomi bir xil emas: fermer xo‘jaligi o‘z nomidan shartnoma tuzib, huquq va majburiyatlarga ega bo‘la oladi, dehqon xo‘jaligida esa shartnomaviy munosabatlarda xo‘jalik a’zolari yoki uning yurituvchisi ishtirok etadi. Bu holat taraflarning javobgarlik doirasi, mulkiy ta’minot va nizolarni hal etish tartibiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Shartnoma erkinligi Fuqarolik kodeksining asosiy tamoyillaridan biri bo‘lib, fuqarolar va yuridik shaxslarning shartnoma tuzishdagi erkinligi kodeksda (354-modda) mustahkamlangan [2]. Shu sababli agrar shartnomaviy munosabatlarda ham taraflarning ixtiyoriyligi va tengligi umumiy qoida hisoblanadi, unga cheklovlar esa faqat qonun bilan belgilanishi mumkin. Fermer xo‘jaligi mustaqil xo‘jalik yurituvchi sub’yekt sifatida o‘z ishlab chiqarish yo‘nalishini, shartnoma tarafini va shartlarini belgilash huquqiga ega [1]. Biroq amalda bu huquq yer ijarasi, moliyalashtirish va klaster bilan ishlab chiqarish zanjiriga bog‘liqlik kabi omillar ta’sirida cheklanishi mumkin.

2. Fermer xo‘jaligining shartnoma sub’yekti sifatidagi maqomi

Fermer xo‘jaligi to‘g‘risidagi qonunga ko‘ra, xo‘jalik a’zolari ixtiyoriy ravishda birlashadi, mehnat shartnomasi asosida ishlovchi shaxslar esa xo‘jalik a’zosi hisoblanmaydi [1]. Bu fermer xo‘jaligining ichki tuzilishi (a’zolik) bilan tashqi shartnomaviy faoliyatini (yollanma mehnat, yetkazib berish, ijara, kontraktatsiya) ajratish zaruratini ko‘rsatadi.

Fermer xo‘jaligining shartnomaviy maqomining o‘ziga xos jihatlari:

1. **Yer bilan bog‘liq cheklovlar.** Yer uchastkalari fermer xo‘jaligiga mulk emas, uzoq muddatli ijara asosida beriladi. Shu sababli yer ijarasi shartnomasining bekor qilinishi boshqa barcha shartnomalarning bajarilishiga ta’sir etadi, bu esa huquqiy barqarorlikka putur yetkazadi.

2. **Mahsulot yetkazib berish majburiyatlari.** Fermer xo‘jaliklari hosilni tayyorlovchi tashkilotlarga kontraktatsiya shartnomasi asosida topshiradi. Kontraktatsiya Fuqarolik kodeksida oldi-sotdi shartnomasining alohida turi sifatida tasnif qilinadi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar bilan tayyorlov

tashkilotlari o‘rtasidagi shartnomalarni tuzish, ro‘yxatdan o‘tkazish, bajarish va monitoring qilish tartibi alohida Nizom bilan belgilangan [7].

3. **Birlashish huquqi.** Fermer xo‘jaliklari ixtiyoriy ravishda birlashishlari mumkin; bu huquqning amalda buzilishi holatlari matbuotda va mutaxassislar tomonidan qayd etilgan [8].

Kontraktatsiya va fyuchers shartnomalarining huquqiy tabiati

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar bilan tayyorlov tashkilotlari o‘rtasidagi kontraktatsiya shartnomalari qonunchilik klassifikatorida bir vaqtning o‘zida fuqarolik qonunchiligidagi oldi-sotdi shartnomalari turi va qishloq xo‘jaligidagi shartnomalar sifatida qayd etilgan [7]. Bu fermer xo‘jaligining shartnomasiga Fuqarolik kodeksining oldi-sotdi va majburiyatlar umumiy qoidalari bilan birga maxsus normalar ham qo‘llanilishini anglatadi [2, 4].

Nizom shartnomalarni tuzish, ro‘yxatdan o‘tkazish, bajarish hamda ularning bajarilishini monitoring qilish tartibini belgilaydi [7]. Monitoring ikkala tarafning huquqiy kafolatlarini ta’minlashga xizmat qilishi, lekin taraflarning iroda erkinligini cheklamasligi lozim.

Paxta-to‘qimachilik klasterlari va fermer xo‘jaliklari o‘rtasida kelgusi yil hosili uchun fyuchers shartnomalari har yili 1 oktyabrga qadar tuzilishi Prezident qarorida belgilangan [8]. Fyuchers shartnomasi hosil yetishtirilgunga qadar narx va hajm bo‘yicha kelishuvni ifodalaydi, shu sababli narx o‘zgarishi, hosildorlik pasayishi va fors-major xavflarini taraflar o‘rtasida taqsimlash shartnomaning muhim shartlaridan biri bo‘ladi.

2023 yil noyabrda fermerlarga bir viloyat ichidagi istalgan klaster bilan fyuchers shartnomasi tuzish va ortib qolgan hosilni birja orqali sotish imkoniyati berilishi belgilandi [8]. Bu taraflarni tanlash erkinligini kengaytirgan bo‘lsa-da, matbuotda fermer xo‘jaliklari va kooperativ o‘rtasida qonuniy tuzilgan shartnoma mavjud bo‘lgan holda uchinchi taraf - klasterning shartnomaga aralashuvi haqidagi muammolar ko‘tarilgan [8]. Fuqarolik qonunchiligida shartnoma uning taraflari uchun majburiy ekanligi qoidasiga ko‘ra, bunday aralashuv huquqiy asosga ega bo‘lishi uchun aniq qonuniy tartib belgilanishi talab etiladi.

Nizolarni hal etishda xo‘jalik shartnomalari to‘g‘risidagi qonun hujjatlari va Fuqarolik kodeksi qoidalari qo‘llaniladi [2, 4]. Shartnomada nizolarni hal etish tartibi, hisob-kitob muddatlari va kechiktirganlik uchun javobgarlik aniq belgilanmasa, iqtisodiy jihatdan zaif taraf sifatida ko‘pincha fermer xo‘jaligi zarar ko‘radi. Prezident tomonidan klaster va fermerlar o‘rtasida hisob-kitob intizomi buzilgan hollar qayd etilgani ham shu muammoning dolzarbligini ko‘rsatadi [8].

3. Klasterlar va kooperativlar: maqom va shartnomaviy muvozanat muammosi

Klaster tizimi joriy etilgach, fermer xo‘jaliklari bilan klasterlar o‘rtasidagi munosabatlar asosan shartnomalar orqali shakllandi. Qishloq xo‘jaligi vaziri 2020 yilda klaster va fermerlar o‘rtasidagi shartnoma tartibi alohida normativ hujjat bilan belgilanganini ma’lum qilgan bo‘lsa-da, jurnalistlar klasterlarning huquqiy maqomi hamon aniq belgilanmaganini va bu nizolarga sabab bo‘layotganini qayd etgan edi [8].

Amaldagi muammolarni quyidagicha guruhlash mumkin:

• **Maqomning nomuayyanligi.** «Klaster» tushunchasi mustaqil tashkiliy-huquqiy shakl sifatida emas, asosan xo‘jalik amaliyoti tushunchasi sifatida qo‘llaniladi. Qishloq xo‘jaligidagi kooperatsiya munosabatlarini yagona qonunda birlashtirish va qonun hujjatlaridagi ziddiyat va bo‘shliqlarni bartaraf etish bo‘yicha qonun loyihasi zarurligi ta’kidlanmoqda [8].

• **Taraflar tengligi tamoyilining buzilishi.** Fyuchers shartnomalari har yili 1 oktyabrga qadar tuzilishi belgilangan bo‘lsa, amalda fermerning shartnoma tuzish erkinligi ma’muriy ta’sir, hududiy «biriktirish» amaliyoti bilan cheklangan holatlar qayd etilgan [8]. 2023 yilda esa fermerlarga bir viloyat ichidagi istalgan klaster bilan fyuchers shartnomasi tuzish imkoni beriladigan bo‘ldi, bu tendeklik va tanlov erkinligi tomon ijobiy qadamdir [8].

• **Hisob-kitob intizomi.** Prezident yig‘ilishida ayrim klaster va fermerlar o‘rtasida hisob-kitob intizomi buzilgani qayd etilgan, bu moliyalashtirishning yangi tartibini joriy etish zarurligini ko‘rsatadi [8].

• **Uchinchi shaxslarning aralashuvi.** Kooperativ va fermer o‘rtasida qonuniy tuzilgan shartnomaga klasterning aralashuvi mutaxassislar tomonidan fuqarolik qonunchiligidagi shartnoma nisbiy xususiyati (shartnoma faqat taraflar uchun majburiy) tamoyiliga zid deb baholangan [8].

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, kontrakt fermerligida taraflar tengligini ta’minlash uchun shartnomaning shaffof shartlari, narx belgilash mexanizmlari va nizolarni hal etishning mustaqil tartibi alohida ahamiyat kasb etadi [9].

Xorijiy tajriba va xalqaro yondashuvlar

YUNIDRUA, FAO va XFQJ (IFAD) tomonidan tayyorlangan kontrakt fermerligi bo‘yicha huquqiy qo‘llanma agrar shartnomalarni tartibga solish va tuzishga oid tavsiyalarni o‘z ichiga oladi [9]. Qo‘llanmadagi umumiy yondashuvga ko‘ra, shartnomaning yozma shakli, shartlarning aniqligi, narx belgilash tartibining shaffofligi va nizolarni hal etish mexanizmlari taraflar manfaatlarini muvozanatlashtirish vositasi hisoblanadi [9]. Bu yondashuv O‘zbekistonda fermer-klaster shartnomalarining namunaviy shartlarini takomillashtirish uchun ham asos bo‘la oladi.

Kanadada klaster deganda fermer xo‘jaliklarining sheriklik shartnomasi asosida yoki bir nechta fermerlardan iborat inkorporatsiyaga yoxud yirik qishloq xo‘jaligi korporatsiyalariga birlashgan holdagi faoliyati tushuniladi; misol uchun, Ontario provinsiyasida fermerlarning 30 foizi sheriklik shartnomasi asosida ishlashi qayd etilgan [8]. Daniya, Finlyandiya, Norvegiya va Shvetsiya tajribasi haqida esa fermer xo‘jaliklari klaster tizimiga asosan ixtiyoriylik asosida birlashishi ta’kidlangan [8]. Bu tajriba shuni ko‘rsatadiki, birlashish shaklining huquqiy asosi shartnomaviy va ixtiyoriy bo‘lganda fermerning mustaqil sub’yektlik maqomi saqlanib qoladi.

4. Takomillashtirish bo‘yicha takliflar

1. **Agrokooperatsiya va klasterlar to‘g‘risida yagona qonun qabul qilish**, unda klasterning tashkiliy-huquqiy shakli, huquq va majburiyatlari, fermerlar bilan munosabatlar asoslari belgilanishi.

2. **Namunaviy shartnomalarda taraflar muvozanatini ta’minlash:** narx belgilash formulasi, to‘lov muddatlari, kechiktirilganlik uchun javobgarlik, fors-major va hosil yo‘qotish xavfini taqsimlash.

3. **Shartnoma erkinligi kafolatini mustahkamlash:** hududiy biriktirishni taqiqlash va fermerning klaster/tayyorlovchini tanlash huquqini qonun darajasida mustahkamlash.

4. **Nizolarni hal etish mexanizmlarini rivojlantirish:** tezkor mediatsiya va ixtisoslashgan arbitraj/iqtisodiy sud tartibini joriy etish.

5. **Dehqon xo‘jaliklarining shartnomaviy ishtirokini yengillashtirish:** ularni kooperativlar orqali bozorga chiqish mexanizmlarini qonunan qo‘llab-quvvatlash.

6. **Shartnomalar raqamli monitoringini kengaytirish** va hisob-kitoblarni ochiq elektron platformalar orqali yuritish.

Xulosa

Agrar sohada shartnomaviy munosabatlar sub’yektlarining huquqiy maqomi bir tomondan fermer va dehqon xo‘jaliklari, kooperativlar bo‘yicha yetarli darajada tartibga solingan, ikkinchi tomondan klasterlarning maqomi va fermer-klaster shartnomalaridagi taraflar muvozanati qonunchilik darajasida to‘liq hal etilmagan. Tadqiqot natijalari yagona agrokooperatsiya qonunini qabul qilish, shartnoma erkinligi va taraflar tengligi tamoyillarini amalda ta’minlash hamda nizolarni hal etishning samarali mexanizmlarini yaratish zarurligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining «Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida»gi Qonuni (yangi tahrir). - https://lex.uz/acts/30974

2. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. - https://lex.uz
3. O‘zbekiston Respublikasining «Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida»gi Qonuni. - https://lex.uz
4. O‘zbekiston Respublikasining «Xo‘jalik yurituvchi sub’yektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida»gi Qonuni. - https://lex.uz/acts/18942
5. O‘zbekiston Respublikasining «Qishloq xo‘jaligi kooperativi (shirkat xo‘jaligi) to‘g‘risida»gi Qonuni. - https://lex.uz
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 oktyabrdagi PF-5199-son Farmoni. - https://www.president.uz/uz/lists/view/1119
7. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar bilan tayyorlov, xizmat ko‘rsatish tashkilotlari o‘rtasida shartnomalar tuzish, ro‘yxatdan o‘tkazish, bajarish va monitoring qilish tartibi to‘g‘risidagi Nizom. - https://lex.uz/acts/246039
8. Ommaviy axborot manbalari: kun.uz (https://kun.uz/59130725; https://kun.uz/kr/39820712; https://kun.uz/kr/news/2023/11/09/fermerlar-bir-viloyat-ichidagi-xohlagan-klaster-bilan-shartnoma-tuzish-imkoni-beriladi; https://kun.uz/kr/news/2022/09/26/tortib-olinayotgan-hosil-klasterlarga-yem-bolayotgan-fermerlar); zamin.uz (https://zamin.uz/iqtisodiyot/86568-zbekistonda-agroklasterlar-bjicha-onunchilikni-takomillashtirishga-zarurat-bor.html).
9. UNIDROIT/FAO/IFAD. Legal Guide on Contract Farming. - Rome, 2015.
10. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sharh / H.R. Raxmonqulov va O. Oqyulov tahriri ostida [nashriyot va yil aniqlashtirilsin]. - https://uzbekistan.osce.org/uz/node/74874
11. Zokirov I.B. O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik huquqi. Umumiy qism: Darslik. - Toshkent: Adolat, 1996.
12. Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi: Darslik. I qism. - Toshkent: TDYUI, 2009.
13. Ro‘zinazarov Sh., Babayev J., Inoyatova S., Nuraliyev M. Fuqarolik huquqida majburiyatlarning bajarilishini ta’minlash usullari: O‘quv qo‘llanma [nashr ma’lumotlari aniqlashtirilsin].
14. Narmatov N.S. Xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatini fuqaroviy-huquqiy tartibga solish muammolari: yurid. fanlar dokt. ... dis. avtoref. - Toshkent, 2009. - 46 b.

O‘ZBEKISTONDA KO‘ZI OJIZLARNING ISHLAB CHIQARISHDAGI ISHTIROKI (1991–2025-YILLAR)

Furqat N. Bozorov
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti, tayanch doktorant, Toshkent, O‘zbekiston
furqattarixchi@gmail.com; ORCID: 0009-0007-3342-9400; Tel: +998936780288
UDK: 94(575.1):796

Annotatsiya. *Maqolada 1991–2025-yillarda O‘zbekistonda ko‘zi ojizlarning ishlab chiqarishdagi ishtiroki, xususan, O‘zbekiston ko‘zi ojizlar jamiyati tizimidagi o‘quv-ishlab chiqarish korxonalarining bu boradagi o‘rni tarixiy va siyosiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot ilk bor ilmiy muomalaga kiritilayotgan O‘zbekiston Milliy arxivi va O‘zbekiston ko‘zi ojizlar jamiyati arxivi hujjatlari hamda normativ-huquqiy hujjatlarga asoslangan. Sovet davrida davlat buyurtmasi, sanoat kooperatsiyasi va imtiyozli xomashyo asosida shakllangan korxonalar tizimining kamchiliklari, mustaqillikning dastlabki yillarida xo‘jalik aloqalarining uzilishi natijasida yuz bergan inqiroz va korxonalarning yopilish sabablari ochib berilgan. 2006-yildan korxonalarning MChJ shakliga o‘tkazilishi va paxtani qayta ishlashga ixtisoslashuvi, 2017-yildan keyingi islohotlar – imtiyozli paxta ajratishning to‘xtatilishi, soliq rejimining o‘zgarishi, davlat xaridi kvotalari va inklyuziv bandlikni rag‘batlantirish choralarining korxonalarga ta’siri baholangan. Tahlil natijasida korxonalarda ishlab chiqarish hajmi oshgan holda ko‘zi ojiz ishchilar soni 1991-yildagi 5533 nafardan 2024-yilda 917 nafarga qisqargani, jamiyat tizimidan tashqarida ishlovchi ko‘zi ojizlar ulushi 1991-yildagi 19 foizdan 2024-yilda 61 foizga oshib, bandlikning asosiy qismi tizimdan tashqarida shakllanayotgani hamda davlat siyosati korxonalarni imtiyozlash yondashuvidan barcha ish beruvchilarni rag‘batlantirish yondashuviga o‘tgani asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *ko‘zi ojizlar, mehnat bandligi, ixtisoslashgan korxonalar, inqiroz, islohotlar.*

Аннотация. *В статье с исторической и политической точек зрения анализируется участие незрячих в производстве в Узбекистане в 1991–2025 годах, в частности роль учебно-производственных предприятий системы Общества слепых Узбекистана. Исследование основано на впервые вводимых в научный оборот документах Национального архива Узбекистана и архива Общества слепых Узбекистана, а также на нормативно-правовых актах. Раскрыты недостатки системы предприятий, сложившейся в советский период на основе государственного заказа, промышленной кооперации и*

льготного сырья, кризис, вызванный разрывом хозяйственных связей в первые годы независимости, и причины закрытия предприятий. Оценено влияние на предприятия их преобразования с 2006 года в общества с ограниченной ответственностью и специализации на переработке хлопка, а также реформ после 2017 года – прекращения льготного выделения хлопка, изменения налогового режима, квот государственных закупок и мер стимулирования инклюзивной занятости. В результате анализа обосновано, что при росте объёма производства численность незрячих работников на предприятиях сократилась с 5533 человек в 1991 году до 917 в 2024 году, доля незрячих, работающих вне системы общества, выросла с 19 % в 1991 году до 61 % в 2024 году, и основная часть занятости формируется за пределами системы, а государственная политика перешла от подхода, основанного на льготах для предприятий, к стимулированию всех работодателей.

Ключевые слова: *незрячие, трудовая занятость, специализированные предприятия, кризис, реформы.*

Abstract. *The article analyses, from historical and political perspectives, the participation of blind people in production in Uzbekistan in 1991–2025, in particular the role of the training and production enterprises of the Society of the Blind of Uzbekistan. The study is based on documents of the National Archive of Uzbekistan and the archive of the Society of the Blind of Uzbekistan, introduced into scholarly circulation for the first time, as well as on legal and regulatory acts. It reveals the shortcomings of the system of enterprises formed in the Soviet period on the basis of state orders, industrial cooperation and preferential raw materials, the crisis caused by the breakdown of economic ties in the first years of independence, and the reasons for the closure of enterprises. The article assesses the impact on the enterprises of their transformation into limited liability companies from 2006 and their specialisation in cotton processing, as well as of the reforms after 2017: the end of the preferential allocation of cotton, changes in the tax regime, state procurement quotas and measures to encourage inclusive employment. The analysis shows that, while production volumes grew, the number of blind workers at the enterprises fell from 5,533 in 1991 to 917 in 2024; that the share of blind people working outside the Society's system rose from 19 % in 1991 to 61 % in 2024, so that most of their employment now takes shape outside the system; and that state policy has shifted from granting privileges to enterprises towards encouraging all employers.*

Keywords: *blind people, employment, specialised enterprises, crisis, reforms.*

Kirish

Mehnat bilan bandlik ko‘zi ojiz insonning jamiyatdagi mustaqil o‘rnini belgilovchi asosiy omillardan biridir. O‘zbekistonda ko‘zi ojizlar bandligi qariyb bir asr davomida O‘zbekiston ko‘zi ojizlar jamiyati (keyingi o‘rinlarda – O‘zKoJ) tizimidagi o‘quv-ishlab chiqarish korxonalari (keyingi o‘rinlarda – O‘IChK) bilan bog‘liq holda kechgan. Maqolada O‘zbekiston Milliy arxivi va O‘zKoJ arxivi hujjatlari va normativ-huquqiy hujjatlar asosida bu korxonalarning mustaqillik yillaridagi taqdiri, mahsulotlari, hamkorlari hamda 2017-yildan keyingi islohotlarning ularga ta’siri tahlil qilinadi.

1. Mustaqillik arafasida ko‘zi ojizlar ishtirokidagi ishlab chiqarish tizimi va uning muammolari

Ko‘zi ojizlar uchun dastlabki ustaxonalar 1920-yillar oxirida ochilib, 1938-yilga kelib ularda 600 nafar ko‘zi ojiz chiy, bo‘yra, savat va arqon tayyorlagan [1, B. 17–19]. 1950–1980-yillarda ustaxonalar O‘IChK va kombinatlarga aylandi, ularda texnik cho‘tka, karton, plastmassa buyumlari ishlab chiqarildi, paxta tolasi va lint esa davlat tomonidan imtiyozli narxlarda ajratildi [2a, №1/02-231]. Korxonalar davlat zavodlari bilan kooperatsiya asosida ishlagan. 1989-yilda jamiyat korxonalarida 5524 nafar ko‘zi ojiz mehnat qilgan [3, 3616-yig‘majild, 26-varaq]. Shunga qaramay, arxiv hujjatlari sovet davrining so‘nggi yillarida tizimda jiddiy muammolar to‘planganini ko‘rsatadi. 1988-yilgi tekshiruvda Toshkent ishlab chiqarish kombinati, Sariosiyo, Ulug‘bek va Qarshi korxonalari sexlarida evakuatsiya rejalari yo‘qligi, chiqish yo‘llari chiqindi va tayyor mahsulot bilan to‘sib qo‘yilgani, asosiy omborda yong‘in signalizatsiyasi bo‘lmagani aniqlangan; ko‘zi ojiz ishchilar uchun bu ayniqsa xavfli edi [3, 3599-yig‘majild, 5–6-varaqlar]. 1989-yilning 8 oyida ishlab chiqarish bazasini kengaytirish uchun rejalashtirilgan kapital mablag‘ning atigi 54,1 foizi o‘zlashtirilgan, Ulug‘bek korxonasi qurilishida reja 29,6 foizga bajarilgan [3, 3616-yig‘majild, 42–43-varaqlar]. Jamiyatning yordamchi xo‘jaligida 1990–1991-yillarda sholi, yeryong‘oq va mosh rejadagidan bir necha baravar kam olingan, mahsulot ruxsatsiz begona tashkilotlarga sotilgan [3, 3707-yig‘majild, 52–53-varaqlar]. 1991-yilda esa 401 nafar ko‘zi ojiz ishga joylashtirilgani holda 1200 nafar ko‘zi ojiz ish bilan ta’minlanmay qolgan [3, 3662-yig‘majild, 49-varaq]. Bundan tashqari, bu tizim to‘liq davlat buyurtmasi, kooperatsiya va markazlashgan xomashyo ta’minotiga bog‘liq edi. Uskunalarning eskirgani va kooperatsiya buyurtmalarining qisqarayotgani O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1990-yil 28-iyundagi 251-son qarorida ochiq tan olingan [3, 251-son qaror, 133–134-betlar].

2. 1991–2016-yillarda ko‘zi ojizlarning ishlab chiqarishdagi ishtiroki: inqiroz va moslashuv

Sovet Ittifoqining parchalanishi korxonalar uchun eng og‘ir sinov bo‘ldi. 1992-yilda xomashyo narxlari oshib, mahsulot tannarxi 3–4 baravar ko‘tarilgan, talab tushib, ko‘zi ojiz ishchilar bekor turib qolgan [3, 3710-yig‘majild, 8-varaq]. 1993-yilda jamiyatning 34 ta korxonasidan Rossiya xomashyosi bilan ishlaydigan 8 tasi muntazam ishlay olmagan, chunki tashqi davlatlarga pul o‘tkazish imkoni bo‘lmagan [3, 3789-yig‘majild, 1-varaq]. 1999-yil yakunida korxonalarda ish haqi qarzi 12,7 mln so‘mga yetgan, ayrim joylarda ish haqi pul o‘rniga mahsulot bilan berilgan [3, 3956-yig‘majild, 13–15-varaqlar]. Toshkent cho‘tka va karton kombinatining texnik cho‘tkalari paxta mavsumi tugagach sotilmay omborda qolgan, asosiy xaridor “O‘zpaxtasanoatsotish” esa unga 12,2 mln so‘m qarzdor bo‘lgan [3, 3894-yig‘majild, 67–68-varaqlar]. 2003-yilga kelib butun tizimda atigi 2300 nafar ko‘zi ojiz ishlagan [1, B. 29–30].

Inqiroz bir qator korxonalarning yopilishiga olib keldi. Asaka korxonasi 2001-yilda bankrot bo‘lgan [4, 2003, №3, B. 2], 2013-yildan butunlay to‘xtagan; Q. Primqulov nomidagi sobiq “Sverdlov” kombinati mulkining katta qismi 2008-yilda sotilgan, Toshkent O‘IChK tugatilgan [1, B. 159, 398, 412]. Sirdaryo korxonasida xomashyo yetishmagani va mahsulotga talab yo‘qligi sababli 2015-yildan tikuv va to‘quv sexlari to‘xtab, ishchilar ishsiz qolgan [5b, 55, 56, 66-varaqlar]. Yopilishning asosiy sabablari xo‘jalik aloqalari va kooperatsiyaning uzilishi, xomashyo qimmatlashuvi, xaridorlarning yo‘qolishi, qarzdorlik, uskunalar eskirishi va ayrim rahbarlarning noto‘g‘ri xo‘jalik yuritishi bo‘ldi.

2006-yildan korxonalarga mas’uliyati cheklangan jamiyat (MChJ) maqomi berilib, ular soliqlarning bir qismidan ozod bo‘ldi. Natijada mahsulot hajmi 2004-yildagi 1,97 mlrd so‘mdan 2008-yilda 8,3 mlrd so‘mga oshdi [4, 2009, №5, B. 2–3]. Hududlarda sho‘ba korxonalar tuzildi: 2014-yilda “Metallurg KoJ” korxonasida respublikada birinchi marta ko‘zi ojizlar uchun hassa ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi [5a, 72-varaq]. Biroq o‘sish asosan paxtani qayta ishlash hisobiga bo‘ldi: 2016-yilda korxonalar daromadining 90 foizi paxta bilan bog‘liq bo‘lib, avtoyopqich, bo‘z va noto‘qima matolarni “O‘zpaxtasanoat” korxonalari xarid qilgan [5c, 3-varaq]. Bu jarayon ko‘zi ojiz mehnatini kam talab qilgani uchun 2014-yilda korxonalardagi 1699 nafar xodimdan faqat 1109 nafari ko‘zi ojizlar edi [5a, 49-varaq].

3. 2017-2025-yillardagi Islohotlar davrida ko‘zi ojizlarning ishlab chiqarishdagi ishtiroki: imtiyozlardan inklyuziv bandlikka

Islohotlar korxonalarga ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatdi. Bir tomondan, PQ-3386-son qarorga ko‘ra 2018-yildan paxta tolasi va lint birja orqali sotiladigan bo‘lib, korxonalar 50-yillardan beri foydalangan imtiyozli xomashyodan mahrum

bo‘ldi [2b, 353-varaq]. 2019-yil 1-yanvardan esa yirik korxonalar umumbelgilangan soliqlarga o‘tkazildi. Jamiyat bu holat “1700 nafarga yaqin ko‘zi ojiz va boshqa sog‘lom fuqarolar”ning ishsiz qolishiga olib kelishini hukumatga yozgan [2b, 100-varaq]. Jamiyat hisobiga ko‘ra, 1991-yildan 2018-yilgacha korxonalar soni 21 tadan 69 taga ko‘paygan holda ulardagi ko‘zi ojizlar soni 5533 nafardan 1006 nafarga tushgan [2a, №1/01-104.

Ikkinchi tomondan, davlat yangi qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etdi. Prezidentning 2019-yil 23-avgustdagi PQ-4423-son qarori bilan xodimlarining kamida 50 foizi nogironlar bo‘lgan korxonalar foyda solig‘i, QQS va mol-mulk solig‘idan ozod qilinib, ular uchun davlat xaridi kvotalari belgilandi [6]. Kvotalar ijrosi dastlab sust kechgan bo‘lsa-da [7a, №1/01-39.], davlat xaridi orqali sotilgan mahsulot 2020-yildagi 3,1 mlrd so‘mdan 2021-yilda 17,1 mlrd so‘mga oshdi. Korxonalar paxtaga qaramlikdan chiqa boshlab, 2021-yilda 24 turdagi yangi mahsulotni o‘zlashtirdi, paxtadan boshqa mahsulotlar ulushi 59 foizga yetdi [1, B. 93, 97]. Mebel, tikuv va matbaa yo‘nalishida “Go‘zal yurt ravnaqi”, “Kumush orzular”, “KOJ Ezgu niyat”, “KOJ Shifo” kabi yangi korxonalar tuzildi [7b, 87, 94, 96-varaqlar; 7c, №1/07-244; №1/07-246]. Marg‘ilon korxonasi Mudofaa vazirligining 6000 dona qishki kurtka xaridi tanlovida g‘olib bo‘ldi [7b, 86, 100-varaqlar].

Islohotlar korxonalarning hamkorlik doirasini ham o‘zgartirdi. Paxta tozalash korxonalari to‘qimachilik klasterlariga o‘tgach, avvalgi asosiy hamkor – “O‘zpaxtasanoat” tizimi o‘rnini davlat buyurtmachilari egalladi. Xalqaro aloqalar esa kamligicha qoldi: eng yirik urinish “Qo‘qon saxovat nuri” korxonasining 2020-yilda Tojikiston va Rossiya firmalari bilan 650 ming AQSh dollarlik paxta sellyulozasi eksporti bo‘yicha shartnomalari bo‘ldi [7a, №001/EX, №002/EX. 16, 18, 19, 25, 31, 43, 47, 48, 55, 62-PDF].

Keyingi yillarda davlat siyosati alohida korxonalarni qo‘llab-quvvatlashdan barcha ish beruvchilarni rag‘batlantirishga o‘tdi. 2020-yilgi O‘RQ-641-son Qonun bilan nogironlar uchun 3 foizlik ish o‘rni kvotasi belgilandi [6], PQ-4423-son qaror 2024-yilda o‘z kuchini yo‘qotdi [6], 2025-yil 8-maydagi PF-85-son Farmon bilan nogironlarni ishga olgan barcha ish beruvchilarga ijtimoiy soliq imtiyozi va subsidiyalar joriy etildi [6]. Natijada 2024-yilda ish bilan band 3433 nafar ko‘zi ojizdan faqat 917 nafari O‘zKoJ korxonalarida, 2108 nafari esa jamiyat tizimidan tashqarida ishlagan [7d, 5-varaq]. Taqqoslash uchun, 1991-yilda ishlovchi ko‘zi ojizlarning 19 foizi jamiyat korxonalaridan tashqarida mehnat qilgan bo‘lsa, 2019-yilda bu ko‘rsatkich 43 foizga yetgan [1, B. 14, 77], 2024-yilda esa 61 foizni tashkil etgan.

Xulosa

Sovet davrida shakllangan ko‘zi ojizlar korxonalari tizimi davlat buyurtmasi va kooperatsiyaga to‘liq bog‘liq bo‘lgani uchun mustaqillikning dastlabki yillarida chuqur inqirozga uchradi, ulardagi ko‘zi ojizlar soni ikki baravardan ko‘proq qisqardi, bir qator korxonalar yopildi. 2000-yillarda MChJ maqomi va paxtani qayta ishlash korxonalarni saqlab qoldi, ammo ko‘zi ojizlar uchun ish o‘rinlarini ko‘paytirmadi. 2017-yildan keyingi islohotlar imtiyozli xomashyoni bekor qilib, korxonalarni yangi sinov oldiga qo‘ydi, davlat xaridi kvotalari esa ularning mahsulot turlarini kengaytirishga turtki berdi. Shu bilan birga, ko‘zi ojizlar bandligining asosiy qismi endi jamiyat korxonalaridan tashqarida shakllanmoqda. Bu davlat siyosatining korxonalarni imtiyozlash yondashuvidan inklyuziv bandlik yondashuviga o‘tganini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Norpo‘latov E. Tarix ko‘zgusida: Monografiya. – Toshkent: “IJOD-PRESS” nashriyoti, 2024.

2. O‘zKoJ A: a) chiqish xatlari 1-320 gacha, 2019-yil; b) chiqish xatlari 83-84-157-158-241-242-320, 2019-yil.

3. O‘zMA, R-2370-fond, 1-ro‘yxat, 3599, 3616, 3662, 3707, 3710, 3789, 3894, 3956-yig‘majildlar; O‘zMA. O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1990-yil 28-iyundagi “O‘zbekiston ko‘zi ojizlar jamiyatining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ijtimoiy sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 251-son qarori.

4. “Bir safda” jurnali. – 2003. – №3; 2009. – №5.

5. O‘zKoJ A: a) chiqish xatlari 1-108, 2015-yil; b) Fuqarolar murojaati, 2016-yil; c) chiqish xatlari 43-113, 2016-yil.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-avgustdagi PQ-4423-son qarori; O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 15-oktabrdagi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-641-son Qonuni; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-maydagi PF-75-son va 2025-yil 8-maydagi PF-85-son Farmonlari // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – https://lex.uz [Murojaat qilingan sana: 12.10.2026].

7. O‘zKoJ A: a) chiqish xatlari 1-115, 2020-yil; b) chiqish xatlari 524-713, 2022-yil; c) chiqish xatlari 113-305, 2023-yil; d) O‘zKoJ joriy arxivi. XIX Qurultoy hisoboti, 2024-yil.

YOSHLARNING HUQUQIY MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR JAMOAT BIRLASHMALARI TAJRIBASI VA UNDAN O‘ZBEKISTONDA FOYDALANISH

Jumanazarov Feruzbek Azamat o‘g‘li
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti,
“Tarix va huquq” fakulteti, Huquq kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi
ORCID: https://orcid.org/0009-0000-0435-172X
yuristjumanazarov@gmail.com
Tel.: +998 (91) 003-37-23

Annotatsiya: *Mazkur maqolada zamonaviy huquqiy va demokratik davlat qurilishi sharoitida yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirishda jamoat birlashmalarining institutsional roli va salohiyati qiyosiy-huquqiy jihatdan tadqiq etilgan. Maqolada AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya va Yaponiya kabi rivojlangan xorijiy mamlakatlar jamoat birlashmalarining yoshlar huquqiy savodxonligini oshirish va ularda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish borasidagi ilg‘or tajribalari hamda samarali modellari (Street Law, Pro Bono, Politische Bildung, Citizens Advice) tahlil qilingan. O‘zbekistondagi amaldagi holat va tizimli muammolar xolis baholanib, xalqaro tajribaning samarali elementlarini milliy-huquqiy tizimga hamda mahalla institutiga moslashtirish bo‘yicha institutsional, metodologik va raqamli-media yo‘nalishlarida konseptual taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.*

Kalit so‘zlar: *yoshlar, huquqiy madaniyat, huquqiy ong, jamoat birlashmalari, fuqarolik jamiyati, xalqaro tajriba, ijtimoiy sheriklik, Street Law, Pro Bono, mahalla, raqamli huquqiy savodxonlik.*

Аннотация: *В данной статье с позиций сравнительно-правового анализа исследуются институциональная роль и потенциал общественных объединений в повышении правовой культуры молодежи в условиях формирования современного правового и демократического государства. В работе проанализирован передовой опыт и эффективные модели (Street Law, Pro Bono, Politische Bildung, Citizens Advice) общественных объединений развитых зарубежных стран (США, Германия, Великобритания и Япония) по повышению правовой грамотности молодежи и формированию активной гражданской позиции. Дана объективная оценка текущему состоянию и системным проблемам в Узбекистане, а также выдвинуты концептуальные предложения по адаптации эффективных элементов международного*

опыта к национальной правовой системе и институту махалли в институциональном, методологическом и цифровом направлениях.

Ключевые слова: *молодежь, правовая культура, правосознание, общественные объединения, гражданское общество, международный опыт, социальное партнерство, Street Law, Pro Bono, махалля, цифровая правовая грамотность.*

Abstract: *This article presents a comparative legal analysis of the institutional role and potential of public associations in enhancing the legal culture of youth within the context of building a modern democratic state governed by the rule of law. The study examines the advanced practices and effective models (Street Law, Pro Bono, Politische Bildung, Citizens Advice) of public associations in developed nations, including the United States, Germany, the United Kingdom, and Japan, regarding youth legal literacy and civic engagement. Assessing the current situation and systemic challenges in Uzbekistan, the author proposes conceptual recommendations across institutional, methodological, and digital-media dimensions to adapt effective international mechanisms into the national legal framework and the unique institution of the mahalla.*

Keywords: *youth, legal culture, legal awareness, public associations, civil society, international practice, social partnership, Street Law, Pro Bono, mahalla, digital legal literacy.*

KIRISH

Zamonaviy huquqiy va demokratik davlat qurilishi sharoitida yoshlarning huquqiy madaniyati hamda huquqiy shuurini yuksaltirish har bir jamiyatning strategik vazifalaridan biri hisoblanadi. Jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy barqarorligi bevosita kelajak bunyodkorlari bo‘lmish yosh avlodning huquqiy bilim darajasiga, ularning qonunlarga bo‘lgan hurmatiga va huquqiy mas’uliyatiga bog‘liqdir. Yuqori huquqiy madaniyatga ega bo‘lgan yoshlar nafaqat o‘z shaxsiy huquq va erkinliklarini samarali himoya qila oladi, balki jamiyatda qonuniylik, huquq-tartibot va fuqarolik mas’uliyatining mustahkamlanishiga bevosita hissa qo‘shadi.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiyalar davrida yoshlar huquqiy madaniyatini shakllantirish jarayonini faqatgina davlat idoralarining ma’rifiy va ta’limiy faoliyati bilan cheklab bo‘lmaydi. An’anaviy “davlat – fuqaro” modeli zamonaviy jamiyat talablariga to‘liq javob bera olmayapti. Shu sababli huquqiy madaniyatni yuksaltirishda fuqarolik jamiyati institutlari, xususan, jamoat birlashmalarining institutsional salohiyatidan samarali foydalanish dolzarb masalalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Abstract. *This study analyzes the regulatory framework governing the participation of civil society institutions in state and public governance, focusing on the updated Constitution, laws on NGOs, mahalla, mass media, and public control. Additionally, practical proposals are presented to enhance their cooperation with state bodies and improve public control mechanisms.*

Keywords: *civil society, regulatory acts, non-governmental non-profit organizations (NGOs), public control, public councils, mahalla, mass media, Constitution, social partnership.*

Introduction

The active participation of civil society institutions in state and public governance is one of the most critical and key directions in building a modern democratic state and forming a legal society. In recent years, the Republic of Uzbekistan has implemented large-scale institutional and regulatory reforms to enhance the role of citizens in managing state and public affairs, strengthen the legal status of non-governmental non-profit organizations (NGOs), mass media (media), self-governing bodies of citizens, and public councils, as well as build a solid and modern legal foundation for their activities.

The system of regulatory acts governing the effective interaction between civil society institutions and state power and governance bodies has reached a conceptually new stage. The main objective of this section is to conduct a scientific, theoretical, and practical analysis of the legal foundations of civil society institutions' activities in the Republic of Uzbekistan, the forms of their participation in state governance, and the legislative acts regulating their efficiency.

1. Constitutional and Legal Foundations of the Activities of Civil Society Institutions

The legal groundwork for the activities of civil society institutions is strongly reflected in the updated Constitution of the Republic of Uzbekistan. The inclusion of a dedicated chapter on civil society institutions in the newly revised Constitution and the clear definition of their role in state and public life marked a priority step toward deepening democratic values in the country.

Chapter XIII of the Constitution is directly entitled "Civil Society Institutions," where non-governmental non-profit organizations, trade unions, political parties, mass media, and self-governing bodies of citizens are designated as the main pillars of civil society [1].

Article 127 of the Constitution guarantees that civil society institutions, including non-governmental non-profit organizations, form the basis of civil society and that their areas of activity are regulated by law [1]. At the same time, the Constitution defines the state's obligations to support the activities of civil society institutions and create equal legal conditions for their free operation.

The right of citizens to participate in the management of state and public affairs is consolidated in Article 36 of the Constitution, and this right is exercised directly as well as through their representatives [1]. This constitutional norm serves as the primary legal source for the participation of civil society institutions in public control and the decision-making process.

2. Analysis of Legislation Regulating the Activities of Non-Governmental Non-Profit Organizations

Non-governmental non-profit organizations (NGOs) are among the most essential and dynamic elements of civil society. In the Republic of Uzbekistan, the main legislative acts regulating the activities of NGOs include:

The Law "On Non-Governmental Non-Profit Organizations" (April 14, 1999). This law establishes the creation of NGOs, their rights and duties, guarantees of their activities, and dissolution procedures [2]. Article 4 of the Law guarantees the independence of NGOs and prohibits interference in their internal affairs by state bodies and their officials [2].

The Law "On Guarantees of the Activities of Non-Governmental Non-Profit Organizations" (January 3, 2007). This legislative act regulates the mechanisms for ensuring the financial and material-technical stability of NGOs, as well as the use of state subsidies, grants, and social orders [3]. According to Article 8 of the Law, the state provides financial support to NGOs by allocating state grants and subsidies for the implementation of socially important projects [3].

In recent years, several bylaws have been adopted to simplify the state registration procedure for NGOs, reduce state fees for registration, and digitize their accountability system. This contributes to the quantitative growth of NGOs and their initiative in solving social problems in society.

3. Legal Status of Public Control and Public Councils

The institution of public control is of decisive importance in ensuring the openness, transparency, and efficiency of state power and governance bodies. The Law of the Republic of Uzbekistan "On Public Control" (April 12, 2018) is the main specialized document regulating relations in this field [4].

Article 3 of the Law defines the subjects of public control as citizens of the Republic of Uzbekistan, self-governing bodies of citizens, non-governmental non-profit organizations, and mass media [4]. Article 6 of this Law outlines the following forms of public control:

- Submitting applications and inquiries to state bodies;
- Participating in open board meetings of state bodies;
- Public discussion;
- Public hearing;
- Public monitoring;
- Public expertise;
- Hearing of reports of state body heads by self-governing bodies of citizens [4].

In addition, a regulatory framework has been developed for establishing Public Councils under state governance bodies and local executive authorities. The Model Regulation "On the Public Council under State Bodies," approved by Resolution No. PP-3837 of the President of the Republic of Uzbekistan on July 4, 2018, established the organizational and legal mechanisms of these councils [5]. Public Councils serve as a bridge in combating corruption in the activities of state bodies, conducting expertise on draft regulatory acts being adopted, and ensuring that citizen interests are taken into account.

4. The Role of Self-Governing Bodies of Citizens and Mass Media in State Governance

Self-governing bodies of citizens (mahalla) represent a unique national institution of Uzbekistan's civil society model. The Law "On Self-Governing Bodies of Citizens" (New edition, April 22, 2013) reinforced the position of the mahalla institution in public governance [6]. Pursuant to Article 7 of the Law, self-governing bodies of citizens are not included in the system of state power bodies and resolve issues of local importance based on the interests of citizens, historical, and national characteristics [6].

Today, the mahalla institution has become an important subject authorized not only to provide social support, but also to exercise public control at the local level and monitor the implementation of state programs.

Mass media (media) operate as the information pillar of civil society and a tool for shaping public opinion. The Law "On Mass Media" (January 15, 2007) and the Law "On Principles and Guarantees of Freedom of Information" (December 12, 2002) constitute the legal foundation of media activities [7]. These laws guarantee the freedom to search, receive, and disseminate information, as well as the prohibition of censorship. The role of media in covering the activities of state bodies and exercising public control has increased significantly as a result of recent reforms in the information sphere.

5. Strategic and Conceptual Directions for the Development of Civil Society

Support for civil society institutions is carried out through systematic and long-term strategic documents. In this regard, Decree No. UP-6181 of the President of the Republic of Uzbekistan dated March 4, 2021, "On Approval of the Concept for the Development of Civil Society in 2021–2025," holds a special place [8].

This Concept outlines the following priority directions for the development of civil society:

- Further improving the legal foundations of civil society institutions;

- Enhancing mechanisms for providing state support and assistance to civil society institutions;
- Creating necessary conditions for the active participation of civil society institutions in state and public governance;
- Expanding the participation of civil society institutions in the implementation of state social projects;
- Ensuring the openness and transparency of the activities of civil society institutions [8].

This strategic document created an important foundation for establishing equal and effective social partnership relations between civil society institutions and state bodies.

Conclusion and Recommendations

The analysis shows that a sufficiently robust and developed regulatory framework governing the participation of civil society institutions in state and public governance has been formed in the Republic of Uzbekistan. The updated Constitution, specialized laws, and Presidential decrees provide legal guarantees for the free and effective operation of these institutions.

However, to further increase the practical application and efficiency of regulatory acts, it is advisable to put forward the following proposals:

1. **Improving the mechanisms of the Law "On Public Control":** Legally defining the procedure for mandatory consideration of public expertise and public monitoring results by state bodies, as well as liability mechanisms for non-compliance.
2. **Adopting the Code "On Non-Governmental Non-Profit Organizations":** Developing a code on NGOs in order to unify scattered regulatory acts in the field of civil society into a single, cohesive system.
3. **Enhancing the independence of Public Councils:** Involving more independent experts and NGO representatives in public councils under state bodies, as well as ensuring their financial and organizational independence.

References

1. Constitution of the Republic of Uzbekistan. — Tashkent: "O'zbekiston" Publishing and Printing Creative House, 2023. — pp. 18–42.

2. Law of the Republic of Uzbekistan "On Non-Governmental Non-Profit Organizations". April 14, 1999, No. 763-I // Bulletin of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan. — 1999. — No. 5. — p. 115.

3. Law of the Republic of Uzbekistan "On Guarantees of the Activities of Non-Governmental Non-Profit Organizations". January 3, 2007, No. ZRU-76 // Collection of Regulatory Acts of the Republic of Uzbekistan. — 2007. — No. 1–2. — p. 3.

4. Law of the Republic of Uzbekistan "On Public Control". April 12, 2018, No. ZRU-474 // National Database of Legislation of the Republic of Uzbekistan (Lex.uz). — 2018. — pp. 4–12.

5. Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan "On Measures to Organize the Activities of Public Councils under State Bodies". July 4, 2018, No. PP-3837 // Collection of Legislation of the Republic of Uzbekistan. — 2018. — No. 27. — p. 542.

6. Law of the Republic of Uzbekistan "On Self-Governing Bodies of Citizens" (New edition). April 22, 2013, No. ZRU-350 // Bulletin of the Chambers of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan. — 2013. — No. 4. — p. 98.

7. Law of the Republic of Uzbekistan "On Mass Media" (New edition). January 15, 2007, No. ZRU-78 // Collection of Legislation of the Republic of Uzbekistan. — 2007. — No. 3. — p. 21.

8. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On Approval of the Concept for the Development of Civil Society in 2021–2025". March 4, 2021, No. UP-6181 // National Database of Legislation of the Republic of Uzbekistan (Lex.uz). — 2021. — pp. 1–15.

СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТ ВОСИТАСИДА СОДИР ЭТИЛГАН ЖИНОЯТЛАРНИ АНИҚЛАШ, ИСБОТЛАШ ВА БАҲОЛАШ: ПРОЦЕССУАЛ МУАММОЛАР ВА ЕЧИМЛАР

Саидов Абдуманнон Ғайрат ўғли
Ўзбекистон Республикаси Одил судлов академияси мустақил изланувчиси
a.saidov@sudacademy.uz; ORCID: 0009-0008-7725-9615

Аннотация. *Мазкур тезисда сунъий интеллект воситасида содир этиладиган жиноятларни аниқлаш, исботлаш ва судда баҳолаш билан боғлиқ процессуал-криминалистик муаммолар таҳлил қилинади. Рақамли изларнинг ўзгарувчанлиги, трансчегаравий хусусият, дипфейк контент, алгоритмик «қора қути» ҳамда электрон далилларнинг мақбуллигига таъсир этувчи омиллар ёритилади. Ўзбекистон Республикасининг жиноят-процессуал қонунчилиги ва тадқиқотда келтирилган илмий манбалар асосида рақамли далилларни сақлаш, экспертиза қилиш ва холисона баҳолаш механизмларини такомиллаштириш бўйича таклифлар асослантирилади.*

Калит сўзлар: *сунъий интеллект, кибержиноятчилик, рақамли далил, рақамли из, дипфейк, алгоритмик шаффофлик, суд экспертизаси, далилларнинг мақбуллиги, жиноят процесси.*

Аннотация. *В настоящих тезисах анализируются процессуально-криминалистические проблемы, связанные с выявлением, доказыванием и судебной оценкой преступлений, совершаемых с использованием искусственного интеллекта. Рассматриваются изменчивость цифровых следов, их трансграничный характер, дипфейк-контент, алгоритмический «чёрный ящик», а также факторы, влияющие на допустимость электронных доказательств. На основе уголовно-процессуального законодательства Республики Узбекистан и научных источников, использованных в исследовании, обосновываются предложения по совершенствованию механизмов сохранения, экспертного исследования и объективной оценки цифровых доказательств.*

Ключевые слова: *искусственный интеллект, киберпреступность, цифровые доказательства, цифровой след, дипфейк, алгоритмическая прозрачность, судебная экспертиза, допустимость доказательств, уголовный процесс.*

Abstract. *This thesis examines procedural and forensic challenges in detecting, proving, and judicially assessing crimes committed through artificial intelligence. It*

addresses the volatility of digital traces, the cross-border nature of cybercrime, deepfake content, algorithmic "black-box" systems, and the admissibility of electronic evidence. Drawing on Uzbekistan's criminal procedure framework and the sources cited in the original research, the paper substantiates proposals to improve the preservation, forensic examination, and impartial evaluation of digital evidence while safeguarding fundamental rights.

Keywords: *artificial intelligence, cybercrime, digital evidence, digital traces, deepfake, algorithmic transparency, forensic examination, admissibility of evidence, criminal procedure.*

КИРИШ

Рақамли технологиялар ва сунъий интеллект тизимларининг жадал ривожланиши жиноятларни содир этиш усуллари билан бир қаторда, уларни аниқлаш ва исботлаш механизмларини ҳам ўзгартирмоқда. Автоматлаштирилган алгоритмлардан фойдаланиш, шахсни аниқлашни қийинлаштирувчи рақамли воситалар, масофавий таъсир ҳамда қалбаки аудиовизуал материаллар анъанавий тергов усуллари самарадорлигига янги талаблар қўймоқда. Шунга кўра, сунъий интеллект воситасида содир этилган қилмишнинг жиноят-ҳуқуқий тавсифини белгилаш рақамли изларни процессуал тартибда олиш, сақлаш, текшириш ва баҳолаш билан узвий боғлиқдир.

Тадқиқотнинг мақсади — Ўзбекистон Республикаси қонунчилиги ҳамда мавжуд илмий ёндашувлар асосида сунъий интеллект билан боғлиқ жиноятларни исботлашдаги асосий процессуал бўшлиқларни очиб бериш ва уларни бартараф этишга қаратилган таклифларни шакллантиришдан иборат. Тадқиқотда норматив-ҳуқуқий, қиёсий-ҳуқуқий ва тизимли таҳлил усулларидан фойдаланилди.

АСОСИЙ ҚИСМ

Жиноятчиликнинг рақамли муҳитга кўчиши фақат технологик эмас, балки процессуал муаммо ҳамдир. Тадқиқотда келтирилган маълумотларга кўра, 2024 йилда кибержиноятлар умумий жиноятчилик таркибида 44,4 фоизни ташкил этиб, 58 800 та жиноят иши қўзғатилишига сабаб бўлган. 2021–2024 йиллар давомида мазкур қилмишлар оқибатида етказилган моддий зарар 1 триллион 909 миллиард сўмдан ошгани қайд этилган [3]. Бу кўрсаткичлар кибержиноятчиликнинг кенг кўламини намоён этади; бироқ кибержиноятларнинг барчаси айнан сунъий интеллект иштирокида содир этилган, деган хулосани англатмайди.

Сунъий интеллект технологияларидан фойдаланиш имкониятлари фишинг, электрон ҳисобварақларга ноқонуний кириш, сохта инвестиция таклифлари ва шахсни адаштириш каби усулларни янада мураккаблаштиради. Айниқса, генератив моделлар орқали тайёрланган дипфейк аудио ва видеолар жабрланувчининг ишончига кириш, кимнингдир номидан ахборот тарқатиш ёки рақамли шахсни сохталаштириш мақсадида қўлланилиши мумкин. Бундай ҳолатларда аудиовизуал материални кўздан кечиришнинг ўзи етарли бўлмай, унинг келиб чиқиши, метамаълумотлари ва таҳрирланиш белгилари махсус билимлар асосида текширилиши зарур.

Миллий ҳуқуқий тартибга солишда муайян қадамлар қўйилган. Хусусан, Ўзбекистон Республикасининг 2026 йил 21 январдаги ЎРҚ-1115-сонли Қонуни сунъий интеллектни қўллаш билан боғлиқ муносабатларни тартибга солишга қаратилган ўзгартишларни назарда тутади [1]. Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексда шахсга доир маълумотларга сунъий интеллект технологиялари орқали қонунга хилоф ишлов бериш билан боғлиқ жавобгарлик масаласи акс эттирилган [2]. Бироқ мазкур нормаларнинг мавжудлиги жиноят процессида алгоритмик маълумотларни далил сифатида олиш ва баҳолашнинг барча махсус қоидалари аниқ белгиланганини англатмайди.

Жиноят-процессуал кодекси далилларни тўплаш, текшириш ва баҳолашнинг умумий ҳуқуқий асосларини белгилайди [7]. Аммо сунъий интеллект тизимига киритилган маълумот, унинг чиқиш натижаси, сервер журнали, рақамли транзакция қайди ёки биометрик идентификаторни процессуал мустаҳкамлашда қатор хусусиятлар мавжуд. Рақамли из моддий буюмдан фарқли равишда осон нусхаланади, ўчирилади ёки ўзгартирилади; унинг маъноси кўп ҳолларда махсус дастурий-аппарат муҳитга боғлиқ бўлади. Рақамли изларнинг ана шу хусусиятлари илмий адабиётларда ҳам қайд этилган [5; 6].

Шу сабабли электрон далилнинг ишончлилигини таъминлаш уни топиш пайтидан бошлаб кейинги барча процессуал ҳаракатларга қадар изчил тартибни талаб этади. Рақамли маълумотнинг дастлабки ҳолатини қайд қилиш, кўчирма олиш усулини баён этиш, ҳеш-қиймат орқали бутунлигини текшириш, сақлаш муҳитини қайд этиш ва ундан фойдаланган шахсларнинг ҳаракатларини ҳужжатлаштириш муҳим аҳамиятга эга. Бундай изчиллик далилнинг келиб чиқиши ва ўзгармаганлигини текшириш имконини бериб, унинг мақбуллиги хусусидаги низоларни камайтиришга хизмат қилади.

Исботлашнинг яна бир муҳим тўсиғи — мураккаб алгоритмлар фаолиятининг тушунтириб бериш қийин бўлган «қора қути» хусусиятидир.

Нейрон тармоғининг якуний натижаси маълум бўлса-да, унга олиб келган омиллар, ўқитиш маълумотлари ёки эҳтимолий хатолар тўғрисида тўлиқ хулоса чиқариш ҳар доим ҳам мумкин эмас. Бу ҳолат жиноят иши бўйича далилларни ҳар томонлама, тўлиқ ва холисона текшириш талабини амалга оширишда муаммо туғдиради. Терговда сунъий интеллектни қўллашга оид илмий таҳлилларда алгоритмик натижа устидан инсон назорати ва махсус экспертиза зарурлиги алоҳида кўрсатилган [8; 9].

Рақамли экспертизада фақат дастур тақдим этган ҳисоботни такрорлаш эмас, балки қўлланган усулнинг текширилувчанлиги, маълумотлар тўпламининг етарлилиги, алгоритм хатолари ва хулосанинг такрорланувчанлигини баҳолаш талаб этилади. Бу борада алгоритмик аудит, келиб чиқишни тасдиқлаш ҳамда сунъий тарзда ҳосил қилинган контентни рақамли тамғалаш каби механизмлар фойдали йўналишлар сифатида муҳокама қилинмоқда. Сунъий интеллектни ҳуқуқий бошқариш масалаларининг кенгроқ назарий асослари тегишли тадқиқотларда ёритилган [4].

Жиноят-процессуал фаолиятда технологиядан фойдаланиш шахснинг ҳуқуқ ва эркинликларига дахл қилмаслиги шарт. Алгоритмик таҳлил орқали олинган эҳтимолий «хавф профили» ёки автоматик тавсия ўз-ўзидан айбловни тасдиқловчи далил бўла олмайди. Сунъий интеллект доирасида юридик жавобгарликка оид тадқиқотлар ҳам инсон иштирокини ва ҳуқуқий баҳолашнинг мустақиллигини муҳим масала сифатида кўради [10; 11]. Конституцияда белгиланган шахсий ҳаёт дахлсизлиги ва «Шахсга доир маълумотлар тўғрисида»ги Қонун талаблари рақамли ахборотни йиғиш ҳамда қайта ишлашда инобатга олиниши лозим [12].

Суд муҳокамасида алгоритмик ҳисобот ёки рақамли объектнинг мавжудлиги унинг автоматик тарзда мақбул ва етарли далил эканини билдирмайди. Суд далилнинг манбасини, олиниш усулини, ўзгармаганлигини ва бошқа иш материаллари билан мувофиқлигини текшириши, тарафларга эса унинг ишончлилиги юзасидан савол ва эътироз билдириш имконияти яратилиши зарур. Бунда Жиноят-процессуал кодексининг далилларни баҳолашга оид талаблари устувор аҳамиятга эга [7].

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАКЛИФЛАР

Биринчи таклиф: Жиноят-процессуал кодекси доирасида рақамли далилларни олиш, кўчириш, сақлаш ва тақдим этишнинг ўзига хос қоидаларини аниқлаштириш, хусусан, ҳеш-қиймат, метамаълумот ва электрон сақлаш занжирини қайд этиш тартибини белгилаш мақсадга мувофиқ.

Иккинчи таклиф: сунъий интеллект асосида яратилган ёки қайта ишланган материалларни текшириш учун суд-компьютер ва рақамли экспертиза методикаларини ривожлантириш, эксперт хулосасида алгоритм имкониятлари ҳамда чекловларини алоҳида кўрсатиш зарур.

Учинчи таклиф: трансчегаравий кибержиноятлар бўйича ваколатли органлар ўртасида тезкор маълумот алмашиш ва электрон изларни ўз вақтида сақлаб қолишга қаратилган ўзаро ҳамкорлик механизмларини кучайтириш лозим.

Тўртинчи таклиф: процессуал қарор қабул қилишда сунъий интеллект хулосасига ёрдамчи ахборот сифатида қараш, далилнинг мақбуллиги ва шахснинг айбдорлиги ҳақидаги якуний баҳони эса қонун талабларига мувофиқ ваколатли инсон субъекти томонидан бериш тамойилини таъминлаш зарур.

ХУЛОСА

Сунъий интеллект воситасида содир этилган жиноятларни аниқлаш, исботлаш ва баҳолаш соҳасидаги асосий вазифа рақамли технологиялар имкониятларини жиноят процессининг қонунийлик, холислик ва инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш кафолатлари билан уйғунлаштиришдан иборат. Рақамли далиллар айланмасининг аниқ процессуал тартибини шакллантириш, экспертлик методикаларини такомиллаштириш, алгоритмик шаффофликни ошириш ва суд томонидан мустақил баҳолашни таъминлаш келгусида ушбу турдаги жиноятларни самарали тергов қилиш ҳамда одил судлов сифатини оширишга хизмат қилади.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикасининг 2026 йил 21 январдаги "Сунъий интеллектни қўллаш орқали юзага келадиган муносабатлар тартибга солиниши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига қўшимча ва ўзгартиришлар киритиш тўғрисида"ги ЎРҚ-1115-сонли Қонуни // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 22.01.2026 й., 03/26/1115/0058-сон.

2. Ўзбекистон Республикаси Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1995 й., 3-сон, 6-модда.

3. Мирабдуллаев М. Ўзбекистонда кибержиноятлар умумий жиноятларнинг салкам ярмини ташкил қиляпти: ИИВ Киберхавфсизлик маркази маълумотлари // Gazeta.uz. – 2025 йил 5 ноябрь. – URL: https://www.gazeta.uz/uz/2025/11/05/cybercrime/ (мурожаат санаси: 15.03.2026).

4. AI Governance in Uzbekistan: Legal Frameworks and Ethical Considerations // World Bulletin of Management and Law. – 2025. – Vol. 53. – P. 24–29.

5. Расулев А.К. Ахборот технологиялари ва хавфсизлиги соҳасидаги жиноятларга қарши курашишнинг жиноят-ҳуқуқий ва криминологик чораларини такомиллаштириш: Юридик фанлар доктори (DSc) дисс. автореф. – Тошкент: ТДЮУ, 2018. – Б. 18–22.

6. Заркенов М.С. История развития уголовно-правовых норм в сфере информационных технологий // Вестник Института законодательства и правовой информации Республики Казахстан. – 2020. – № 2. – С. 45–52.

7. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1995 й., 2-сон, 5-модда.

8. Ураимов М.О. Жиноят процессида сунъий интеллектни қўллаш муаммолари: миллий ва хорижий тажриба: Магистрлик диссертацияси. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Ҳуқуқни муҳофаза қилиш академияси, 2024. – Б. 57–60.

9. Бахтеев Д.В. Искусственный интеллект в следственной деятельности: задачи и проблемы // Российский следователь. – 2020. – № 9. – С. 3–7.

10. Бозаров С.С. Sun’iy intellekt doirasida huquqiy javobgarlik: Юридик фанлар доктори (DSc) дисс. автореф. – Тошкент, 2023. – Б. 24–28.

11. Воҳидов Ф.М. Sun’iy intellekt va huquqiy javobgarlik // International Journal of Scientific Researchers. – 2025. – Vol. 11, Issue 1. – P. 561–564.

12. Ўзбекистон Республикасининг "Шахсга доир маълумотлар тўғрисида"ги 2019 йил 2 июлдаги ЎРҚ-547-сонли Қонуни // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 03.07.2019 й., 03/19/547/3364-сон.

ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАР ҚОНУНЧИЛИГИДА РАҚАМЛИ МАКОНДАГИ ЎҒИРЛИКЛАРНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШНИНГ ҚИЁСИЙ-ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛИ

Саидов Бобоқул Ёрикулович
Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси Криминоген вазиятни таҳлил қилиш бошқармаси бошлиғи ўринбосари

АННОТАЦИЯ: *Ушбу илмий мақолада рақамли маконда содир этиладиган ўғирликлар ва трансчегаравий кибержиноятларни тергов қилишнинг моддий ва процессуал-ҳуқуқий жиҳатлари қиёсий-ҳуқуқий нуқтаи назардан таҳлил қилинган. Тадқиқотда АҚШ, Европа Иттифоқи мамлакатлари ва бошқа ривожланган давлатларнинг кибержиноятчиликка қарши курашиш қонунчилиги, электрон (рақамли) далилларни тўплаш, фиксация қилиш ҳамда OSINT (очиқ манбалардан разведка маълумотларини йиғиш) усулларини қўллаш тажрибаси атрофлича ўрганилган. Будапешт ва БМТнинг Кибержиноятчиликка қарши конвенциялари доирасидаги халқаро ҳамкорлик ва 24/7 тезкор алоқа тармоғининг роли очиб берилган.*

Калит сўзлар: *рақамли макондаги ўғирлик, кибержиноятчилик, электрон далиллар, рақамли излар, OSINT усуллари, Будапешт конвенцияси, БМТ Конвенцияси, ЖК 169-моддаси, киберэкспертиза, хеш-сумма.*

АННОТАЦИЯ: *В данной научной статье с сравнительно-правовой точки зрения анализируются материальные и процессуально-правовые аспекты расследования хищений и трансграничных киберпреступлений в цифровой сфере. В исследовании подробно изучен опыт США, стран Европейского Союза и других развитых государств в области законодательства по борьбе с киберпреступностью, сбора, фиксации электронных (цифровых) доказательств, а также применения методов OSINT (разведка на основе открытых источников). Раскрыта роль международного сотрудничества и круглосуточной сети 24/7 в рамках Будапештской конвенции и Конвенции ООН против киберпреступности.*

Ключевые слова: *хищение в цифровой сфере, киберпреступность, электронные доказательства, цифровые следы, методы OSINT, Будапештская конвенция, Конвенция ООН, статья 169 УК, киберэкспертиза, хеш-сумма.*

ABSTRACT: *This scientific article provides a comprehensive comparative legal analysis of the substantive and procedural aspects of investigating digital theft and transboundary cybercrimes. The study systematically examines the legislation*

and investigative practices of the United States, European Union member states, and other advanced jurisdictions regarding the collection, preservation, and authentication of electronic (digital) evidence, as well as the strategic deployment of OSINT (Open Source Intelligence) techniques. It highlights the mechanisms of international cooperation and 24/7 contact networks established under the Budapest Convention and the 2024 UN Convention against Cybercrime.

Keywords: *digital theft, cybercrime, electronic evidence, digital traces, OSINT techniques, Budapest Convention, UN Convention, Article 169 of CC, cyber forensics, hash value.*

1. КИРИШ

Жамият ҳаётининг барча соҳалари жадал рақамлашуви, банк-молия тизимининг масофавий хизмат кўрсатиш форматларига ўтиши, электрон ҳамёнлар, крипто-активлар ва булутли технологияларнинг кенг жорий этилиши анъанавий мулкий жиноятларнинг трансформациялашувига олиб келди. Бугунги кунда мулкка тажовуз қилувчи жиноятлар, хусусан, яширин равишда ўзганинг мулкини талон-торож қилиш — ўғирлик жинояти тобора виртуал ва рақамли маконга кўчмоқда. Агар илгари ўғирлик жинояти муайян моддий объектни жисмоний эгаликдан чиқариш орқали содир этилган бўлса, замонавий рақамли маконда у ахборот тизимларига рухсатсиз кириш, парол ва идентификация маълумотларини эгаллаш, банк ва тўлов иловалари алгоритмларига ноқонуний мудохала қилиш ҳамда электрон маблағларни масофадан туриб транзит ва 'дроп' ҳисобварақларига ўтказиш йўли билан амалга оширилмоқда.

Замонавий криминалистик тадқиқотлар кўрсатишича, ҳозирда деярли барча анъанавий ва юқори технологик жиноятлар таркибида у ёки бу кўринишдаги рақамли таркибий қисм (digital component) ва рақамли излар мавжуддир. ФБРнинг Интернетда содир этилган жиноятлар бўйича шикоятларни қабул қилиш маркази (IC3) маълумотларига кўра, кибермаконда содир этиладиган жиноятлар ва улар натижасида етказиладиган молиявий зарар миқдори йилдан-йилга геометрик прогрессияда ортиб бормоқда. Бундай жиноятларнинг асосий хусусиятлари сифатида уларнинг анонимлиги, экстерриториаллиги (жиноятчи бир давлатда, сервер ва платформа иккинчи давлатда, жабрланувчи эса учинчи давлатда жойлашиши) ҳамда электрон далилларнинг ўта таъсирчанлиги ва тез йўқолувчанлиги намоён бўлади.

Ўзбекистон Республикасида ҳам киберхавфсизликни таъминлаш, ахборот-коммуникация технологиялари ёрдамида содир этиладиган жиноятларга қарши курашиш масаласи давлат сиёсатининг стратегик устувор

йўналишига айланди. Хусусан, 'Киберхавфсизлик тўғрисида'ги Қонун, Президентнинг 2025 йил 30 апрелдаги ПҚ–153-сон 'Ахборот технологиялари ёрдамида содир этиладиган жиноятларга қарши курашиш фаолиятини янада кучайтиришга қаратилган чора-тадбирлар тўғрисида'ги Қарори ҳамда 2022 йил 19 октябрдаги ЎРҚ–794-сон Қонуни билан Жиноят кодексининг 169-моддаси учинчи қисми 'б' бандига 'қонунга хиллоф равишда (рухсатсиз) ахборот тизимига кириб ёки ундан фойдаланиб' содир этилган ўғирлик учун махсус квалификацияловчи белгининг киритилиши ҳуқуқий базани мустаҳкамлашга хизмат қилмоқда.

Бироқ, тергов амалиётида рақамли изларни аниқлаш, олиш ва процессуал расмийлаштириш, хорижий сервер ва провайдерлардан маълумот олиш, шунингдек, киберўғирликни ахборот тизимларидан фойдаланиб содир этиладиган фирибгарлик (ЖК 168-моддаси) ёки компютер ахборотига рухсатсиз кириш (ЖК 278^2-моддаси) жиноятларидан тўғри чегаралаш борасида қатор муаммолар сақланиб қолмоқда. Шу сабабли ривожланган хорижий давлатлар (АҚШ, Европа Иттифоқи аъзолари) қонунчилиги ва тергов амалиётини қиёсий-ҳуқуқий таҳлил қилиш ҳамда уларнинг илғор усулларини миллий ҳуқуқий тизимга имплементация қилиш долзарб илмий ва амалий аҳамият касб этади.

2. АСОСИЙ ҚИСМ

2.1. Хорижий давлатлар (АҚШ, ЕИ) қонунчилиги ва амалиётида рақамли макондаги ўғирликларнинг ҳуқуқий квалификацияси

Хорижий давлатларнинг жиноят қонунчилигини ўрганиш шуни кўрсатадики, рақамли макондаги мулкий жиноятларни ва компютер тизимлари орқали содир этиладиган ўғирликларни квалификация қилишда икки асосий ҳуқуқий тизим — англо-саксон ва романо-герман ҳуқуқ оилалари ўзига хос ёндашувларни намойиш этади.

Америка Қўшма Штатлари (АҚШ) қонунчилигида рақамли макондаги мулкий жиноятлар ва ахборот тизимларига ноқонуний кириш орқали маблағларни эгаллаш алоҳида комплекс федерал қонунлар билан тартибга солинади. Асосий норматив-ҳуқуқий ҳужжат — Компютер фирибгарлиги ва суиистеъмоллиги тўғрисидаги қонун (Computer Fraud and Abuse Act - CFAA, 18 U.S.C. § 1030) ҳисобланади. Ушбу қонун ҳар қандай ҳимояланган компютер ёки тармоққа ваколатсиз (рухсатсиз) киришни ёки белгиланган кириш ваколатларидан четга чиққан ҳолда қимматли маълумотларни, молиявий ресурсларни эгаллашни жиноят деб баҳолайди ва бунда технология турига чеклаб қўйилмайди. Бундан ташқари, Электрон алоқа махфийлиги тўғрисидаги қонун (Electronic Communications Privacy Act -

ECPA) ва Сақланаётган алоқалар тўғрисидаги қонун (Stored Communications Act - SCA) орқали рақамли маълумотлар, электрон почта ва трафик маълумотларини олиш ва терговда фойдаланиш тартиби қатъий белгиланган. АҚШда рақамли макондаги ўғирлик ва фирибгарлик ишлари бўйича тергов ҳаракатлари АҚШ Адлия вазирлиги (DOJ) ва ФБР (FBI) таркибидаги махсус кибержиноятчиликка қарши курашиш гуруҳлари ҳамда CISA томонидан олиб борилади. IC3 тизими эса бутун мамлакат бўйича рақамли талон-торожларга оид аризаларни марказлаштирилган ҳолда тўплаб, улар ўртасидаги технологик ва молиявий боғланишларни автоматлаштирилган тарзда аниқлайди.

Буюк Британияда 1990 йилдаги Компютердан ноқонуний фойдаланиш тўғрисидаги қонун (Computer Misuse Act 1990) ва 2006 йилдаги Фирибгарлик тўғрисидаги қонун (Fraud Act 2006) амал қилади. Компютер материалларига, трафик маълумотларига ва ахборот тизимларига ҳар қандай мақсадда рухсатсиз кириш ёки уларни ўзгартириш орқали мулкий манфаат олиш технологик жиҳатдан нейтрал тарзда жазоланади.

Европа Иттифоқи (ЕИ) мамлакатларида (Германия, Франция, Австрия, Болгария, Нидерландия) рақамли ўғирлик ва компютер фирибгарлиги романо-герман жиноят-ҳуқуқий доктринаси асосида квалификация қилинади. Масалан, **Германия Жиноят кодексининг (Strafgesetzbuch - StGB) 263a-моддаси** ('Компютер фирибгарлиги') компютер дастурини нотўғри шакллантириш, ёлғон ёки тўлиқ бўлмамаган маълумотларни киритиш, маълумотлардан рухсатсиз фойдаланиш ёки ахборотни қайта ишлаш жараёнига ноқонуний аралашиш орқали бошқа шахснинг мулкига зарар етказишни жиноий жавобгарликка сабаб бўлишини белгилайди. Германия қонунчилиги ўрнатилган техник ҳимоя воситаларини бузиб, электрон маълумотларга киришни жуда кенг қамровда қамраб олади. **Франция ва Австрия** жиноят қонунчилигида ҳам электрон тўлов воситаларидан фойдаланиб содир этилган талон-торожликлар ва авторизация чекловларини бузиш алоҳида оғирлаштирувчи ҳолат сифатида қаралади.

Қиёсий таҳлил шуни кўрсатадики, хорижий қонунчиликда рақамли макондаги ўғирликни квалификация қилишда **'технологик нейтраллик' (technological neutrality)** принципига таянилади. Яъни, жиноят қонуни муайян бир дастурий таъминот ёки қурилма брендига боғланмайди, балки қилмишнинг ҳуқуқий ва техник моҳиятига — ахборот тизимига ноқонуний кириш, маълумотларни модификация қилиш ва мулкдорнинг иродасига зид равишда активларни ўзлаштириш фактларига баҳо беради.

2.2. Рақамли изларни йиғиш, OSINT усуллари ва махсус дастурий-аналитик воситалардан фойдаланиш тажрибаси

Рақамли маконда содир этиладиган ўғирликларни аниқлаш ва тергов қилиш анъанавий процессуал ҳаракатлардан фарқ қилиб, махсус тактик ва оператив-техник усулларни талаб этади. Хорижий давлатлар тергов амалиётида асосий эътибор рақамли изларни марказлаштирилган ҳолда йиғиш ва **OSINT (Open Source Intelligence - очиқ манбалар орқали разведка қилиш)** усулларига қаратилган.

АҚШ олимлари ва криминалистлари томонидан кибержиноятларни тергов қилишда қуйидаги 3 та бирламчи ва фундаментал метод ажратиб кўрсатилади:

1. **Оммага очиқ бўлган онлайн маълумотларни тўплаш (OSINT):** Ижтимоий тармоқлар, домен номлари реестрлари (WHOIS), очиқ серверлар, IP-манзиллар базалари, BGP-маршрутлаш қайдлари, форумлар ва ахборот платформаларидан жиноятчининг рақамли профилини аниқлаш;
2. **Онлайн хизмат кўрсатувчи провайдерлар (ISP) ва платформаларга сўровлар юбориш:** Ҳостинг провайдерлар, IT-платформалар, электрон почта ва мессенжер хизматларидан фойдаланувчиларнинг IP-логи, вақт кўрсаткичлари (timestamps) ва транзакция қайдларини олиш;
3. **Ахборот тизимлари ва қурилмаларни криминалистик кўздан кечириш (Digital Forensics):** Олиб қўйилган компютер ва телекоммуникация қурилмаларидаги тизим журналлари (system logs), аудиторлик текшируви ёзувлари (audit logs) ҳамда вақтинчалик файлларни криминалистик нусхалаш орқали ўрганиш.

Ривожланган давлатларда рақамли изларни таҳлил қилишда йирик автоматик дастурий-аналитик мажмуалар кенг қўлланилмоқда:

- **“Log Management” ва SIEM тизимлари (Splunk, ELK Stack):** АҚШ ва ЕИ ҳуқуқ-тартибот идораларида тармоқ трафиги, сервер журналлари ва фойдаланувчиларнинг ҳаракатларини реал вақт режимида мониторинг қилиш ҳамда маълумотлар сизиб чиқиши ёки рухсатсиз кириш изларини марказлаштирилган тартибда таҳлил қилиш учун қўлланилади.
- **Крипто-активлар ва блокчейн аналитикаси дастурлари (Chainalysis, CipherTrace Scout, Bitfury Crystal):** Нидерландия ва АҚШ тергов органлари ўғирланган электрон пуллар ва криптовалюталарнинг каскадли ўтказмаларини, 'дроп' ҳамёнлар занжирини ва ноқонуний накдлаштириш нуқталарини транзакциялар графиги орқали визуаллаштириш ва кузатиш учун айнан ушбу аналитик платформалардан фойдаланадилар.
- **Рақамли тактикани аниқлаш тизимлари:** АҚШ ФБР томонидан қўлланиладиган махсус аналитик тизимлар жиноятчи

гуруҳларнинг хусусий кодини ва қўллайдиган зарарли дастурий таъминотини автоматик аниқлаб, жиноятчиларнинг шахсини ва жойлашган жойини ўрнатишга хизмат қилади.

- **Шифрланган тармоқларда тергов ўтказиш усуллари:** Махсус муҳитларда содир этиладиган оғир ва трансчегаравий жиноятларни фош этишда махсус дастурий-техник тергов усуллари қўлланилади.

2.3. Рақамли далиллар билан ишлашнинг процессуал тартиби ва халқаро ҳамкорлик механизмлари

Рақамли далиллар (digital/electronic evidence) анъанавий ашёвий далиллардан ўзининг физик шаклга эга эмаслиги, осон ўзгарувчанлиги, тез ўчириб юборилиши ва нусхаланганда асли билан нусхаси ўртасида фарқ қолмаслиги каби специфик хусусиятлари билан ажралиб туради. Шу сабабли, рақамли далилларни олиш ва судда мақбул далил деб топиш учун хорижий процессуал қонунчиликда қатъий стандартлар ўрнатилган.

Бу борада асосий тамойил **'Chain of Custody' (Далилларни сақлаш ва кузатиш занжири)** деб аталади. Ушбу тамойилга кўра, рақамли маълумот аниқланган вақтдан бошлаб судда далил сифатида баҳолангунга қадар унинг яхлитлиги ва ўзгармаганлиги технологик жиҳатдан исботланиши лозим. Хорижий амалиётда бу жараён **хеш-сумма (SHA-256, MD5 алгоритмлари)** ёрдамида таъминланади. Рақамли манбадан форензик нусха олинганда, унинг хеш-коди ҳисоблаб чиқилади ва баённомага киритилади. Агар судда тақдим этилган маълумотнинг хеш-коди дастлабки кўрсаткичга мос келса, далилнинг мақбуллиги ва дахлсизлиги тан олинади.

Трансчегаравий киберўғирликларни тергов қилишда халқаро-ҳуқуқий ҳамкорлик ҳал қилувчи аҳамиятга эга. Боиси, жиноят излари хорижий серверларда сақланади, анъанавий дипломатик сўровлар (MLAT) эса ойлаб вақт олади, ваҳоланки кибермаконда далиллар бир неча дақиқада йўқ қилиниши мумкин.

Дунё тажрибасида бу муаммони ҳал қилишнинг 2 та асосий глобал конвенциявий механизми мавжуд:

1. **Европа Кенгашининг Кибержиноятлар тўғрисидаги Будапешт конвенцияси (2001 йил 23 ноябрь):** Кибержиноятчиликка қарши курашдаги илк халкаро ҳужжат бўлиб, компютер маълумотларини ва трафикни тезкор сақлаб қўйиш (expedited preservation), провайдерлардан маълумот олиш, тизимларни тинтув қилиш ва энг муҳими — **24/7 режигида ишлайдиган миллий алоқа нуқталари тармоғини** яратишни назарда тутади. 2022 йилда қабул қилинган 2-Илова Протокол эса электрон далилларга трансчегаравий тўғридан-тўғри кириш имкониятини янада кенгайтирди.

2. **БМТнинг Кибержиноятчиликка қарши Конвенцияси (2024 йил 24 декабрь):** Глобал миқёсда жиддий жиноятлар бўйича электрон далиллар билан алмашиш ва халқаро ҳуқуқий ёрдам кўрсатишнинг универсал қоидаларини белгилаб берди.

3. ХУЛОСА ВА ТАКЛИФЛАР

Олиб борилган қиёсий-ҳуқуқий таҳлил, хорижий давлатларнинг қонунчилиги ва тергов амалиётини ўрганиш натижалари асосида, Ўзбекистон Республикасида рақамли макондаги ўғирликлар ва кибержиноятларни тергов қилиш самарадорлигини ошириш, шунингдек, миллий қонунчиликни такомиллаштириш бўйича қуйидаги **аниқ ва илмий асосланган таклифлар** илгари сурилади:

1. **Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг 169-моддасини такомиллаштириш ва диспозициясини аниқлаштириш:** ЖК 169-моддаси учинчи қисми 'б' бандидаги 'ахборот тизимига кириб ёки ундан фойдаланиб' содир этилган ўғирлик ва ЖК 168-моддаси учинчи қисми 'г' бандидаги ахборот тизимидан фойдаланиб содир этилган фирибгарлик нормалари ўртасидаги чегарани қатъий белгилаш лозим. Олий суд Пленумининг тегишли қарорларида (хусусан, 2023 йил 23 июндаги 17-сон қарорида) компютер тизимига ноқонуний кириб, алгоритмларни ўзгартириш ёки паролларни ғайриқонуний эгаллаш орқали мулкдорнинг иродасига зид равишда пулларни олиб чиқиб кетиш айнан **электрон ўғирлик (ЖК 169-моддаси)** сифатида квалификация қилиниши, инсонни алдаш ва ишончини суиистеъмол қилиш ҳолатлари эса **фирибгарлик (ЖК 168-моддаси)** сифатида баҳоланиши шартлиги аниқ шарҳлаб берилиши керак.

2. **Жиноят-процессуал кодексида 'Рақамли далиллар' тўғрисидаги алоҳида бобни ва мустақил процессуал нормаларни мустаҳкамлаш:** АҚШ ва ЕИ тажрибасидан келиб чиқиб, ЖПКга 'Рақамли далиллар' тушунчаси, уларни тўплаш, олиб қўйиш, кўздан кечириш ва сақлаш тартибини тартибга солувчи нормаларни киритиш лозим. ЖПКга хеш-суммаларни (SHA-256) баённомада қайд этиш, форензик нусха олиш ҳамда далилларни сақлаш ва кузатиш занжирини (Chain of Custody) мажбурий расмийлаштириш қоидалари киритилиши рақамли далилларнинг судда мақбуллигини тўлиқ кафолатлайди.

3. **Рақамли излар билан ишлашда IT-мутахассиси иштирокини мажбурий этиб белгилаш ва 'Киберэкспертиза' институтини ривожлантириш:** Тергов ҳаракатлари давомида (тинтув, кўздан кечириш, олиб қўйиш) рақамли ташувчилардан маълумотларни олишда IT-мутахассиси ва киберкриминалист иштирокини ЖПКда мажбурий қилиб белгилаш зарур.

Шунингдек, мутахассис томонидан олинган рақамли далилларни баҳолаш учун мустақил 'Суд-киберэкспертизаси' институтини қонунчилик асосида мустаҳкамлаш тавсия этилади.

4. **Тергов органлари фаолиятига SIEM, Log Management ва OSINT аналитик тизимларини кенг жорий этиш:** АҚШнинг ICЗ ва ЕИнинг кибермарказлари тажрибаси асосида, Ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар таркибида ягона марказлаштирилган 'Log Management' ва SIEM тизимларини ҳамда махсус OSINT аналитик бўлинмаларини ташкил этиш лозим. Бу интернет-провайдерлар, банклар, тўлов тизимлари ва крипто-биржалар логларини реал вақт режимида cross-referencing (ўзаро солиштириш) орқали 'дроп' ҳисобварақларини ва жиноятчиларнинг шахсини тезкор аниқлаш имконини беради.

5. **Халқаро ҳамкорлик ва 24/7 тезкор алоқа тармоқларига интеграциялашувни жадаллаштириш:** Трансчегаравий киберўғирликларга қарши курашишда ва хорижий серверлардаги электрон далилларни музлатиб қўйиш (expedited preservation) учун Будапешт конвенциясининг 24/7 алоқа нуқталари механизмидан унумли фойдаланиш, шунингдек БМТнинг 2024 йилги Кибержиноятчиликка қарши конвенцияси доирасидаги халқаро процессуал ҳамкорликни миллий амалиётга фаол татбиқ этиш зарур.

4. ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси.
2. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси.
3. Ўзбекистон Республикасининг 'Киберхавфсизлик тўғрисида'ги 2022 йил 15 апрелдаги ЎРҚ–764-сон Қонуни // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 'Ахборот технологиялари ёрдамида содир этиладиган жиноятларга қарши курашиш фаолиятини янада кучайтиришга қаратилган чора-тадбирлар тўғрисида'ги 2025 йил 30 апрелдаги ПҚ–153-сон Қарори.
5. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 'Фирибгарликка оид ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида'ги 2023 йил 23 июндаги 17-сон қарори.

6. Атемов Б.У. Киберфирибгарлик билан курашиш: миллий муаммолар ва халқаро амалиёт // Modern Science and Research. – 2026. – Vol. 5, Issue 10. – Б. 148-155.

7. Закурлаев А.К. Тезкор-қидирув фаолиятида рақамли далиллардан фойдаланишнинг процессуал ва криминалистик муаммолари // Тергов амалиёти. – 2023. – № 4 (20). – Б. 151-155.

8. Cernomoreț S., Nastas A. Comparative Analysis of Cybercrime in the Criminal Law System // ADJURIS – International Journal of Law and Social Sciences. – 2023. – Vol. 12, Issue 1. – Pp. 33-82.

9. Council of Europe. Convention on Cybercrime (Budapest Convention), ETS No. 185, Budapest, 23.XI.2001.

10. United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC). United Nations Convention against Cybercrime: Strengthening international cooperation. – Vienna: UN, 2024.

11. FBI Internet Crime Complaint Center (IC3). Internet Crime Report 2020. – Washington D.C.: Federal Bureau of Investigation, 2021.

ХАЛҚ ДИПЛОМАТИЯСИНИНГ ЗАМОНАВИЙ СИЁСИЙ ЖАРАЁНЛАРДАГИ ЎРНИ

Собиров Қобилжон Қосимович
Ўзбекистонда ШҲТнинг Халқ дипломатияси маркази директори, Тошкент давлат шарқшунослик университети мустақил изланувчиси

Аннотация. *В статье рассматривается роль народной дипломатии в современных политических процессах, её исторические основы и формы участия представителей общества в международных отношениях. Отдельное внимание уделяется традициям народной дипломатии в Узбекистане и значению культурных связей, диалога и сотрудничества.*

Ключевые слова: *народная дипломатия, международные отношения, культурное сотрудничество, Узбекистан, диалог, политические процессы.*

Annotatsiya. *Maqolada xalq diplomatiyasining zamonaviy siyosiy jarayonlardagi o‘rni, tarixiy asoslari va jamoatchilik vakillarining xalqaro munosabatlardagi ishtiroki ko‘rib chiqiladi. O‘zbekistondagi xalq diplomatiyasi an’analari, madaniy aloqalar, muloqot va hamkorlikning ahamiyatiga alohida e’tibor qaratiladi.*

Kalit so‘zlar: *xalq diplomatiyasi, xalqaro munosabatlar, madaniy hamkorlik, O‘zbekiston, muloqot, siyosiy jarayonlar.*

Abstract. *This article discusses the role of public diplomacy in contemporary political processes, its historical foundations, and the participation of civil society representatives in international relations. Particular attention is paid to traditions of public diplomacy in Uzbekistan and the significance of cultural ties, dialogue, and cooperation.*

Keywords*: public diplomacy, international relations, cultural cooperation, Uzbekistan, dialogue, political processes.*

Халқ дипломатияси – маданият ва анъаналарни яхшироқ тушуниш муносабатларини йўлга қўйиш, манфаатли ҳамкорликни ривожлантиришга интилаётган халқлар ва ташкилотларнинг беғараз мулоқот майдони. Халқ дипломатиясида сиёсий шахслар эмас, балки ижодкорлар, илм-фан намояндалари, ишбилармон доиралар вакиллари, ёшлар, хуллас оддий халқ вакиллари иштирок этади. Улар халқаро миқёсдаги турли форумлар, симпозиумлар, анжуманлар, ҳаттоки низоларни ҳал этиш бўйича музокараларда ҳам давлат номидан воситачи сифатида қатнашиши мумкин.

Ўзбекистон учун халқ дипломатияси чуқур тарихий ва ижтимоий-маданий, сиёсий асосларга эга. Миллатлараро, маданиятлараро, конфессиялараро ва тиллараро бағрикенглик ўзбек этноси учун хос фазилатлардан ҳисобланади. ўзбек халқи тарихан Буюк Ипак йўли чорраҳасида турли маданият, тил ва диний қарашларга эга халқлар билан ўзаро цивилизацион алоқада шаклланган.

Халқ дипломатияси тарихнинг барча даврларида тўхтовсиз ривож топиб борган ва бу факт унинг ижтимоий тараққиёт ва жаҳон сиёсатидаги аҳамиятини янада ортишини англатади.

Халқ дипломатиясининг замонавий сиёсий жараёнлардаги ўрни масаласига тўхталганда энг аввало унинг эволюцион ривожланиш босқичларига тўҳталиб ўтиш жоиз.

Халқ дипломатиясининг келиб чиқиши ва сиёсий доираларда қўлланилиши турли даврларда жамият ва халқаро муносабатларнинг улар олдига қўйган масалаларига боғлиқликни кўриш мумкин. “Халқ дипломатияси” сиёсий, дипломатик ва илмий мунозараларга киришнинг узоқ тарихига эга. Шу жиҳатдан халқ дипломатияси тушунчасининг вужудга келиши ва халқаро муносабатларнинг тўлақонли субъектига айланиш жараёнини 5 та даврга бўлиб ўрганиш мумкин[32].

Ўзбекистон халқ дипломатияси тарихи ҳақида академик А.Аскаровнинг мулоҳазалари яйниқса диққатга сазовордир. Олим Ўзбекистон ҳудудидаги халқ дипломатиясининг илдизлари қадимги бронза даври Сополлитепа ва Жарқўтон манзилгоҳларидаги қазишма ишлари натижасида топилган археолгик манбалар орқали таҳлил қилиб берган[33]. Хусусан, Жанубий Ўзбекистонда шаклланган Сополлитепа манзилгоҳида яшаган аҳоли бронза давридаёқ қўшни халқлар билан бевосита яқиндан ҳамкорлик алоқаларини олиб борган.

Шарқшунос олим М.Исхоқовнинг халқ дипломатиясининг ривожланишида Буюк Ипак йўлининг аҳамияти ҳақидаги фикрлари Марказий Осиё минтақасида халқ дипломатиясининг чуқур тарихий илдизлари мавжудлигини яна бир бор исботлайди[34]. *“Халқ дипломатиясининг тарихий аҳамиятини Буюк Ипак йўли шаклланишидан олдинги даврлардан бошлаб ўрганган маъқул. Сабаби, Буюк ипак йўли мил. авв.II-I асрларга шаклланган йўл*

[32] Собиров Қ. ва бошқалар. Юракдан юракка интилувчи дипломатия // “Art Vernisage”, Т., 2022. Б. 55.
[33] МТРК жорий архивидан. А. Аскаровнинг “Ўзбекистон тарихи” телеканалида “Маданий-гуманитар алоқаларнинг ривожланишида халқ дипломатиясининг роли” мавзусидаги давра суҳбатидаги нутқидан. Т. 2020. 10 февраль.
[34] МТРК жорий архивидан. М. Исхоқовнинг “Ўзбекистон тарихи” телеканалида “Маданий-гуманитар алоқаларнинг ривожланишида халқ дипломатиясининг роли” мавзусидаги давра суҳбатидаги нутқидан. Т. 2020. 10 февраль.

сифатида барчага маълум лекин, халқлараро муносабатлар қадимги тош даврларига бориб тақалади".

